

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIJ VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**S.X.MUHAMEDOVA, Q.MO‘YDINOV,  
SH.M.YUNUSOVA, D.NURIDDINOVA**

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA  
O‘ZBEK TILI FANINI  
O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI  
(o‘zga tildagi guruhlar uchun)**

**metodik qo‘llanma**

**TOSHKENT – 2017**

**S.X.Muhamedova, Q.Mo‘ydinov, Sh.M.Yunusova, D.Nuriddinova.**  
Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘zbek tili fanini o‘qitish texnologiyalari (o‘zga tildagi guruhlar uchun) metodik qo‘llanma

Mazkur metodik qo‘llanmada asosiy e‘tibor o‘zbek tili o‘quv fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarni DTS bilan me‘yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishda ilg‘or o‘qitish texnologiyalarni qo‘llash masalalariga qaratilgan.

Metodik qo‘llanma umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘zbek tili (o‘zga tilli guruhlarda) o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

**Taqrizchilar:** **N.Egamberdiyeva** - Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

**N.Ahmedova** – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU Kengashining 2017-yil 24-dekabrda 5-sonli bayonnomasi asosida nashrga tavsiya qilingan.

## Mundarija

<b>Kirish.....</b>	<b>4</b>
 <b>I bob. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili fanini o‘qitishga texnologik yondashuvni tatbiq etishning nazariy asoslari</b>	
1.1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili fanini o‘qitishda texnologik yondashuvni tatbiq etishning o‘ziga xosliklari .....	6
1.2. O‘zbek tili fanini o‘qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish ..	16
 <b>II bob. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili fanini o‘qitishning xususiy metodik texnologiyasi</b>	
2.1 O‘zbek tili fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish yo‘llari... ..	25
2.2. Interaktiv ta’lim asosida o‘zbek tili darslarini loyihalash va rejalashtirish amaliyoti.....	53
 <b>III bob. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili fanini o‘qitishda texnologik yondashuvni tatbiq etish</b>	
3.1. Texnologik yondashuv asosida o‘zbek tili darslarini tashkil etish va o‘tkazishga doir ishlanmalar.....	57
3.2. O‘zbek tili fanini o‘qitish texnologiyasini amaliyotga tatbiq etishga doir ish tajribalari.....	105
Xulosa.....	157
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	161

## KIRISH

O‘zbekistonning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi natijasi o‘laroq navqiron davlat jahon hamjamiyati sari yuzlandi. Tarixan qisqa davr oralig‘ida xorijiy mamlakatlar bilan savdo, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diplomatik aloqalar mustahkamlandi. Binobarin, O‘zbekiston BMTga a‘zo bo‘ldi, milliy qadriyatlarga munosabat tubdan yangilandi va milliy tizimda xalqaro ilm-fan integratsiyalashuv jarayoni ancha teranlashdi. Buning natijasida o‘zining siyosiy mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodini, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, ma'naviyatimiz va qadriyatimizni tiklash, ta'lim-tarbiyani mustaqillik talablaridan va millat manfaatlaridan kelib chiqqan holda tubdan isloh qilish imkoniga ega bo‘ldi. Ta'lim tizimining moddiy bazasini va zamonaviy talablarga mos strukturasi yaratish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi jahon andozalari darajasida har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlash tizimiga asos bo‘ldi.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasida: “Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta‘minlashni nazorat ostiga olish zarur“ligini alohida ta‘kidladilar. Shunga ko‘ra Milliy dasturni ro‘yobga chiqarish bosqichida (2001-2005 yillar) “o‘quv-tarbiyaviy jarayon ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta‘minlash” muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi. O‘rta maxsus, kasb-hunar va umumiy o‘rta ta‘lim mazmuni mazkur hujjatlar asosida tubdan yangilandi: davlat ta‘lim standartlari, o‘quv rejalari ishlab chiqildi. O‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga, o‘quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarini tatbiq etish ishlariga jadal kirishildi. Xususan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida zamonaviy o‘qitish metodlari, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining o‘rni va roli benihoya kattadir.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasida aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan. Yosh avlodga fan asoslarini puxta o‘rgatish, ularning dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini kengaytirish, ma‘naviy-axloqiy sifatlarni yanada yuksaltirish, ta‘limiy va tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog‘liqdir. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida uzluksiz ta‘lim tizimi xodimlari, xususan, umumiy o‘rta ta‘lim tizimi o‘qituvchilarining zamonaviy ta‘lim va axborot texnologiyalaridan xabardorliklari hamda ularni ta‘lim jarayonida samarali qo‘llay olishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, ilg‘or pedagogik texnologiyalar dastlab OTM, keyinroq AL va KHK muvaffaqiyatli qo‘llana boshladi, ta‘lim jarayoniga tatbiq etildi. Bugungi kunda ilg‘or pedagogik texnologiyalar umumta‘lim maktablaridagi ta‘lim jarayoniga ham faol ravishda tatbiq etilmoqda. Shuning uchun ushbu metodik qo‘llanmada dastlab umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘zbek tili fanini o‘qitishga texnologik yondashuvni tatbiq etishning nazariy asoslari haqida fikr yuritib, innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida qisqacha ma‘lumot beriladi, ularning mohiyati

nimada, ular vositasida qanday yutuqlarga erishish mumkin, ilg'or, yangicha ta'lim berishning avvalgi ta'lim berish usulidan qanday farqlari bor kabi masalalarga to'xtab o'tildi. Shuningdek, qo'llanmada o'zbek tili fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tili fanini o'qitishning xususiy metodik texnologiyasi, ya'ni o'zbek tili fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish yo'llari kabilar yuzasidan tavsiyalar berildi.

Metodik qo'llanmaning 3-bobida qo'llanma mualliflari tomonidan ishlab chiqilgan texnologik yondashuv asosida o'zbek tili darslarini tashkil etish va o'tkazishga doir ishlanmalar, ya'ni ta'lim texnologiyalarining namunalari sinflar kesimida keltirildi. Ushbu namunalar asosida o'zbek tili fani o'qituvchilari boshqa mavzularning ham ta'lim texnologiyalarini yaratishi mumkin.

Shuningdek, mazkur bobda qo'llanma mualliflari tomonidan o'tkazib kelinayotgan "Mahorat maktabi" tinglovchilari tomonidan tayyorlangan dars ishlanmalari ham namuna tarzida berildi.

# I BOB. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA O‘ZBEK TILI FANINI O‘QITISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUVNI TATBIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

## 1.1. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘zbek tili fanini o‘qitishda texnologik yondashuvni tatbiq etishning o‘ziga xosliklari

Ta‘limni texnologiyalashtirish g‘oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta‘limni texnologiyalashtirish g‘oyasini ilgari surgan. U ta‘limni “texnikaviy” qilishga undagan, ya‘ni hamma narsa, nimaga o‘qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo‘lsin. Natijaga olib keluvchi, o‘quv jarayonini, u “didaktik mashina” deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun: aniq qo‘yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan.

Ta‘lim nazariyasi va amaliyotida o‘quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko‘rilgan. Ular o‘z ifodasini an‘anaviy o‘qitish uchun majmualari texnik vositalarni yaratishda topgan.

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya shunday ta‘rif berilmoqda: «Pedagogik texnologiya o‘qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta‘lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo‘llash, shuningdek, qo‘llanilayotgan usullarni baholash yo‘li orqali ta‘lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo‘llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir»<sup>1</sup>.

Barcha ta‘lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo‘liga o‘tkazish, maktab amaliyoti pedagogik jarayonini ixtiyoriy qurish va uni amalga oshirishdan keskin burilishi quyidagilarni anglatadi:

➤ uning har bir qism va bosqichlarining izchil asoslanganligi (ta‘lim jarayonini tartiblashtirish - batafsil aniqlangan va asoslangan, ishlarni ma‘lum tartibidan tashkil topgan qismlar - muloqot, axborot va boshqaruvning yo‘l va vositalarini bo‘lish orqali mumkin qadar rasmiyatchilik nuqtayi nazaridan rasmiylashtirilgan);

➤ yakuniy natijani haqqoniy tashxis qila olishga yo‘naltirilganligini;

➤ ta‘lim jarayoniga mavjud sharoit va belgilangan vaqt ichida qo‘yilgan ta‘limiy maqsad hamda ijobiy natijaga erishishni ta‘minlaydigan ishlab chiqarish-texnologik jarayonining mukammal, aniq yo‘lga qo‘yilgan, izchil, muvofiqlashgan xususiyatini berish;

➤ uning samaradorligi va inson imkoniyatlari (kuch, vaqt)ni maqbullashtirish maqsadi bilan butun ta‘lim jarayonini boshqaruvchanligi.

Xo‘sh, ta‘limni texnologiyalashtirish sohasidagi asosiy tushuncha va terminlarning o‘zi nimani anglatadi?

---

<sup>1</sup> Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Innovatsion ta‘lim texnologiya seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2011, 6-b.

“Texnologiya” atamasi pedagogika faniga ishlab chiqarish sohasidan o‘zlashtirilganki, bunda yuqori asosli psixologiya pedagogik muhandislik maydoniga o‘zgaradi” (A.M.Kushnir, 2004).

Pedagogik ilm va amaliyotda «pedagogik texnologiya», «ta’limiy texnologiya» va «ta’lim berish texnologiyasi» kabi atamalarni keng qo‘llanilishi kuzatilmog‘da. Shu bilan birga ularni tushunishda alohida bo‘lgan o‘qish turlari mavjud. Avvalambor, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi, ularni nima ajratib turishini tushunish uchun, «texnologiya» va uning kelib chiquvchilari: «ta’limni texnologiyalashtirish», «ta’lim texnologiyasi», «texnologik xarita», «texnologik tartib» kabi tushunchalarini aniqlashtirish lozim.

«**Texnologiya**» yunoncha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib «*techne*» - mahorat, san’at, malaka va «*logos*» - so‘z, ta’limot ma’nolarini anglatadi<sup>1</sup>.

**Ta’limni texnologiyalashtirish** – bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

### **Ta’lim texnologiyasi:**

Bu mavjud sharoit va o‘rnatilgan vaqtda belgilangan ta’limiy maqsad va ko‘zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta’minlovchi, *muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo‘l va o‘qitish vositalarining tartibli yig‘indisi* (ta’lim berish texnologiyasining jarayon - bayonli jihati)dir. Bu mavjud yuzaga kelgan ta’limiy jarayon subyektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta’lim berish texnologiyasining amaliy-jarayon jihati) tartibi ham.

«**Pedagogik texnologiya**» - pedagogik hodisa va ta’limni texnologiyalashtirish sohasidagi jarayonda qo‘llaniladigan tushuncha.

### **Pedagogik texnologiyalarning tasnifi<sup>2</sup>.**

Pedagogik texnologiyalar quyidagicha tasniflanadi:

#### **1. Qo‘llanilish darajasiga ko‘ra:**

- umum pedagogik;
- xususiy metodik (predmetlar);
- lokal (modulli);

#### **2. Falsafiy asosiga ko‘ra:**

- materialistik;
- idealistik;
- dialektik va metafizik;
- ilmiy va diniy;
- gumanistik va antigumanistik;
- erkin tarbiya va majburiy va hokazo;

#### **3. Psixik rivojlanishning yetakchi omili bo‘yicha:**

- biogen;

---

<sup>1</sup> Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Innovatsion ta’lim texnologiya seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2011, 13-b.

<sup>2</sup> Ahmadaliyev A. M., Qosimov A. X. Innovatsion faoliyat va ilg‘or pedagogik texnologiyalar. –T., 2006, 20-b.

- sotsiogen;
- psixogen;
- idealistik texnologiyalar.

Ma'lumki, shaxs biogen, sotsiogen, psixogen, faktorlar to'plami ta'sirida shakllanadi, biroq aniq texnologiya ulardan birini olishi mumkin:

#### **4. Tajribani o'zlashtirish ilmiy konsepsiyasi bo'yicha :**

- assosatsiyativ reflektorli;
- rivojlanuvchi;

#### **5. Shaxsiy xususiyatlarga yo'naltirilgan:**

- axborot texnologiyalarini (bilim, o'quv, malakalarni ) shakllantirish.

#### **6. Aqliy faoliyat operatsiyalari:**

- ruhiy-badiiy va ruhiy-ahloqiy;
- o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyasi;
- evrestik (ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish) va amaliy;

#### **7. Mazmun va tuzilishiga ko'ra:**

- o'rgatuvchi va tarbiyalovchi;
- dunyoviy va diniy;
- umumta'lim va kasbiy ta'limga yo'naltirish;
- ijtimoiy;
- turli tarmoqli;
- xususiy predmetli;
- politexnologiyalar, monotexnologiyalar;
- kirib boruvchi texnologiyalar;

#### **8. Bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish turiga ko'ra Pedagogik texnologiyalarni quyidagilarga ajratish mumkin.**

- klassik ma'ruzaviy o'qitish.
- avdiovizual texnik vositalar yordamida o'qitish.
- "Konsultant" tizimi.
- "O'quv kitoblari" yordamida o'qitish.

Pedagogik texnologiyada o'quvchining o'quv jarayonida tutgan o'rnini va pedagogning o'quvchilarga nisbatan bo'lgan munosabati muhim o'rin tutadi. Bunda quyidagi texnologiyalarni ajratish mumkin:

**a) Avtoritar texnologiya.** Bunda pedagog o'quv tartiblovchi jarayonining asosiy subyekti, o'quvchi esa, faqat obyekt sifatida qatnashadi. U o'quvchilarning erkinligini bo'g'ishi, majburiy o'qitish, tashabbusni bo'g'ish va o'quv tarbiyaviy jarayonini qattiqqo'llik bilan olib borishga asoslanadi.

**B) Didaktotsentrik texnologiyalar** - o'quvchi shaxsiga e'tibor bermaslik bilan ajralib turadi. Bunda ham subyekt-obyekt munosabati bo'lib, shaxsni shakllantira olish, didaktik vositalaridan iborat bo'ladi.

**V) Shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalar** - buning markazida o'quvchi shaxsi uni rivojlantirish uchun, barcha sharoitlarni yaratish, uning tarbiyaviy salohiyatini namoyon qilishga yordam berish yotadi. Bunda o'quvchi shaxsi faqatgina subyekt bo'lmay, prioritetga ega bo'lgan subyekt bo'ladi. Bunda u ta'limiy tizimning maqsadiga aylanadi. Bunday texnologiyalar "antropotsentrik texnologiyalar" deyiladi.



Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar antropotsentrik, gumanistik va psixoterapistik, har tomonlama erkin, ijodiy rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

**G) Insonparvar - shaxsiy texnologiyalar** - insonparvarlik mohiyati bilan ajralib turadi, unga yordam beradi, qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchining kuchiga hurmat, undagi qobiliyatlarni ochilishiga yordam berish va majburiy ta'lim-tarbiyani rad etadi.

**D) Hamkorlik texnologiyalar** - u demokratizm, tenglik, g'oyalarini ilgari suradi va o'qituvchi o'quvchi munosabatlarida subyekt-subyektga asoslanadi. O'qituvchi va o'quvchi ta'lim-tarbiya maqsadi mazmunini ishlab chiqadi. Hamjihatlik bilan o'z faoliyatlariga baho qo'yadi.

**E) Erkin tarbiya texnologiyasi** - bunda o'quvchiga barcha yo'nalishlar bo'yicha erkin tanlash huquqi beriladi. Tanlash davomida o'quvchi subyekt nuqtayi nazaridan namoyon qiladi va natijaga tashqi ta'sirdan emas, balki ichki kuch vositasida ergashadi.

**J) Ezotermik texnologiya** - bular ezotermik ("anglanmagan, bilib turib") bilimlarga - haqiqat va unga olib boruvchi yo'llarga asoslanadi. Bunda pedagogik jarayon xabar berish, muloqot qilishdan iborat bo'lmay, balki, haqiqatga payvand bo'lish bilan iborat bo'ladi. Ekzotik paradigmada insoning o'zi koinot bilan o'zaro axborot almashish markaziga aylanadi.

O'rganuvchilar toifalariga ko'ra pedagogik texnologiyalar quyidagilarga bo'linadi:

- oilaviy (an'anaviy) texnologiya - u o'rtacha o'quvchiga asoslangan;
- chuqurlashtirib o'qitish texnologiyasi - gimnaziya, litsey, maxsus ta'lim;
- "qiyin" va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga mo'ljallangan texnologiyalar.

**«Ta'limiy texnologiya»** - "ta'lim olish shakllarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuvchi, ya'ni butun ta'lim berish jarayonini hamda texnikaviy va inson faktorini hisobga olgan holda bilimlarni o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli".

**Pedagogik tizim** – shaxsning bor sifatlarini shakllantirish uchun tashkiliy, maqsadga yo'naltirilgan va pedagogik ta'sir ko'rsatishni ko'zlagan, o'zaro bog'liq vosita, usul, jarayonlarning yig'indisini ifoda qiluvchi aniq yaxlitlikdir (V.P. Bepalko bo'yicha).

**Fanni o'qitish metodikasi** – ta'lim tizimida ushbu o'quv fanining ahamiyati va o'rni belgilaydi, uning vazifalarini va o'qitish mazmunini aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanilayotgan usul, shakl va o'qitish vositalari bayonini o'z ichiga oladi.

**Fanni o'qitish metodikasidan farqli texnologiya:**

- "qanday o'qitish kerak?" degan savolga javob bermay, balki ahamiyatli qo'shimcha bo'lgan "qanday o'qitish va o'quv jarayonini qanday qilib eng maqbul tashkil etish kerak?" degan savolga javob beradi;
- aniq sharoitlardan kelib chiqqan va ma'lum natijaga yo'nalgan, aniq pedagogik g'oyaga loyihalangani;
- o'z natijalarini qayta ishlab chiqarishi bilan farqlanadi;

- ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchiga yo'naltirilgan darsning uslubiy ishlanmalaridan farqli o'laroq, ta'lim olishda ularning o'z faoliyatlari hisobiga yutuq ta'minlanishiga yo'naltiriladi.

**Metodistlardan farqli o'laroq pedagog-texnolog:**

- *tajriba o'tkazmaydi*: u aniq belgilangan natija bilan ish olib boradi;
- ajratilgan vaqt va mavjud sharoitlarda belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda gumon hosil qilmaydigan *asoslangan o'qitish modeliga tayanadi*;
- u harakat qiladi, *ta'limiy maqsadlar qo'yilganda, aniq pedagogik vazifalar belgilanganda va ko'zlanayotgan natijalar shakllantirilganda, ta'lim berish jarayonining borish sharoitlari aniqlangandan so'ng, harakat qilishni boshlaydi.*


**Ta'lim texnologiyasi** aniq pedagogik g'oya asosida ishlab chiqilib, uning negizini quyidagilar tashkil etadi: (1) muallifning aniqlangan metodologik, falsafiy yo'nalishi; (2) pedagogik, psixologik va ijtimoiy fanlar hamda pedagogik amaliyot-konseptual asoslari.<sup>1</sup>

Ta'lim tizimi boshqa barcha xorijiy mamlakatlar singari falsafa, psixologiya va pedagogikada insonparvarlik yo'nalishidagi prinsiplar asosida tuziladi. Pedagogikada bu yo'nalishning asosiy farq qiladigan jihati shundaki, bunda ta'lim oluvchining o'zligi, uning shaxsi, mustaqil tanqidiy fikrlashini ongli rivojlanishiga aniq yo'naltirilgan, ularning xususiyat va imkoniyatlarini hisobga olgan har bir ta'lim oluvchining mustaqil bilish faoliyatiga e'tiborida hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Ahmadaliyev A. M., Qosimov A. X. Innovatsion faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar. –T., 2006, 20-b.

## Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari <sup>1</sup>



<sup>1</sup> Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2011, 16-b.

Hali ham ba'zi o'qituvchilar ta'limning an'anaviy shaklida ishlashni ma'qul ko'rishadi. Bu - katta xato.

Quyida an'anaviy ta'limni zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limdan farqlari ko'rsatib berilgan jadvalni e'tiboringizga havola qilamiz<sup>1</sup>

An'anaviy ta'lim berish	Texnologik yondashuvga asoslangan ta'lim berish
<b>1. Konseptual asoslar</b>	
<p>1) Ta'lim oluvchiga yondashish bo'yicha nazoratli-nasihatgo'y, egallab bo'lingan usul bo'yicha qayta tiklashli, ta'lim oluvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini bostiruvchi, qat'iy tashkil etilgan bo'ysinish asosidagi (avtoritar) ta'lim</p> <p>(2) O'rta ta'lim oluvchi imkoniyatlari, ularni o'zlashtirish va bilimlarni qayta tiklashlariga yo'naltirilgan ta'lim</p> <p>(3) O'rganish – eslab qolish vazifasi, dars berish esa – asosiy faoliyat</p> <p>(4) Ta'lim paradigmasi: ta'lim beruvchi – kitob – ta'lim oluvchi</p>	<p>(1) Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va ta'limga tizimli – harakatli yondashishga asoslanadi. Ta'lim oluvchi shaxsi – ta'lim jarayonining markaziy egasi. Munosabatlarning insonparvarligi va erkinligi, o'qishga majburlashdan voz kechish</p> <p>2) Tabaqalashtirish va individuallashtirish; umumiy ta'lim oluvchining aqliy rivojlanish darajasi va ushbu fanni ular tomonidan o'zlashtirilishini hisobga olish</p> <p>3) O'rganish–aqliy rivojlanish, mustaqil egallash jarayoni va asosiysi ta'lim oluvchilarning egallagan bilimlarni qo'llay olishlari; xususiyati bo'yicha muammoli, izlanuvchan, ijodiy</p> <p>(4) Ta'limning yangi paradigmasi, ya'ni: ta'lim oluvchi – kitob – ta'lim beruvchi</p>
<b>2. Ta'lim oluvchining tutgan o'rnini va vazifasi</b>	
<p>(1) Ta'lim beruvchi ta'siridagi bo'ysunuvchi obyekt</p> <p>(2) Bilim–birdan-bir maqsad</p> <p>(3) Xato- jazolanadi</p>	<p>(1) Mustaqil bilish faoliyatini olib boruvchi, ta'lim jarayonining teng huquqli subyekt</p> <p>(2) Bilim - shaxsiy muammolarni hal etish vositasi</p> <p>(3) Xato qilishga haqqi bor – xatolarda o'rganadi</p>

<sup>1</sup> Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2011, 22-b.

<b>3. Ta'lim beruvchining tutgan o'rni va vazifasi</b>	
Kitob bilan birga, yagona tashabbuskor shaxs – bilish subyektini nazorat qiluvchi, asosiy bilim manbai: boshqaruv organlarining rahbarlik buyruqlarini bajaruvchisi	Ta'lim oluvchilarning mustaqil bilish faoliyatlari tashkilotchisi, ularning mas'ul maslahatchisi va yordamchisi. Ta'lim oluvchilarning nafaqat BMK nazoratini, balki ehtimoliy chetga chiqish o'z vaqtida to'g'rilash maqsadida ularning ta'lim berganlik tashhisini ta'minlaydi
<b>4. Ta'lim berish va o'rganish usullari</b>	
Tayyor bilimlarni og'zaki bayon qilish orqali bildirish. Oddiydan umumiylikka induktiv mantiqqa, mexanik eslab qolishga, qayta tiklash (o'zgarishsiz qaytarish) bayoniga asoslangan, namuna bo'yicha ta'lim berish. Natijada ta'lim oluvchilarni sustkashlikka, nutq faoliyati bo'shishigacha olib keladi	Muammolarni izlash, bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan, muammoli vaziyatlarni yaratish, faol bilishning ijodiy tadqiqotchilik faoliyatiga asoslangan faol ta'lim berish usullari
<b>5. Ta'lim berish vositalari</b>	
Ta'lim beruvchi so'zlari, ko'rgazmali va texnik vositalar. Murakkab (texnik) tilda yozilgan o'quv adabiyotlar, shu bois qabul qilishga murakkab; asosan uy vazifasi uchun qo'llaniladi.	An'anaviy vositalar bilan bir qatorda – axborotli texnologiyalar. O'quv materiallari ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil izlash uchun ishlatiladi
<b>6. Ta'lim berishni tashkillashtirish shakllari</b>	
(1) Ommaviy ta'lim berish: ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan ajralgan munosabatda; mustaqillikning yetishmasligi  (2) Ta'lim beruvchi faqat pedagogik faoliyatni rejalashtiradi	(1) Maqsadni belgilash: yakuniy o'quv natijalarining mezonli cheklanuvchidek, tashhisiy belgilangan maqsadlarni kafolatli erishishga yo'naltirish; olingan natijalar sifatini o'lchashning mezon va ko'rsatmalari mavjud  (2) Nafaqat bashorat qiladi, balki pedagogik faoliyatni loyihalaydi va rejalashtiradi, shu bilan birga o'quv faoliyatining mazmuni va tuzilishini ishlab chiqadi, ta'lim oluvchilarni mustaqil o'quv - bilish faoliyatlarini bashorat qilayotganlarida, rejalashtirayotganlarida va tashkillashtirayotganlarida ularning tashabbuslarini oshiradi va qo'llab-quvvatlaydi.  Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan

<p>(3) O‘zlashtirilgan BMK nazorati</p> <p>(4) Miqdoriy baho - baholash-majburiylik vositasi hisoblanadi, ta’lim beruvchini ta’lim oluvchi ustidan hukmronlik quroli bo‘lib xizmat qiladi: ta’lim oluvchi faoliyatini yakuniy tahlili va baholanishi.</p>	<p>ta’lim jarayonini o‘quv dialogidek tuzadi; ularda mustaqillikka intilishni rivojlantirish uchun, o‘zi mustaqil ta’lim olishga tayyorgarlik, o‘z-o‘zini bilishi, o‘z-o‘zini amalga oshirish va o‘z-o‘zini taqdim eta olish qobiliyatlari uchun sharoit yaratadi.</p> <p>(3) Nafaqat BMK nazorati, balki ta’lim berilganlik, rivojlanish, tarbiyalanganlikning monitoringi</p> <p>(4) Ta’lim beruvchi umumiy natijani baholaydi va ta’lim oluvchi bilan hamkorlikdagi mehnatlarini tahlil qiladi: ko‘zlanayotgan natijalarga nima uchun erishilmadi yoki qisman erishildi.</p>
---	---

Ko‘rinadiki, an’anaviy ta’lim zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan ta’limdan tubdan farq qiladi.

**Hurmatli, o‘zbek tili fani o‘qituvchilari!** Umid qilamizki, yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilgan holda Siz zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan ta’limni tanladingiz. Va bugundan boshlab umumiy o‘rta ta’lim maktablarida olib boriladigan o‘zbek tili darslarini zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda olib borishga qaror qildingiz. Buning uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili fanini o‘qitishda texnologik yondashuvni tatbiq etishning o‘ziga xosliklarini yaxshi bilmog‘ingiz, ularga o‘z faoliyatingizda amal qilishingiz zarur.

**Ular asosan quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish ijtimoiy fanlar ichida muhim o‘rin tutadi. Boshqa millat vakillarining davlat tili hisoblangan o‘zbek tilini puxta egallashlari, milliy, madaniy qadriyatlarni o‘rganish va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlarini taqozo etiladi. O‘zbekistonda yashab, o‘qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo‘lib, barcha sohalarda erkin fikr almashish hamda mutaxassisliklari doirasida davlat tilida ish yuritish uchun o‘zbek tilini yetarli darajada egallashlari shart va zarur.

O‘zbek tili fanini o‘qitish konsepsiyasi shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: **gapirish, nutqni tinglab tushunish, o‘qish va yozish** amallari bo‘yicha taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me‘yorini belgilab beradi. Bu jarayon o‘qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish, ixtisoslik leksikasini

o'zlashtirish, o'z kasbi doirasida davlat tilida ish yurita olish tarzida nutqiy aloqaga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutadi.

O'zbek tili fanining Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar yuzasidan hosil qilinadigan zaruriy ko'nikma va malakalar belgilanadi. Bunda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, ixtisoslikka oid terminologiya va leksikani grammatik jihatdan to'g'ri shakllantira bilish, so'zlarni o'rinli tanlash va sintaktik - uslubiy jihatdan baholay olish, jumla tuzishda va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan to'g'ri hamda o'rinli foydalana olish talab etiladi.

Milliy ma'naviyatni egallash o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni o'zida aks ettirgan qimmatli adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, uni o'qib o'rganish, milliy an'analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondashishni taqozo etadi. O'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish ham ko'zda tutiladi.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili ta'limi mazmuni yuqoridagi uch tarkibiy qismni o'z ichiga oladi va umumiy o'rta ta'lim maktablarning 2-9-sinflarida o'z ifodasini topadi.

2. O'zbek tili fani umumiy o'rta ta'lim maktablarning 2-9-sinflarida o'qitiladi. U 2-sinfdan 9-sinfgacha haftasiga 2 soatdan bir yilda 68 soat hajmida o'qitiladi. Bu 1-chorakda 18 soat, 2-chorakda 14 soat, 3-chorakda 20 soat, 4-chorakda 16 soatni tashkil etadi. 2 va 3-sinflarda o'zbek tili o'qitish asosan lotin alifosidagi o'zbek alifbosi harflarining yozma va bosma shakllarini o'rganish, muayyan nutqiy mavzularda suhbatlar o'tkazishga yo'naltirilgan. Bu sinflarda rusiyzabon o'quvchiga o'zbek tili bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beriladi, ularga tilni egallash asoslari o'rgatiladi. 2-3-sinflarda o'quvchilarda o'zbek tili bo'yicha dastlabki bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Shunga ko'ra bu sinflarda murakkab ta'lim texnologiyalarini tatbiq qilish maqsadga muvofiq emas. Bu sinflarda asosan **o'yinli texnologiyalardan** foydalanish mumkin.

3. O'zbek tili fani 4-sinfdan ham nutqiy mavzularga asoslanilgan holda o'qitiladi. Bu mavzularni o'qitishda asosan o'yinli texnologiyalar, ayrim mavzularda Klaster, grafik organayzerlar, qisman, juda zarur vaziyatlarda "Aqliy hujum" metodlaridan foydalanish mumkin.

4. O'zbek tili fani 5-sinfdan boshlab ham mazmunan, ham shaklan murakkablashib boradi. Nutqiy mavzular bilan bir qatorda bitta dars hajmida o'zbek tili morfologiyasi, xususan, so'z turkumlaridan olmosh, ot, unga xos bo'lgan kelishik kategoriyasi, qisman fe'l, fe'l zamonlari, sifat, son, ayrim bog'lovchi va ko'makchilar haqida grammatik ma'lumotlar ham berib boriladi. Bu sinfdan ham Klaster va boshqa grafik organayzerlardan, qisman, juda zarur vaziyatlarda "Aqliy hujum" kabilardan foydalanish tavsiya qilinadi.

5. O'zbek tili fani 6-9-sinflarda nutqiy mavzular bilan birga ot, son, ravishlarning ma'noviy guruhlari, sifat darajalari, yordamchi so'z turkumlari, o'zbek

tilida soʻz yasalishi, xususan, ot, feʼl, sifat yasalishi, feʼl nisbatlari, taqlidiy soʻzlar, oʻzbek tili sintaksisi: gaplarning maʼnoviy turlari, uyushiq boʻlaklar, shaxsi maʼlum va shaxsi nomaʼlum gaplar, gap boʻlaklari, kirish soʻz va kiritmalar, koʻchirma gaplar kabilar toʻgʻrisida grammatik maʼlumotlar ham beriladi. Shunga koʻra oʻquvchilarda oʻzbek tili boʻyicha muayyan bilimlar shakllanib, leksik xazinasini boyiydi, nutqi rivojlanib, ular oʻzbek tilida matn yaratish, suhbat uyushtirish, diktant yozish malaka va koʻnikmalariga ega boʻlishadi. Bu sinflarda mavuzlar mohiyatidan kelib chiqqan holda deyarli barcha pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tavsiya qilish mumkin. Ayniqsa, bu sinflarda hamkorlik texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki bu texnologiya oʻsib kelayotgan bolalarda birgalikda ishlash, bir-birini qoʻllash malakalarini shakllantiradi. Faqat “Keys stadi” va “Loyihalash” texnologiyasini bu sinflarda qoʻllash oʻquvchilarga qiyinlik tugʻdiradi. Chunki bu sinflarda oʻquvchilarga oʻzbek tilida loyihalash texnologiyasi va “Keys stadi”ga doir murakkab topshiriq va mashqlarni bajartirish maqsadga muvofiq emas. Bu texnologiyalarni oʻqituvchilar keyingi bosqichlarda - AL va KHK, OTM larida qoʻllashlari mumkin boʻladi.

## 1.2. Oʻzbek tili fanini oʻqitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish

Dars jarayonini texnologiyalashtirish birinchi navbatda darsning taʼlim texnologiyasini yaratishdan, yaʼni darsning texnologik modeli va xaritasini tuzishdan boshlanadi. Shuning uchun ushbu boʻlimda oʻzbek tili fanini oʻqitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish yuzasidan fikrlarni bildiramiz. Buning uchun avvalo taʼlim texnologiyasi nima, uning tarkibiy tuzilmasi nimalardan iborat kabi masalalarni yaxshilab bilib olishingiz zarur boʻladi.

**Taʼlim texnologiyasi – pedagogika tizimining tashkil etuvchisi hisoblanadi.**

**Tizim** – oʻzida yaxlit borliqlikni namoyon etib, bunda oʻzaro bogʻliq va oʻzaro harakat qiluvchi qismlarning oʻzgarmas tartibi uning ichki tuzilmasini yaratadi. Bu harakat qiluvchi tuzilma boʻlib, bunda faoliyat aniq maqsadlarga bogʻliq boʻladi.

**Pedagogik tizim** quyidagi tarkibdan iborat<sup>1</sup>:

1. **Taʼlim beruvchi** - oʻqituvchi, ishlab chiqarish taʼlimi ustasi.
2. **Taʼlim oluvchi** - talaba, oʻquvchi, tinglovchi.
3. **Taʼlimiy maqsad** – bu taʼlim berishni biror narsaga intilishi.
4. **Natija** – (1) ushbu davr ichidan chiqishda taʼlim oluvchini bilishi, uddalashi, qadrlashi zarur boʻlgan, taʼlim berishni biror narsaga kelishidir;  
(2) taʼlim jarayonini samarali borishini namoyon qilib, maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi. Natija belgilangan maqsadga mos kelsa, oʻqish oʻrgatish jaryoni tugallangan hisoblanadi.
5. **Oʻquv axboroti mazmuni** – fan boʻyicha oʻqitish mazmunini tashkil etuvchi, adabiyot matnlari va oʻquv qoʻllanmalar, lugʻat va boshqa axborot

---

<sup>1</sup> Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. Innovatsion taʼlim texnologiya seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2011, 25-b.



manbalaridan iborat bo'ladi. O'quv dasturi asosida aniqlanadi va maqsadni belgilashdan kelib chiqib ta'lim beruvchi tomonidan o'zgartirish kiritiladi.

**6. Ta'lim texnologiyasi** – (1) o'qitish- usul, shakl va vositalar; (2) muloqot, (3) axborot va (4) boshqaruvning **yo'l va vositalari**.

**7. Tahliliy-natijaviy** tarkib – ta'lim texnologiyasi bo'yicha olingan natijalar samaradorligini o'lchashning yo'l va vositalari.

Agar pedagogik tizimning tarkibiy tashkil etuvchilaridan bittasi ham bo'lmasa, unday holda ta'lim jarayonining o'zi ham bo'lmaydi, yoki u kuchsiz xususiyatga ega bo'ladi. Har qanday holatda ijobiy natija bo'lsa ham, u tasodifiy bo'lishi mumkin.

### **Ta'lim texnologiyasining tuzilmasi o'zi nimalardan iborat?**

Ta'lim texnologiyasi - tizimli toifa bo'lib, tuzilmaviy tashkil etuvchi va qismlari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

#### **1. Ta'limning yo'l va vositalari:**

Ta'lim usullari; ta'lim shakllari; ta'limning yo'llari, texnikalari; ta'lim vositalari.

#### **2. Muloqotning yo'l va vositalari:**

2.1. Ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan birga tezkor qaytar aloqa asosida bevosita o'zaro harakati:

(1) ta'lim beruvchi - o'quv axborot manbayi, undan foydalanishning tashkilotchisi hamda nazoratchisi;

ta'lim oluvchi - axborot iste'molchisi, ta'sir o'tkaziladigan boshqaruv obyekti;

(2) ta'lim beruvchi - o'quv axboroti manbayi bo'lib, maslahatchi, ta'lim jarayonining subyektlari o'rtasida axborot almashinuvining muvofiqlashtiruvchisi;

ta'lim oluvchi- o'quv axborotini egallash va uni ishlatish bo'yicha shaxsiy mustaqil ijodiy faoliyat subyekti.

2.2. Vaqt bo'yicha bo'lingan qaytar aloqa bilan ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan birga bevosita o'zaro harakati:

1) ta'lim beruvchining ta'lim manbalari bilan ta'lim oluvchilarni eng kam ishtiroklaridagi o'zaro harakati;

2) ta'lim beruvchining bir ta'lim oluvchi bilan, ikkita ta'lim oluvchi o'rtasidagi: faol o'zaro harakat;

3) ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida: ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar guruhi bilan; ta'lim oluvchi guruhlar o'rtasida: faol o'zaro harakat.

#### **3. Axborotning yo'l va vositalari:**

- axborotni yetkazish - monolog, dialog, polilog;

- axborotni olish (qaytar aloqa) - tashhis, baholash, kuzatuv.

#### **4. Boshqaruvning yo'l va vositalari:**

- Bashoratlash; rejalashtirish; nazorat; baholash; axborotni yig'ish, uning to'planishi va tahlil; o'zgaruvchanlikni va yo'nalishni aniqlash; boshqaruv xulosasini qabul qilish; o'zgartirish kiritish.

## **Ta'limni texnologiyalashtirish jarayonida boshqaruvning o'рни va mohiyati juda katta**

**Boshqaruv** - bu tartibga solish darajasini oshirish orqali ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan, faoliyatning maxsus shakli.

Boshqaruv jarayonining mohiyati maqsad-natijani mos kelish yo'nalishi bo'yicha harakatni yo'lga solishdan iborat bo'ladi.

O'qitish rejasini tuzishning har bosqichida o'qituvchining boshqaruv harakatlarini ko'rib chiqamiz.

*Maqsadni belgilash* - didaktik vazifalarni aniqlash, o'quv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bo'lib, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi faoliyati harakatini umumiy natijaga yo'naltiradi.

*Tashhis* - ta'lim oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy - texnik imkoniyatlarni o'rganish. Bu maqsadni to'g'rilash zarurligiga va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

*Bashorat qilish* - o'rnatilgan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o'quv faoliyati natijalarini oldindan ko'rish.

*Loyihalash* - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash.

Tashhis, bashorat qilish va loyihalash rejani ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

*Rejalashtirish* - oldindagi o'zaro bog'liq pedagogik va o'quv faoliyatining rejasini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. U texnologik xarita ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

*Tashkillashtirish* - ta'lim beruvchi tomonidan talabalarni belgilangan ishga jalb qilish, belgilangan maqsadga erishishda ular bilan hamkorlik qilish.

*Axborotli ta'minlash* - o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazib berishning yo'l va vositalarini amalga oshirish. Bunda yig'ilgan axborot jarayonining borishini tezkorlikda o'zgartirishni, ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni, samarali vositalarni kiritishga imkon beradi.

*Nazorat, baholash va o'zgartirish kiritish* - rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni yaratish, pedagogik ta'sir etish obyekti o'zgarishini muvofiqlash.

*Tugallangan jarayon tahlili* - samarasizlikni, ularni paydo bo'lish sababini aniqlash, kelgusi takror ishlab chiqiladigan davrda unga yo'l qo'ymaslik choralarini aniqlash.

Ko'rinadiki, bu jarayonda o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklanadi. Quyida o'quv fanini loyihalash va rejalash yuzasidan nazariy fikrlarni bayon qilamiz. Ushbu andoza – namuna asosida o'zbek tili darslarini ham loyihalash va rejalash mumkin bo'ladi.

Pedagogik texnologiyani loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari quyidagilardan iborat:

## **O‘quv fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasini tuzilishi va mazmunli ko‘rsatkichlari**

O‘quv fani bo‘yicha talim texnologiyasi quyidagilardan kelib chiqib ishlab chiqiladi<sup>1</sup>:

- ta’limni texnologiyalashtirish qoidasi;
- fan bo‘yicha o‘quv axborot maqsadi, tuzilmasi, mazmuni va hajmi;
- DTS tomonidan belgilangan, o‘quv rejasida aniqlab berilgan vaqtda va berilgan sharoitda ta’lim berish maqsadiga erishishni kafolatlovchi ta’lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo‘l va vositalarini tanlashning konseptual yondashuvlari.

### **1. Kirish.**

**2. Ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari.** *Ta’lim texnologiyasining (bundan so‘ng TT) ning bu qismida quyidagilar yoritiladi:*

- *o‘quv fanining dolzarbligi, maqsad va vazifalari, sinf soatlarining umumiy hajmi va o‘quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq ularni mavzular bo‘yicha taqsimoti, ish turlari;*

- *o‘quv fanining mazmuni, o‘quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq o‘quv fanining mavzu mazmuni bayon etiladi;*

- *o‘quv mashg‘ulotlarida ta’lim texnologiyasini ishlab chiqishning konseptual holatlari - ta’lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo‘l va vositalarini tanlashning asosi bo‘ladigan, ta’lim texnologiyasini loyihalash va rejalashtirishning konseptual asoslari.*

**3. Dars mashg‘ulotlariga loyihalangan ta’lim texnologiyasi.** Har bir ta’limiy texnologiya ta’lim texnologiyasi, ta’limning texnologiya xaritasi, texnologiya xaritasiga ilovalardan iborat bo‘ladi.

O‘qituvchi va o‘quvchining maqsadi bo‘yicha natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, sinf xarakteri, sharoitga qarab ishlatilgan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘lar, bular o‘qituvchi va o‘quvchiga bog‘liq.

Bundan tashqari, o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirishda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitini, O‘TVni eng asosiysi, o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olish kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o‘quvchini ta’limning markaziga olib chiqish kerak.

O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish zarur. Bunda o‘qituvchi tomonidan bo‘lajak darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun

---

<sup>1</sup> Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Innovatsion ta’lim texnologiya seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2011, 35-b.

o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik xaritaning tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, usullarini bilish kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchidan darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan texnologik xarita unga o'z fani, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondashishga, tushunishga (bir semestr, bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasini ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik xarita o'quvchining imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi zarur, chunki u o'quvchini shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqishga imkon yaratadi. Bu esa o'qitish samaradorligini oshirishga olib keladi.

O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

### **O'quv fani bo'yicha o'qitish rejasining tuzilishi va mazmunli tarkibi <sup>1</sup>**

Aniq fan va mavzu bo'yicha mashg'ulotning *ta'lim modeli* jadval korinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- *dastlabki ma'lumotlar*: o'quv mavzusi, vaqti, o'quvchilar soni;
- *shakl va ko'rinishi*, o'quv mashg'uloti rejasini/tuzilishi, uning maqsadi, o'quv faoliyatining ko'zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;
- tanlangan ta'lim modeli: *usullar, shakllar va o'qitish vositalari*;
- *ta'lim berish sharoiti*: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;
- *monitoring va baholashga* asoslangan qaytar aloqaning yo'l va vositalari: nazorat turi (yozma va og'zaki), nazorat shakli (tezkor-so'rov, test olish, taqdimot, o'quv topshiriqlari va boshq.).

---

<sup>1</sup> Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2011, 36-b.

*O'quv mashg'ulotining texnologiya xaritasi* uch qatorni o'z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

*Ilova.* O'quv jarayonining tashkiliy - didaktik vazifasini bajaradi: o'quv/mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o'quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek, chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

### **O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli**

**Mavzu** (raqami) .....(nomi).....

#### **Ta'lim berish texnologiyasi**

<i>Vaqt: ...soat</i>	<i>O'quvchilar soni:...</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	
<i>Dars rejasi/ o'quv mashg'ulotining tuzilishi</i>	1. ... 2. ... 3. ... 4. ...
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	Shakllantirish / bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> ...bilan tanishtirish; ...tasnifini berish; ...tushuntirish; ...ochib berish; ... shakllantirish; ... o'rgatish va boshq.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> ...ko'rsatadilar; ...tasniflaydilar; ...aytib beradilar; ...shakllantiradilar; ...tartibli ravishda ochib beradilar
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, tushuntirish, aqliy hujum, ta'limiy o'yin va boshq.
<i>Ta'lim shakli</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Dars konspekti, texnik vositalar, grafik organayzer va boshq.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq. Yozma so'rov: diktant, test va boshq.

## O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat (o'quv jarayon) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Mavzuiy rejadadan farqli o'laroq texnologik xaritada (1) ta'lim beruvchi faoliyati bilan birga, ta'lim oluvchining ham faoliyati, (2) o'quv mashg'ulotining bosqichlari va vaqti, (3) ta'lim berishning usul, shakl va vositalari, (4) ta'lim maqsadlarining o'quv yutuqlari monitoringi va baholashlari ko'rsatiladi.

### ***Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari:***

*1 - bosqich (3-5 daqiqagacha). O'quv mashg'ulotiga kirish.*

**Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.** *Ta'lim beruvchi* mavzuning nomi, (ma'ruza) rejasi bilan, o'quv mashg'ulotining xususiyati bilan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; o'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

*Ta'lim oluvchilar* tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

*2 - bosqich (30-35 daqiqagacha). Asosiy / ma'lumot beruvchilik.*

**Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.** *Ta'lim beruvchi* o'quv mashg'ulotining rejasi tuzilishiga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi, ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqaradi.

*Ta'lim oluvchilar* ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv harakatini bajaradilar.

*3 - bosqich (3-5 daqiqagacha). Yakuniy - natijaviy.*

**Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.** *Ta'lim beruvchi* mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiylarga qaratadi, guruhlar, alohida o'quvchilar ishini baholaydi yoki o'zaro baholashning yakunini chiqaradi; o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; uyga vazifa uchun topshiriq beradi.

*Ta'lim oluvchilar* o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.

## O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi (jadval)

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>ta'lim beruvchi</i>	<i>ta'lim oluvchilar</i>
1- bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg‘ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. O‘quv mashg‘ulotida o‘quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar.  Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2 bosqich. Asosiy (daq..)	2.1. Tezkor-so‘rov/ savol-javob/ Aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Dars mashg‘ulotining rejasi va tuzilishiga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha harakatlar tartibini bayon qiladi	Javob beradilar Yozadilar. Guruhlarda ishlaydilar va bosh.
3 bosqich. Yakuniy (daq..)	3.1. Mavzu bo‘yicha yakun qiladi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o‘quv mashg‘ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi	O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o‘tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

**Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkin:**

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili fanini o‘qitish jarayoni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida o‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyatdir. Ilg‘or pedagogik texnologiya nazariyasi g‘oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish holatining sifat ko‘rsatkichiga ega bo‘lishiga olib keladi. Barkamol shaxs va malakali mutaxassislarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyati hamda uning samarasi ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuviga olib keladi.

2. Ma’lumki, ilg‘or pedagogik texnologiyalar dastlab OTM, keyinroq AL va KHK o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llana boshladi, tatbiq etildi. Bugungi kunda ilg‘or pedagogik texnologiyalar umumta’lim maktablaridagi ta’lim jarayoniga ham faol ravishda tatbiq etilishi shart va zarur.

3. O‘zbek tili darslari jarayonini texnologiyalashtirish birinchi navbatda darsning ta’lim texnologiyasini yaratishdan, ya’ni darsning texnologik modeli va xaritasini tuzishdan boshlanadi. Ta’lim texnologiyalari sinflar kesimida, o‘zbek tili fanining xususiyati va mavzular mohiyatidan kelib chiqqan holda yaratiladi.

Ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili ta'limi mazmuni yuqoridagi uch tarkibiy qismni o'z ichiga oladi va umumiy o'rta ta'lim maktablarning 2-9-sinflarida o'z ifodasini topadi.

4. O'zbek tili fani umumiy o'rta ta'lim maktablarning 2-9-sinflarida o'qitiladi. U 2-sinfdan 9-sinfgacha haftasiga 2 soatdan bir yilda 68 soat hajmida o'qitiladi. Bu 1-chorakda 18 soat, 2-chorakda 14 soat, 3-chorakda 20 soat, 4-chorakda 16 soatni tashkil etadi. 2 va 3-sinflarda o'zbek tili o'qitish asosan lotin alifbosidagi o'zbek alifbosi harflarining yozma va bosma shakllarini o'rganish, muayyan nutqiy mavzularda suhbatlar o'tkazishga yo'naltirilgan. Bu sinflarda rusiyzabon o'quvchiga o'zbek tili bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beriladi, ularga tilni egallash asoslari o'rgatiladi. 2-3-sinflarda o'quvchilarda o'zbek tili bo'yicha dastlabki bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Shunga ko'ra bu sinflarda murakkab ta'lim texnologiyalarini tatbiq qilish maqsadga muvofiq emas. Bu sinflarda asosan o'yinli texnologiyalardan foydalanish mumkin.

5. O'zbek tili fani 4-sinfda ham nutqiy mavzularga asoslangan holda o'qitiladi. Bu mavzularni o'qitishda asosan o'yinli texnologiyalar, ayrim mavzularda Klaster va boshqa grafik organayzerlardan, qisman, juda zarur vaziyatlarda "Aqliy hujum" texnologiyalaridan foydalanish mumkin.

6. O'zbek tili fani 5-sinfdan boshlab ham mazmunan, ham shaklan murakkablashib boradi. Nutqiy mavzular bilan bir qatorda bitta dars hajmida o'zbek tili morfologiyasi, xususan, so'z turkumlaridan olmosh, ot, unga xos bo'lgan kelishik kategoriyasi, qisman fe'l, fe'l zamonlari, sifat, son, ayrim bog'lovchi va ko'makchilar haqida grammatik ma'lumotlar ham berib boriladi. Bu sinfda ham Klaster va boshqa grafik organayzerlar, qisman, juda zarur vaziyatlarda "Aqliy hujum" texnologiyalaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

7. O'zbek tili fani 6-9-sinflarda nutqiy mavzular bilan birga ot, son, ravishlarning ma'noviy guruhlari, sifat darajalari, yordamchi so'z turkumlari, o'zbek tilida so'z yasalishi, xususan, ot, fe'l, sifat yasalishi, fe'l nisbatlari, taqlidiy so'zlar, o'zbek tili sintaksisi: gaplarning ma'noviy turlari, uyushiq bo'laklar, shaxsi ma'lum va shaxsi noma'lum gaplar, gap bo'laklari, kirish so'z va kiritmalar, ko'chirma gaplar kabilar to'g'risida grammatik ma'lumotlar ham beriladi. Shunga ko'ra o'quvchilarda o'zbek tili bo'yicha muayyan bilimlar shakllanib, leksik xazinasini boyib boradi, nutqi rivojlanib, ular o'zbek tilida matn yaratish, suhbat uyushtirish, diktant yozish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Bu sinflarda mavzular mohiyatidan kelib chiqqan holda deyarli barcha pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tavsiya qilish mumkin. Ayniqsa, bu sinflarda hamkorlik texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki bu texnologiya o'sib kelayotgan bolalarda birgalikda ishlash, bir-birini qo'llash malakalarini shakllantiradi. Faqat "Keys stadi" va "Loyihalash" texnologiyasini bu sinflarda qo'llash o'quvchilarga qiyinchilik tug'diradi. Chunki bu sinflarda o'quvchilarga o'zbek tilida loyihalash texnologiyasi va "Keys stadi"ga doir murakkab topshiriq va mashqlarni bajartirish maqsadga muvofiq emas. Bu texnologiyalarni o'qituvchilar keyingi bosqichlarda - AL va KHK, OTM larida qo'llashlari mumkin.



## II BOB. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA O‘ZBEK TILI FANINI O‘QITISHNING XUSUSIY METODIK TEXNOLOGIYASI

### 2.1. O‘zbek tili fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish yo‘llari

O‘zbek tili fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish yo‘llari turli tuman. Ularni tanlash o‘qituvchining ixtiyorida. O‘qituvchi sinf, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, fanga oid mavzulardan kelib chiqqan holda o‘z darsida aynan qaysi ta‘lim texnologiyasidan foydalanishini belgilab oladi. Buning uchun esa o‘qituvchining o‘zi innovatsion texnologiyalarni yaxshi bilmog‘i zarur. Shunga ko‘ra ushbu bobda aynan o‘zbek tili darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan innovatsion texnologiyalar haqida ma‘lumot beriladi.

Yodingizda bo‘lsa, oldingi bobda texnologik model va xarita tuzish namunasini bergan edik. Ushbu jadvalning ko‘p qismlari o‘qituvchilar uchun yaxshi tushunarli bo‘lgani holda jadvalning quyidagi qismi tushunarsiz bo‘layotgani haqida fikrlar bildirilgan.

<i>Ta‘lim usullari</i>	Ma‘ruza, tushuntirish, aqliy hujum, ta‘limiy o‘yin va b.
<i>Ta‘lim shakli</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta‘lim vositalari</i>	Dars konspekti, texnik vositalar, grafik organayzer va boshq.

Aynan shu uchta qism innovatsion ta‘lim texnologiyalarining mag‘zini, butun mohiyatini belgilaydi. Shu qismda ta‘limning qaysi usulini, shaklini va vositasini tanlagan va ko‘rsatgan bo‘lsangiz, shu asosida dars olib borasiz. Shunga ko‘ra mazkur 3 ta qism haqida to‘liq, batafsil ma‘lumot bermoqchimiz<sup>1</sup>.

#### 2.1.1. Ta‘lim berish usullari

**Metod (usul)** - yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “Metodos”- biror narsaga yo‘l ma‘nosini anglatadi.

**Ta‘lim berish usuli** - belgilangan ta‘lim berish maqsadiga erishish bo‘yicha ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchilar o‘zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo‘li.

Ta‘lim berish usuli, ta‘limiy maqsadni amalga oshirish bo‘yicha ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi. Usullar: ushbu ta‘lim berish davridan chiqqanda ta‘lim oluvchi bilishi, udallashi va qadrlashi lozim bo‘lgan ko‘zlanayotgan natijalarga erishishni ta‘minlaydi.

---

<sup>1</sup> Ta‘lim usullari, ta‘lim shakli, ta‘lim vositalari xususidagi fikrlarni berishda L.V. Golish va D.M. Fayzullayevalarning “Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasidan foydalanildi.

Usullar tanlashning asosiy qoidasi → turlicha emas, balki ta'lim berish maqsadiga mos kelishi

Usullarga qo'yiladigan asosiy talab → natija beradigan, faqat bittasini qo'llash.

Usulning asosiy natijaviyligining mezonini → belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va tejamkorligi.

Ta'lim texnologiyasini loyihalashda usulni ongli tanlash, ularni har birining imkoniyatlarini ko'ra bilish kerak

Pedagogikada ta'lim usullarini tasniflashga (tartiblashtirish, bir guruhga birlashtirish) turli yondashishlar yuzaga keldi. Ular tizimlashtirishni turli asoslarida tuzilgan.

Ta'lim usullarini ta'limiy maqsadlarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi (o'rgatish) va ta'lim oluvchini (o'rganish) hamkoriy faoliyatini yo'li sifatida ko'rsatish ular xususiyati va o'quv faoliyatini natijalari bo'yicha quyidagicha guruhlashtirish imkonini beradi:

1-guruh: tayyor o'zlashtiruvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilimlarni 1 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;

2-guruh: esda qolganlarni tasvirlovchi o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 2 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;

3-guruh: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 3 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;


4-guruh: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4 - darajada bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2011, 36-b.

## Ta'lim usullarini tasniflash

(Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkoriy faoliyatini tashkillashtirish yo'li va o'quv faoliyati natijalari asosida)



Ko‘rinadiki, ta‘lim usullari 4 guruhdan iborat bo‘lib, ularning har birini alohida-alohida ko‘rib chiqamiz:

***Birinchi guruh ta‘lim usullari tayyor o‘zlashtiruvchilik, o‘quv faoliyati va ta‘lim oluvchilarga bilimlarni 1 - darajada o‘zlashtirishni ta‘minlovchi usullar hisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:***

***Ma‘ruza*** - muayyan vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan katta hajmdagi o‘quv materialini monologik bayon qilinishi.

***Hikoya*** - hodisa, voqea, haqiqat to‘g‘risida o‘qituvchini monologik xabar berishi odatda u nazariy holatlarni aniqlashtirish, o‘rganayotgan materialga qiziqishni uyg‘otish uchun qo‘llaniladi.

Hikoya qilishga asosiy talab-materialni hissiy yetkazib berish, san‘atkorona, ta‘sirchan bayon qilishdir.

***Tushuntirish*** – bayon qilinayotgan materialni turli holatlarini sinf taxtasiga yozib tushuntirish, tahlil qilish, izoh berish va isbotlash orqali o‘quv materialini bayon qilish.

***Yo‘riqnoma berish*** – kasbiy tayyorgarlikda keng foydalaniladigan mustaqil usul bo‘lib, u o‘quvchilarga aniq harakatlarning vazifalarini, ularni amalga oshirish yo‘llarini, amaliy topshiriqlarni yechish talablarini, ko‘nikmalardan iborat harakatlar tartibini, ma‘lum tipga xos bo‘lgan vaziyatlar tavsifi va ularni amaliyotda qo‘llashni tushuntirishdir.

***Namoyish*** - ta‘lim oluvchilarni obyekt va hodisalar, jarayonlarni ularning tabiiy ko‘rinishda ko‘rgazmali-hissiy tanishtirish.

Namoyish usulining ta‘limiy vazifasi samaradorligi quyidagilarni bajara olishni ta‘minlaydi:

- obyektlarni to‘g‘ri tanlash;
- ta‘lim oluvchilar e‘tiborini namoyish qilayotgan hodisaning muhim tomonlariga yo‘naltirish;
- ta‘lim oluvchilar namoyish qilinayotgan obyektning yaxshi ko‘rinishlari va imkon bo‘yicha na faqat ko‘z, balki barcha sezish a‘zolari bilan qabul qilish;
- ta‘lim oluvchilar e‘tiborini imkon boricha o‘rganilayotgan obyektning muhim tomonlariga jalb etish;
- ta‘lim oluvchilarga o‘rganilayotgan obyekt sifatlarini mustaqil baholash.

***Ko‘rsatish*** narsa, jarayonlar va hodisalarni ularni tasviriy ko‘rinishda ko‘rsatish va qabul qilishni ko‘zlaydi.

***Ko‘rish usuli*** axborotni ko‘proq ko‘rgazmali kodoskop, proektor, kinoapparat, o‘quv televideniellar, shuningdek, axborotni displey bilan aks ettiruvchi kompyuterlar bo‘yicha qabul qilishga asoslanadi.

Ko‘rsatilgan ta‘lim usullarining barchasini (Yo‘riqnoma berishdan tashqari) o‘zbek tili darslarida qo‘llash mumkin.

***Ikkinchi guruh amaliy ta‘lim usullari: esda qolganlarni tasvirlovchi o‘quv faoliyati va ta‘lim oluvchilarga bilim va ko‘nikmalarni 2 - darajada o‘zlashtirishni ta‘minlovchi, usullardir. Ularga quyidagilar kiradi:***

***Kitob bilan ishlash usuli:*** ta‘lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish va qiziqtirish vazifalarini bajaradi.

Ta'lim oluvchilar kitob bilan ishlashlari mumkin:

- o'quv mashg'ulotda sizning rahbarligingiz ostida;
- uyda mustaqil.

Uyda kitob bilan ishlash vazifasini o'quvchilar oldiga qo'yishdan avval kitob bilan mustaqil ishlash usullariga ega ekanliklariga ishonch hosil qiling:

- uning tuzilishi bilan tanishish;
- ko'z yugurtirib chiqish;
- alohida boblarni o'qish;
- savollarga javob qidirish;
- referat yozish;
- tayanch konspektlar tuzish;

**Tajriba usuli** - bu shunday usulki, bunda ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi rahbarligi ostida va oldindan tayyorlangan reja bo'yicha tajribalar o'tkazadilar yoki amaliy topshiriqlarni bajaradilar, shu jarayonda yangi bilimlarni qabul qiladilar va anglab yetadilar.

**Mashq** - o'rganilayotgan materialni amaliyotda qo'llash maqsadi bilan muntazam tashkillashtirilgan ko'p takrorlanuvchan harakat. Usulning *asosiy vazifasi* - ta'limiy va rivojlantiruvchi.

Mashqning quyidagi turlari mavjud:

- maxsus;
- sharhlashga oid;
- yozma;
- og'zaki;

Ko'rsatilgan ta'lim usullarining barchasini (tajriba usulidan tashqari) o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

**Uchinchi guruh ta'lim usullari: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 3 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi usullardir.**

**Suhbat** – dialogli (yunoncha: dialogos-ikki yoki bir necha insonlar orasidagi so'zlashuv), ta'lim berish va o'rganishning savol–javobli yo'li.

**Bahs (munozara)** - aniq muammo bo'yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta'lim berishning faol usuli. Munozara usuli hamma vazifalarni bajaradi.

## «A Q L I Y H U J U M» USULI

**Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to'zoni)** - amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirish.

Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo'l qo'ymay uni hal etishning ko'proq shaxsiy g'oyalarini yuzaga keltiradilar, so'ngra ko'proq oqilona/samarali/maqbul va boshqa g'oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.

Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi - ta'lim oluvchilarni o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoni mustaqil

tushunish va yechishga qiziqtirish va ularda muomala madaniyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, tashqi ta'sir ostida fikrlashdan ozod bo'lish va ijodiy topshiriqni yechishda birlamchi yo'l fikrlarini yengib o'tishni tarbiyalaydi.

An'anaviy ta'limda vazifani yechish vaqtida ko'pgina ta'lim oluvchilar o'zlarini g'oyalari aytilishga botina olmaydilar. O'z takliflarining xatoligi va ta'lim beruvchining salbiy munosabatidan, boshqa ishtirokchilarning yo'q qilib yuboruvchi tanqidi va kulgisidan asosli qo'rqadilar.

### **Aqliy hujum qoidasi:**

Hech qanday birga baholash va tanqidga yo'l qo'yilmaydi!

Taklif etilayotgan g'oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki, ajoyib va g'aroyib bo'lsa ham – hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O'rta chiquvchini bo'lma!

Turtki berishdan o'zingni ushla!


Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko'p g'oyalar aytilsa, undan ham yaxshi: yangi va qimmatli g'oyalarning paydo bo'lishi uchun ko'p imkoniyatdir.

Agarda g'oyalar qaytarilsa, hafa bo'lma va hijolat chekma.

Tasavvuringni «jo'sh urishiga» ruxsat ber!

### **Baholash tizimi va kichik guruhlarda eng yaxshi g'oyalarni tanlash**



## INSERT USULI (texnikasi)

### INSERT

**Insert** – samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi.

**Insert** – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo‘yilish muolajasi. Shundan so‘ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.

**Insert** - matn bilan ishlash jarayonida ta‘lim oluvchiga o‘zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta‘minlovchi kuchli asbob.

#### Matnda belgilash tizimi

(√) - men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;

(+) - yangi axborot belgisi;

(-) - meni bilganlarimga, zid belgisi;

(?) - meni o‘ylantirib qo‘ydi. Bu bo‘yicha menga qo‘shimcha axborot kerak belgisi.

√	+	-	?

## PINBORD TEXNIKASI

**Pinbord** (inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o‘quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

*Ta‘lim beruvchi:*

→ Taklif etilgan muammoni yechishga o‘z nuqtayi nazarini bayon qiladi.

→ Ommaviy to‘g‘ri aqliy hujumni tashkillashtiradi.

*Ta‘lim oluvchilar quyidagi g‘oyalarni:*

→ Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko‘p maqbul (samarali va boshqa g‘oyalarni tanlaydilar va ularni qog‘oz varag‘iga asosiy so‘zlar ko‘rinishida (2 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan) yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar.

→ Guruh a‘zolari ( ta‘lim beruvchi tamonidan belgilangan 2-3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:

1. Aniq xato yoki qaytariluvchi g‘oyalarni saralaydilar;

2. Tortishuvlarni aniqlaydilar;

3. G‘oyalarni tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilar bo‘yicha aniqlaydilar;

4. Shu belgilar bo‘yicha hamma g‘oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar

(kartochka/ varaqlar).

*Ta‘lim beruvchi:*

→Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

## TA'LIMIY O'YIN

Ishbilarmon va rolli (holatli) o'yinlar muammoli topshiriqning bir turi. Faqat bunday holatda matnli material o'rniga, ta'lim oluvchilar tomonidan o'ynaladigan sahnalashtirilgan hayotiy holatlar ishlatiladi.

O'qitish usuli sifatida, u quyidagi vazifalarni bajaradi:

**o'rgatuvchi:** umumo'quv malakalarni shakllantirish; ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, shu jumladan: tushunish, yangi holatlarni shakllantirish va tahlil qilish;

**rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlash, nutq, atrof-muhit sharoitiga o'rganish qobiliyatini rivojlantirish;

**motivatsionli:** ta'lim oluvchilarni o'quv faoliyatiga undamoq, mustaqil xulosa qabul qilishini rag'batlantirmoq;

**tarbiyalovchi:** mas'uliyatlilikni, fikr almashishlikni shakllantirish.

O'yin usullari va dars shaklidagi mashg'ulotlar holatlarini amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda sodir bo'ladi:

didaktik maqsad ta'lim oluvchilar oldiga vazifa ko'rinishida qo'yiladi;

o'quv faoliyat o'yin qoidalariga bo'ysunadi;

o'quv material o'yinning vositasi sifatida ishlatiladi;

o'quv faoliyatga didaktik vazifani o'yinga aylantiradigan musobaqa bo'lagi kiritiladi;

didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

*Ishbilarmon o'yinni rolli o'yindan farqi nimada?*

Ishbilarmon o'yin ishtirokchilariga hayotiy holatda qurilgan o'yinli syujet taklif qilinadi, bunda ishtirokchilar oldiga yagona umumiy maqsad: taklif etilayotgan muammoni yechish qo'yiladi.

Shu bilan bir vaqtda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi lozim. Shuning uchun yechimni ishlab chiqish jarayonni alohidali-guruhli xususiyatga ega: har bir ishtirokchi avval o'zining vazifali maqsadiga muvofiq qaror qabul qiladi, undan so'ngra esa uni guruh bilan kelishadi. Alohida vazifali maqsadni bajarilishi butun guruh qaror qabul qilish natijalariga bog'liq. Odatda, ishbilarmon o'yin davomidagi muammoni yechish bir nechta bosqichda (2 dan 10 gacha va bir o'yin ko'p).

Rolli o'yin, ishbilarmonlik kabi vaziyatda ko'rsatilgan, muammoni yechishda ishtirokchilarning faol birgalikdagi harakatlariga asoslanadi. Mavzu qatnashchilarining bitta majburiy maqsadlari bor-muammoni yechish. Lekin alohidali maqsadlar, ishbilarmon o'yindagi kabi kelishib olinmaydi. Rolli o'yinning har bir ishtirokchilar maqsadlari-g'alaba qozonish, o'zini ko'rsatish. Vaziyatli o'yin yakunlarini nafaqat umumiy maqsadga erishish natijalari bo'yicha emas va balki har bir ishtirokchining rolli maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha baholanadi.

Siz tomondan ishlab chiqilgan o'yin haqiqiy hayotga mumkin qadar yaqin bo'lishi, lekin ishtirokchilar uchun juda murakkab va qiyin bo'lmasligi kerak.

Ko'rsatilgan ta'lim usullarining deyarli barchasini (Insert va Pinbord usulini faqat yuqori sinflarda) o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.



*To'rtinchi guruh ta'lim usullari: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4-darajada bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi usullardir.*

### MUAMMOLI VAZIYATLAR USULI

**Muammoli vaziyatlar usuli** – ta'lim beruvchining muammoli vaziyatlarni yaratishga va ta'lim oluvchilarning faol bilish faoliyatlariga asoslangan. U aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va keynigi qarorni qabul qilishdan tuzilgan.

Usulning yetakchi vazifalari quyidagilardan iborat:

O'rgatuvchi – bilimlarni faollashtirishga asoslangan;

Rivojlantiruvchi – tahliliy tafakkurni, alohida hodisalarning dalillari qonuniylikni ko'ra bilishini shakllantirish;

Tarbiyalovchi – fikr almashinish ko'nikmalarni shakllantirish.

Muammo 3 tarkibiy qismdan tashkil topadi:

Ma'lum (ushbu berilgan vazifadan).

Noma'lum (topish yangi bilimlarni shakllanishiga olib keladi).

Noma'lumni topish yo'nalishida qidiruvni amalga oshirish uchun kerak bo'lgan, avvalgi bilimlar (ta'lim oluvchilar tajribasi).

Muammoli vazifani ishlab chiqish katta mehnat va pedagogik mahoratni talab etadi. Qoidaga binoan, vazifani bir necha marotaba tajribadan o'tkazgandan so'ng o'quv guruhida omadli variantini tuzishga ega bo'linadi. Shunga qaramay, bunday vazifalar nazariyani haqiqiy vaziyat bilan bog'lash imkonini beradi. Bu ta'lim oluvchilar ongida o'qitishni faollashtirishga imkon beradi, kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun o'rganilayotgan materialning amaliy foydasini anglab yetishga yordam bo'ladi.

### LOYIHALAR USULI

**Loyihalar usuli** bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o'qitish usulini amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o'qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar.

Loyihalarda o'qitish nafaqat natijalar, balki jarayonini o'zi ham qimmatli.

Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo'lishi mumkin.

### KEYS-STADI USULI

#### **Amaliy holatlarni o'qitish usuli (Case-stadi)**

**Ta'lim berish vaziyati-** keys-stadi (case ingliz.- to'plam, aniq vaziyat, stadi-o'rganish) – bu usul, odatiy hayotni tashkillashtiruvchi vaziyatlarni yaratuvchi va ta'lim oluvchilardan maqsadga muvofiqroq yechim izlashni talab qiluvchi, hayotdan olingan odatiy vaziyatlarni tashkillashtirish yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarga asoslanadi.

**Keys** - ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalashni va maqsadga muvofiqroq yechim izlashga yo'naltiruvchi, bir guruh insonlar yoki alohida shaxslarni hayotiy tashkillashidan olingan ma'lum sharoitlarini bayonli taqdim etilishidan iborat.

Ko'rsatilgan ta'lim usullarining barchasini umumiy o'rta maktablaridagi o'zbek tili darslarida qo'llash tasviya etilmaydi. Chunki bu usullar mustaqil ishlash, izlanish, loyiha tayyorlash kabi jarayonlarni nazarda tutadiki, o'zga tilli maktab o'quvchilari hali bunga tayyor emas. Bu usullarni ta'limning keyingi bosqichlaridagi o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

**Hurmatli o'qituvchi, mana siz ta'lim usullari va ularning qay birini o'zbek tili darslarida qo'llash mumkinligi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ldingiz. Ta'lim berish usullarini tanlashda nimalarga e'tibor berish zarurligini ko'rsatib o'tamiz:**

Ta'lim berish usullarini tanlash va qo'llashda ko'pgina quyidagi didaktik omillarni e'tiborga olish muhim:

➤ *Maqsadni belgilash:* 1) ta'lim berish maqsadi, 2) pedagogik vazifalar, 3) o'quv faoliyat natijalari.

➤ *O'quv axborot mazmuni hajmi va murakkabligi:* maqsad va ushbu o'quv fanini xususiyati, shu tariqa bu fanni shunchalik murakkab deb qabul qilingan.

➤ *Ta'lim berish usullarini o'quv axborotini egallashlariga ta'siri.* G. Mayer fikricha, 72 soatdan (uch sutkadan) o'tganda, ma'lumotni eshitish orqali qabul qilgandan so'ng tinglovchi xotirasida 10 %; ko'rish orqali (ko'rganda) - 20%; ko'rib va eshitish orqali (ko'rganda va eshitganda) 50%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada 70%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada, amaliy imkoniyatlarni qo'llanilganda 90% axborot qoladi.

➤ *Ta'lim oluvchilarni o'quv imkoniyatlari:* tayyorgarlik darajasi, umumo'quv malakalarni shakllanganligi, faolligi, qiziqishi va yo'naltirilganligi, yoshi, ishlash qobiliyati, o'ziga xos imkoniyatlari va qobiliyatlari.

➤ *Vaqt sarfi:* 1) o'quv dasturida yil davomida o'quv faniga, uning alohida mavzulariga ajratilgan vaqt, shunchalik cheklangan bo'lishi mumkinki, bu esa ko'p vaqt oladigan usullarni maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llash imkonini beradi; 2) vaqt u yoki boshqa usulni tayyorlash va amalga oshirishda mehnat sarfini ketish nuqtayi nazaridan muhim omil hisoblanadi. Shu bois, bunday usullarni qo'llashni rejalashtirishda, o'zidan ushbu tashkillashtirish yo'lini amalga oshirishga zarur tayyorgarlikka vaqt va kuch yetarli bo'ladimi? deb so'rash kerak.

➤ *Ta'lim berish sharoiti:* ba'zi usullarni amalga oshirish uchun alohida sharoitlar talab etiladi: ta'lim berishning texnik vositalari, kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnitli yozuv taxtasi, maxsus jihozlangan xona va boshq.

➤ *Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi, jamoadagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlari* (hamkorlik yoki so'zsiz bo'ysunishli).

➤ *Ta'lim oluvchilar soni:* agarda u katta bo'lmasa, ta'lim berishni faol ta'lim usullarni qo'llab, jadallashtirish mumkin.

➤ *Ta'lim beruvchining chuqur bilimdonligi va shaxsiy sifatleri:* ma'qul deb topilgan usullarni qo'llashni bilishi va uddalashi, talablarga mos shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi lozim.

*Qo‘shimcha omillar:*

▪ Mavzuni o‘rganishni (mustaqil/ ta’lim beruvchi rahbarligi ostida) tashkillashtirish yo‘li: *Qay tarzda?*

▪ Didaktik vositalar: *Qaysilari?*

▪ Faollikni rag‘batlantiruvchi usullar: *Qaysilari?*

▪ Nazorat va o‘z-o‘zini nazorat: *Qaysilari?*

Ko‘rsatilgan ta’lim usullarining deyarli barchasini KHK va AL bosqichidagi o‘zbek tili darslarida qo‘llash mumkin. Bu usullar maktab o‘quvchisi uchun qiyinlik qiladi.

### 2.1.2. Ta’lim berish shakllari

**Ta’lim shakllari** (forma-lotincha-tashqi ko‘rinish) - bu usul o‘quv jarayonining mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantig‘i va mazmuni uchun qobiqdir.

Ta’lim shakli o‘quv jarayonining quyidagi tashqi tomonlarini namoyon qiladi:

***1. Uning mavjud bo‘lish yo‘li: tartib:***

*ta’lim oluvchilar soni:* ommaviy, kichik guruhlarda, yakka holda o‘qitish;

*o‘qitish vaqti:* 5- sinf darsi;

*o‘qitish joyi:* auditoriya, laboratoriya mashg‘ulotlari, ustaxonalarda ishlash.

***O‘quv ishini tashkillashtirish shakli:***

ma’ruza, seminar, mustaqil ish va boshqalar.

***Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish yo‘llari:***

umumiy (frontal), guruhli, yakka tartibli.

***Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish shakllari:***


***Ommaviy ish*** (frontal) - barcha ta’lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo‘yiladi.

***Jamoaviy ish*** (kollektiv) - ham umumiy va guruhga taalluqli bo‘lishi mumkin: 1) oldinda turgan ish rejasini hamkorlikda muhokama qilish; 2) majburiyatlarni bo‘lish, hisobot shaklini tanlash; 3) xulosalarni muhokama qilish (tartib bilan alohida ta’lim oluvchilar fikrlari tinglanadi va muhokama qilinadi); 4) ma’qul xulosalarni shakllantirish (umumiy kelishuv bilan).

***Guruhli*** - kichik guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish.

***Yakka tartibli (individual)*** - o‘quv topshirig‘ini yakka o‘zi bajarishi.

## Guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasi



**Bir turdagi guruhli ish** o'quv guruhlar uchun bir turdagi topshiriq bajarishni nazarda tutadi.  
**Tabaqalashgan guruhli ish** guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

## Yo'riqnomaga talab

Yo'riqnomaga o'zida quyidagilardan iborat bo'lishi zarur:

- topshiriqni aniq ifodalanishini;
- kutilayotgan natijalarga aniq yo'naltirish;
- tajribada sinalgan bo'lishi kerak: bu yo'riqnomani avval o'zi yoki hamkasbidan bajarishini iltimos qilish kerak;
- guruh topshiriqni mustaqil bajarish bo'yicha to'la tavsiyanomalar bo'lishi kerak;
- har bir ta'lim oluvchi uchun tushunarli qilib yozilishi kerak.

Ta'lim oluvchilarni hamkorlikda ishlashga tayyorlash

- (1) O'quv guruhida iliq munosabat muhitini yaratadi: faqat shunda ular hamkoriy ishni ijodiy bajaradilar.
- (2) ta'lim oluvchilar topshiriqlarni guruhlarda bajarish qoidasini bilishlari va yo'naltirilgan bo'lishlari kerak.

### Guruhda ishlash qoidalari:

1. Har kim o'z o'rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;
2. Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;
3. Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;
4. Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;
5. Har kim guruh ishi natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur

Guruhni bo'lish yo'lini tanlash

Kichik guruhlarini birlashtirish yo'lini tanlaydi. Ta'lim oluvchilarni kim guruhlariga bo'ladi?, aniqlaydi. Agarda bajarish uchun turli topshiriqlar berilsa, ular guruhni o'z qiziqishlari bo'yicha tanlashlari mumkin


Guruhda ta'lim oluvchilar bajaradigan vazifalarni aniqlaydi

Ta'lim oluvchilarni bajaradigan vazifalarini aniqlaydi: maslahatchi, sardor, ma'ruzachi, bayonnomani yozuvchi, rasmiylashtiruvchi va b.

Ish joyini tayyorlaydi

Stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda:

- ta'lim oluvchilar auditoriyada erkin harakatlana olsinlar;
- har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak;
- zarur o'quv qo'llanmalar barchaga tushunarli bo'lishi kerak.



## II bosqich. Guruhli ishni bajarishga kirishish

<b>F a o l i y a t</b>	
Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
<p>1. Bilim orttirishlik vazifani (muammoli vaziyatni taklif qiladi) belgilaydi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni yechish yo'li va tartibini muhokama qiladi.</p> <p>2. Ish yakuni bo'yicha qanday natijalar kutilishini tushuntiradi.</p> <p>3. Guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har birining va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.</p> <p>4. Ta'lim oluvchilarni guruhlarga bo'ladi.</p> <p>5. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni taraqqatadi. Topshiriqni bajarishda (kerak bo'lganda), qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi.</p> <p>6. Yozuv taxtasida guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqqatadi. Ta'lim oluvchilar bilan bu yo'riqnomani muhokama qiladi, hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.</p>	<p>Vazifani muhokama qiladilar</p> <p>O'quv materiallari va yo'riqnomani bilan tanishadilar</p>

## III bosqich. Guruhli ish

<b>F a o l i y a t</b>	
Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
<p>Kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi.</p> <p>Biroq bunda u:</p> <p>1) ishlayotgan guruhlarni nazorat qiladi, lekin ularga rahbarlik qilmaydi: ta'lim oluvchilar o'zlari uchun javobgarlar. Xato qilsalar ham, o'zlari ishlashlariga ruxsat beradi;</p>	<p>Guruhlarda ishini rejalashtiradi</p> <p>Guruhlar ichida topshiriqni tarqqatadi</p> <p>Alohida topshiriqni bajaradilar.</p>

<p>2) aniq topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan, alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllanishiga e'tiborini qaratadi;</p> <p>3) ta'lim oluvchilarga ishni bajarganliklarini ma'lum qilishlarini taklif qiladi va ochiq savollar berib ularga yordam beradi:</p> <p>1. Hodisalarni tahlil qilish uchun - «<i>Qanday?</i>»;</p> <p>2. Fikrlarni bildirish uchun «<i>Nima uchun bu usul yaxshi yoki yomon?</i>»;</p> <p>3. Eshittirib o'ylashga, boshqalarni tinglashga, olingan axborotdan ma'lumotlarni tanlab olishlari uchun «<i>Agarda, ...? Qanday boshqa usullar mavjud? ...boshqalar o'ylaydiki, ...Qo'llashimiz mumkin;</i></p> <p>4. Ishning borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim, aniq va samimiy tanbeh qiladi</p>	<p>Alohida bajarilgan ish natijalarini muhokama qiladilar.</p> <p>Guruhli ishning umumiy natijasini ifodalaydi va ularni taqdimotga tayyorlaydi</p>
---	---

#### IV bosqich. Yakun yasash, tahlil va baholash

##### Guruhlar ishida tarqoqsizlikni oldini olish yo'li:

- ! Guruhlar ishini har doim boshqarib turish kerak: mavzudan chetga chiqish
  - bu ta'lim oluvchilar uchun yo'ldan chiqishdir.
- Guruh sardorlariga e'tibor berish kerak.
- Ishni bajarish uchun zarur bo'lgan, barcha materiallar tushunarli bo'lganligiga ishonch hosil qilish.

#### F a o l i y a t

Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
<p>1. Bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezon va ko'rsatkichlarini eslatadi.</p> <p>2. Natijalar tekshiruvini o'tkazadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi;</li> <li>➤ yoki buni avvaldan tayinlangan nazoratchi qilishi mumkin;</li> <li>➤ yoki materialga taalluqli bo'lgan, topshiriqni bajarish vaqtida o'zlashtirilganlar bo'yicha, test o'tkazadi;</li> <li>➤ yoki berilgan material bo'yicha boshqalar ma'lumot olganliklarini aniqlash uchun, har bir guruh o'zaro tekshirish uchun savol berishi yoki tayyorlashi mumkin. Bunda guruh a'zolari testga tayyorlanishlarida bir-birlariga hamkorlikda yordam berishlariga ruxsat beradi.</li> <li>➤ 3. Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.</li> </ul>	<p>Guruh vakillari ish natijalari to'g'risida ma'lumot beradilar</p>

## Hamkorlikda o‘zaro o‘qish

### Hamkorlikda o‘qish: tamoyil va qoidalari

- 1) guruhga bitta topshiriq;
- 2) bitta rag‘bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a‘zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig‘indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya‘ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog‘liq;
- 3) har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a‘zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas‘uliyatligi;
- 4) hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o‘zaro yordam berish kabi o‘zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;
- 5) muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o‘qiyotgan o‘z shaxsiy yutug‘ini takomillashtirishga, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qishga berilgan bo‘lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

#### *Hamkorlikda o‘qiyotganlar uchun asosiy qoidalar:*

- topshiriqni birgalikda oddiy bajarish emas, balki birgalikda o‘qish;
- musobaqalashish emas, balki hamkorlashish;
- birgalikda ishlashga o‘rganish, o‘qish va ijod;
- har doim bir-biriga yordam qilishga, muvaffaqiyat quvonchi yoki muvaffaqiyatsizlik achchig‘ini birga tortishga tayyor bo‘lish

#### “Birgalikda o‘rganamiz” (“Koop-koop”) usuli

#### “Birgalikda o‘rganamiz” (“Koop-koop”) usulining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	Faoliyat	
	Ta‘lim beruvchi	Ta‘lim oluvchi
1	O‘qiganlik darajasi bo‘yicha 3-5 kishidan iborat bo‘lgan har xil guruhlarni shakllantiradi	
2	Har bir guruhga umumiy mavzuning <i>qismini</i> - <i>bir</i> topshiriq beradi, bu bo‘yicha barcha o‘quv guruhlari ishlaydi. Tayanch (ekspert varaqlar)ni taqdim etadi	Guruh ichida umumiy topshiriq bo‘linadi
3	Topshiriqni bajarish	3.1. Hamma alohida



	muvaffaqiyatini, muomala madaniyatini nazorat qiladi	topshiriqni bajaradilar va barcha mavzular bo'yicha mustaqil ishlaydilar. 3.2. Guruh a'zolarini kichik-ma'ruzalarini tinglaydilar. Umumiy ma'ruzani ifodalaydilar
4	Guruhlardagi ish yakunini va natijalar taqdimotini e'lon qiladi	Guruh sardorlari yoki hamma guruh ma'ruza taqdimotini o'tkazadilar.
5	Guruh natijalarining tahlili va baholashini o'tkazadi, g'olib-guruhni aniqlaydi.	

### 3.4. “O‘ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing” texnikasi

Ushbu texnika birgalikdagi faoliyat bo‘lib, o‘quvchilarni matn ustida fikrlash, o‘z g‘oyalarini shakllantirish va ularni hamkorlar yordamida muayyan shaklda ifodalashga yo‘naltiradi.

#### «O‘ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. O‘qituvchi savol va topshiriq beradi: oldin o‘ylab chiqish, so‘ng qisqa javoblar yozish tartibida.



2. O‘quvchilar juftliklarga bo‘linib, bir - biri bilan fikr almashadilar va ikkala javobni mujassam etgan umumiy javobni ishlab chiqishga harakat qiladi.



3. O‘qituvchi bir necha juftliklarga o‘ttiz sekund davomida sinfga o‘z ishining qisqa yakunini ifodalab berishni taklif qiladi.

Ta’kidlash zarurki, o‘zbek tili darslarida guruhlarga bo‘lgan holda ishlash ta’lim shaklining eng maqbul yo‘llaridan hisoblanadi. Chunki bunda o‘quvchilar bir-biri bilan maslahatlashadi, bir umumiy vazifani bajaradi, agar bir o‘quvchi ishlamasa, guruhdagi barcha o‘quvchilar yomon baho olishini bilishadi. Guruhlarda ishlash sinfdagi sog‘lom raqobat muhitini uyg‘otadi. Guruhlarni o‘quvchilarning xohishiga qarab turlicha qiziqarli nomlar bilan nomlash mumkin. Masalan, “Optimistlar” guruhi, “Liderlar” guruhi va b. Hatto hazil tarzida ham nomlash mumkin – “Dangasalar” guruhi, “Olifta yigitlar” guruhi, “Tannoz qizlar” guruhi kabi. Shunga ko‘ra o‘zbek tili darslarida «Birgalikda o‘qiyamiz», «Arra», «O‘ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing» texnikalarining har biridan foydalanish tavsiya etiladi.

### 2.1.3. Ta'lim berish vositalari

**Ta'lim vositalari** - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

**Ta'lim vositalari:**

1. Ta'lim berishning texnik vositalari (TTV);
2. Yordamchi ta'lim vositalari (YTV);
3. O'quv-uslubiy materiallar (O'UM).


**Ta'limning texnik vositalari (TTV)** - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

**Yordamchi ta'lim vositalari (YTV)** – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

**O'quv - uslubiy materiallar (O'UM)** - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar.

O'quvchilarning o'quv - bilish faoliyatlarini jadallashtirishga yordam beruvchi har turdagi *ta'lim vositalarini tanlash va ulardan foydalanish quyidagilarga bog'liq:* 1) maqsadni belgilash; 2) asosiy bilim manbayiga; 3) ta'lim usuliga; 4) o'quv materialining yangiligi va murakkabligiga; 5) o'quvchilarning o'quv imkoniyatlariga.

#### Ta'lim vositalarining tasnifi



3. O'quv - uslubiy materiallar (O'UM).

## Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar:


- Maqsadni belgilash;
- O'quv axborot mazmuni;
- Ta'lim vositalari;
- Yetakchi bilim manbayi;
- O'quv materialining yangiligi va murakkabligi.

Ta'lim berishning texnik vositalariga (TTV) nimalar kirishi hammamizga tushunarli. Ularga alohida to'xtalmaymiz.

Yordamchi ta'lim vositalaridan (YTV) Grafikli organayzerlar texnikasiga alohida to'xtab o'tamiz. Chunki ular innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslanib o'tiladigan darslarda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi)** – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasidir. Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o'rtasida aloqa va aloqadorlikni o'rnatishning yo'li va vositalari ularda ifodalanadi. Ularni birma-bir ko'rsatib o'tamiz.

### “INSERT” jadvali



*Insert jadvali*

V	+	-	?

## Klaster

(Klaster-tutam, bog`lam)-axborot xaritasini tuzish yo`li- barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g`oyalarni yig`ish.


Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo`yicha yangi o`zaro bog`lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog`oz varag`ining o`rtasiga asosiy so`z yoki 1-2 so`zdan iborat bo`lgan mavzu nomi yoziladi

Birikma bo`yicha asosiy so`z bilan uning yonida mavzu bilan bog`liq so`z va takliflar kichik doirachalar "yo`ldoshlar" yozib qo`shiladi. Ularni "asosiy" so`z bilan chiziqqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo`ldoshlarda" "kichik yo`ldoshlar" bo`lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g`oyalar tugagunicha davom etishi mumkin

Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G`oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to`xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e`tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to`xtatmang. Agarda aqlingizda g`oyalar kelishi birdan to`xtasa, u holda qachonki yangi g`oyalar kelmaguncha qog`ozga rasm chizib turing.



## B/BX/B JADVALI

**B/BX/B JADVALI-** Bilaman/  
Bilishni xohlayman/ Bilib oldim.  
Mavzu, matn, bo`lim bo`yicha  
izlanuvchilikni olib borish imkonini  
beradi.  
Tizimli fikrlash, tuzilmaga  
keltirish, tahlil qilish ko`nikmalarini  
rivojlantiradi.

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida /kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

“Mavzu bo`yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo`naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo`limlarini to`ldiradilar.

Ma`ruzani tinglaydilar, mustaqil o`qiydilar.

Mustaqil/kichik guruhlarda jadvalning 3-bo`limni to`ldiradilar

### B/BX/B jadvali

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

## VENN DIAGRAMMASI

### Ma`lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslashning yo`l va vositalari


**VENNA DIAGRAMMASI**  
- 2 va 3 jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo`yish uchun qo`llaniladi.  
Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi.

Diagramma Venna tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik gurhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to`ldiradilar


Juftliklarga birlashadilar, o`zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to`ldiradilar

Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki/uch doiralar uchun umumiy bo`lgan, ma`lumotlar ro`yxatini tuzadi.

## Venn diagrammasi




## “Nima uchun” sxemasi Muammoni aniqlash, tahlil qilish va uni hal etishni rejalashtirishning yo‘llari va vositalari




## «Nima uchun?» chizmasini tuzish qoidalari


1. Aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shakllardan foydalanishni o‘zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko‘rinishini - mulohazalar zanjirini to‘g‘ri chiziqlimi, to‘g‘ri chizikli emasligini o‘zingiz tanlaysiz.
3. Yo‘nalish ko‘rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo‘lgan yo‘nalishingizni belgilaydi.




### “Baliq skeleti” chizmasi




### «Baliq skeleti» chizmasi



## “Qanday?” diagrammasi



## Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunuvchi “Qanday?” diagrammasi





## «Qanday?» diagrammasini qurish qoidalari

1. Ko`pgina hollarda muammoni yechishda “nima qilish kerak”ligi to`g`risida o`ylanib qolmasligingiz kerak. Asosan muammo, uni yechishda “buni qanday qilish kerak?”, “qanday” asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo`ladi.

“Qanday” savollarining izchil berilishi quyidagilar imkonini beradi: muammoni yechish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo`llarini ham tadqiq qilish;

Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo`ysunadigan g`oyalar tuzilmasini aniqlaydilar.

Diagramma strategik darajadagi savollar bilan ishlashni boshlaydi. Muammoni yechishning pastki darajasi birinchi galdagi harakatlarning ro`yxatiga mos keladi.

1. Barcha g`oyalarni o`ylab o`tirmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezlikda yozish kerak;

Diagramma hech qachon tugallangan bo`lmaydi: unga yangi g`oyalarni kiritish mumkin;

Agarda chizmada savol uning “shoxlarida” bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U muammoni yechishning asosiysi bo`lishi mumkin;

Yangi g`oyalarni grafik ko`rinishda: daraxt yoki kaskad ko`rinishidami, yuqoridan pastgami yoki chapdan o`ngda qayd qilinishini o`zingiz hal etasiz;

Agarda siz o`zingizga to`g`ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo`nalishini namoyon bo`lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi

## «Piramida» chizmasi


**“PIRAMIDA” chizmasi -**  
G`oyalarni quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich taqdim etish vositasi.  
Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik gurhlarda yuqori “suyagida” kichik muammoni ifodalaydi, pastda esa, ushbu kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladi.

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik gurhlarda chizma tuzadilar: avval asosiy muammoni (g`oya, vazifa) yozadilar, so`ngra kichik muammolarni, ularning har biridan esa, kichik muammoni batafsil ko`rib chiqish uchun “kichik shoxchalarni” chiqaradilar. Shunga asosan har bir g`oyalar rivojlanishini batafsil kuzatish mumkin.

Ish natijalarining taqdimoti

**«Piramida» chizmasi**



O‘zbek tili darslarida sinf, o‘quvchilarning tayyorgarligi, mavzularning mohiyatidan kelib chiqqan holda ko‘rsatilgan barcha grafikli organayzerlardan foydalanish mumkin.

**Hurmatli o‘zbek tili o‘qituvchilari!** Masalaning bir jihatini yaxshilab eslab qolishingiz zarur. Grafik organayzerlarni o‘z darsingizda darsni mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llasangiz **u ta’lim metodiga** kiradi. Bunda siz o‘quvchilarga to‘ldirilmagan jadvallarni ko‘rsatasiz va o‘quvchilar ularni o‘z bilimlari asosida to‘ldirib berishlari zarur bo‘ladi.

Jadvallarni o‘zingiz to‘ldirib o‘quvchilarga namoyish qiladigan bo‘lsangiz **u ta’lim vositasi bo‘ladi**, ya’ni ko‘rgazmali qurol rolini bajaradi.

**Ta’lim vositalarining so‘nggisi o‘quv - uslubiy materiallar (O‘UM) hisoblanadi. Quyida O‘UM turlari va ulardan foydalanishning xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltiramiz.**

O‘UM turlari	Xususiyatlari		
	Qo‘llanilishi	Mazmuni	Rasmiylashtirish
1	2	3	4
Yo‘riq-noma berish	Alohida, juftlikda va guruhli ish doirasida guruhli topshiriqni bajarishda	Bajarish uchun taqdim etilayotgan topshiriqning aniq ifodalanishi. Vaqtga va ish shakliga, kutilayotgan natija, natijani taqdim etish shakliga, uning baholash mezoniga qaratilishi.	Tuzilmaviylik, aniqlik
Eslatma	Materialni mustahkamlashda, dars yakunida va mustaqil qo‘llash uchun	Mashg‘ulotda o‘tilgan asosiylarining eng qisqa umumlantirilishi	Qisqa tuzilmaviylikda asosiy mazmuni bayon etilishidan iborat; qisqa takliflar, aniq fikrlar, misollar; matn o‘rnida chizma, rasm, jadval va boshqalardan foydalanish.

Nazorat varag'i	Egallagan bilimlarni tekshirishda	Fikrlash uchun savollar va yangi bilimlarni qo'llash.	O'qituvchi tekshiruv natijalarini kiritish uchun bo'sh joy bo'lishi kerak.
Tezislar	Mashg'ulot <i>oldidan</i> - yordamchi qo'llanma sifatida; O'quv mashg'ulot <i>vaqtida</i> -yakun chiqarishda, mashg'ulotga tayyorlangan materialni mustahkamlash uchun; - qisqa qayd etish uchun faol vositadek; - o'quv mashg'ulotidan <i>so'ng</i> - bilimlarni mustahkamlash uchun ma'lumotnomadek.	Mavjud mashg'ulot mazmuniga mos kelishi va uni to'ldirish zarur	Qisqaligi: imkoni boricha bir varaq A4.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni ta'kidlab ko'rsatish mumkin:

O'zbek tili fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish yo'llari turli tuman. Ularni tanlash o'qituvchining ixtiyorida. O'qituvchi sinf, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, fanga oid mavzulardan kelib chiqqan holda o'z darsida aynan qaysi ta'lim texnologiyasidan foydalanishini belgilab oladi. Buning uchun esa o'qituvchining o'zi innovatsion texnologiyalarni yaxshi bilmog'i zarur. Shunga ko'ra ushbu bobda aynan o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumot berildi. Texnologik model tuzganda uning Ta'lim usullari; Ta'lim shakli; Ta'lim vositalari qismi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra ular haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Ta'lim berish usuli, ta'limiy maqsadni amalga oshirish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi.

Ta'lim usullarini ta'limiy maqsadlarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi (o'rgatish) va ta'lim oluvchini (o'rganish) hamkoriy faoliyatini yo'li sifatida ko'rsatish ular xususiyati va o'quv faoliyatini natijalari bo'yicha quyidagicha guruhlashtirish imkonini beradi:

1-guruh: tayyor o'zlashtiruvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilimlarni 1-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;

2-guruh: esda qolganlarni tasvirlovchi o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 2-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;

3-guruh: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 3 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;

4-guruh: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4-darajada bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar.

1-guruh ta'lim usullarining barchasini (yo'riqnoma berishdan tashqari) o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

2-guruh ta'lim usullarining barchasini (tajriba usulidan tashqari) o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

3-guruh ta'lim usullarining deyarli barchasini (Insert va Pinbord usulini faqat yuqori sinflarda) o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

4-guruh ta'lim usullarining barchasini umumiy o'rta maktablaridagi o'zbek tili darslarida qo'llash tasviya etilmaydi. Chunki bu usullar mustaqil ishlash, izlanish, loyiha tayyorlash kabi jarayonlarni nazarda tutadiki, o'zga tilli maktab o'quvchilari hali bunga tayyor emas. Bu usullarni ta'limning keyingi bosqichlaridagi o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish shakllari quyidagilardir:

*Ommaviy ish* (frontal) - barcha ta'lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo'yiladi.

*Jamoaviy ish* (kollektiv) - ham umumiy va guruhga taalluqli bo'lishi mumkin: 1) oldinda turgan ish rejasini hamkorlikda muhokama qilish; 2) majburiyatlarni bo'lish, hisobot shaklini tanlash; 3) xulosalarni muhokama qilish (tartib bilan alohida ta'lim oluvchilar fikrlari tingladi va muhokama qilinadi); 4) ma'qul xulosalarni shakllantirish (umumiy kelishuv bilan).

*Guruhli* - kichik guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish.

*Yakka tartibli (individual)* - o'quv topshirig'ini yakka o'zi bajarishi

Ta'kidlash zarurki, o'zbek tili darslarida guruhlarga bo'lgan holda ishlash ta'lim shaklining eng maqbul yo'llaridan hisoblanadi. Chunki bunda o'quvchilar bir-biri bilan maslahatlashadi, bir umumiy vazifani bajaradi, agar bir o'quvchi ishlamas, guruhdagi barcha o'quvchilar yomon baho olishini bilishadi. Guruhlarda ishlash sinfda sog'lom raqobat muhitini uyg'otadi. Guruhlarni o'quvchilarning xohishiga qarab turlicha qiziqarli nomlar bilan nomlash mumkin. Masalan, "Optimistlar" guruhi, "Liderlar" guruhi va b. Hatto hazil tarzida ham nomlash mumkin – "Dangasalar" guruhi, "Olifta yigitlar" guruhi, "Tannoz qizlar" guruhi kabi. Shunga ko'ra o'zbek tili darslarida «Birgalikda o'qiymiz», «Arra», «O'ylang - Juftlikda ishlang - Fikr almashing» texnikalarining har biridan foydalanish tavsiya etiladi.

### ***Ta'lim vositalariga quyidagilar kiradi:***

1. Ta'lim berishning texnik vositalari (TTV);
2. Yordamchi ta'lim vositalari (YTV);
3. O'quv - uslubiy materiallar (O'UM).

Ko'rsatilgan ta'lim usullarining barchasini umumiy o'rta maktablaridagi o'zbek tili darslarida qo'llash tasviya etilmaydi. Chunki bu usullar mustaqil ishlash, izlanish, loyiha tayyorlash kabi jarayonlarni nazarda tutadiki, o'zga tilli maktab o'quvchilari hali bunga tayyor emas. Bu usullarni ta'limning keyingi bosqichlaridagi o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

O'zbek tili darslarida sinf, o'quvchilarning tayyorgarligi, mavzularning mohiyatidan kelib chiqqan holda ko'rsatilgan barcha grafikli organayzerlardan foydalanish mumkin.

Grafik organayzerlar darsda darsni mustahkamlash vositasi sifatida qo'llasansa **u ta'lim metodiga** kiradi. Bunda o'quvchilarga to'ldirilmagan jadvallar ko'rsatiladi va o'quvchilar ularni o'z bilimlari asosida to'ldirib berishlari zarur bo'ladi. Jadvallarni to'ldirib o'quvchilarga namoyish qilinsa **u ta'lim vositasi bo'ladi**, ya'ni ko'rgazmali qurol rolini bajaradi.

Ta'lim vositalarining so'nggisi o'quv - uslubiy materiallar (O'UM) hisoblanadi. Bu materiallarga yo'riqnoma berish, eslatma, nazorat varag'i, tezislar kiradi. Bulardan yo'riqnoma berish, eslatma, nazorat varag'ini o'zbek tili darslarida qo'llash tavsiya qilinadi.

## **2.2. Interaktiv ta'lim asosida o'zbek tili darslarini loyihalash va rejalashtirish amaliyoti**

O'zbek tili o'qituvchilari bilan ishlash, ularning fikrini o'rganish, suhbatlashish va ular bilan bahslashish natijasida ular o'z darslarini texnologik yondashuv asosida loyihalash va rejalashtirishga qiynalayotganliklari ma'lum bo'ldi. Ushbu bo'limda o'zbek tili darslarini loyihalash va rejalashtirish namunasini bermoqchimiz. Bu namuna asosida o'zbek tili darslarini loyihalashtirish va rejalashtirish mumkin bo'ladi. Ilovalarda siz dars davomida foylanishingiz uchun zarur bo'ladigan materiallar keltiriladi. Masalan, bular matnlar, Aqliy hujum uchun savollar, grammatik material bayoni va b. bo'lishi mumkin. Mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi tuzilayotganda, sinf, mavzu, o'quvchilarning tayyorgarligi, bilim darajasi kabi omillarni hisobga olishni unutmang.

## O‘quv mashg‘ulotida ta’lim texnologiyasi modeli

### Mavzu (5-mavzu) ADABIYOT MUZEYIDA (6-SINF)

(Otlarda -day, -dek, kabi, xuddi shakllarining ishlatilishi)

#### Ta’lim berish texnologiyasi

<i>Vaqt</i> 45 daqiqa	<i>O‘quvchilar soni</i> 25 nafar
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</i>	O‘tilganlarni takrorlash va yangi mavzuni bayon qilish darsi
<i>Dars rejasi / o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Uy vazifasini so‘rash</li> <li>2. Yangi mavzuni bayon qilish</li> <li>3. Yangi mavzuni mustahkamlash</li> <li>4. O‘quvchilarni baholash</li> </ol>
<i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i>	<p><b>1. Tarbiyaviy maqsadi:</b> O‘quvchilarni milliy qadriyatlar, ajdodlar merosini o‘rganishga qiziqtirish, ularni e‘zozlash ruhida tarbiyalash</p> <p><b>2. Ta’limiy maqsadi:</b> Otlarda <i>-day, -dek, kabi, xuddi, singari</i> vositalarining qo‘llanishi haqida ma’lumot berish, ularni qo‘llash malakasini shakllantirish.</p> <p><b>3. Rivojlantiruvchi maqsadi:</b> O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.</p>
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i> O‘quvchilarni otlarda <i>-day, -dek, kabi, xuddi</i> shakllarining ishlatilishi bilan tanishtirish; Ularni qo‘llash malakasini shakllantirish; “Adabiyot muzeyi” mavzusidagi leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rgatish va boshq.</p>	<p><i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> O‘quvchilar otlarda <i>-day, -dek, kabi, xuddi</i> shakllarining ishlatilishi bilan tanishadilar; Ularni qo‘llash malakasi shakllanadi; “Adabiyot muzeyi” mavzusidagi leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rganadilar va b.</p>
<i>Ta’lim usullari</i>	Tushuntirish, Aqliy hujum, rolli o‘qish
<i>Ta’lim shakli</i>	Jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta’lim vositalari</i>	“O‘zbek tili” darsligi, elektron vositalar, disklar, muzey eksponatlari rasmlari.

<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq.

**O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (jadval)**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
1-bosqich. (16 daq.)	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash	Uy vazifasini topshiradilar
2-bosqich. (8 daq.)	2.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 2.2. Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi. (1-ilova) 2.3. Matn ustida ishlash.	Tinglaydilar, yozib oladilar. Slaydni ko'radilar  Matn ustida ishlaydilar
3-bosqich. (7 daq.)	3.1. Tezkor-so'rov (savol-javob). Aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. (2-ilova) 3.2. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (darslik bilan ishlash).	Javob beradilar  Yozadilar.
4- bosqich. (10 daq.)	Nutqiy malakalarini mustahkamlash. Rolli o'qish, guruhlariga bo'linib ishlash (3-ilova).	Guruhlarda ishlaydilar va b.
5- bosqich. (4 daq.)	5.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi. 5.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 5.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar  Topshiriqni yozadilar

**1-ilova**

O'quvchilarga o'zbek tilida o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini bildirish uchun *-day, -dek, go'yo, kabi, xuddi* shakllari ishlatilishi; *-day, -dek* qo'shimchalari so'zlarga qo'shib yozilishi haqida ma'lumot beriladi. Nazariy ma'lumot avval matnlarda berilgan misollar, so'ngra o'quvchilar og'zaki keltirgan misollari yordamida izohlanadi.

### “Adabiyot muzeyi” mavzusi yuzasidan Aqliy hujum uchun savollar

1. *Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyining tashkil etilishi.*
2. *Muzey ekspozitsiyalari va bo‘limlari.*
3. *Muzeyda alohida o‘rin tutadigan eksponatlar.*

## 3-ilova

Suhbat matni rollarga bo‘lib o‘qitiladi. O‘quvchilar diqqati matnda ajratib ko‘rsatilgan *go‘yo Navoiy davriga qaytgandekmiz, xuddi vorislardek, tog‘dek, bobomiz kabi, Navoiydek* so‘zlari va birikmalariga qaratiladi. So‘ngra darslikdagi grammatik qoida tushuntiriladi.

Hurmatli, o‘zbek tili fani o‘qituvchisi! Ko‘rinadiki, o‘zbek tili darslarini oldindan rejalashtirish va loyihalashtirish ta‘lim jarayoni optimallashtirishiga, ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchining har bir daqiqasi mazmunli, foydali bo‘lishiga olib keladi. Darslarda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarining oshishiga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra siz o‘z oldingizga bugundan boshlab yangicha ishlayman, degan maqsad va g‘oyani qo‘yish va unga erishish yo‘lini tanlashingiz zarur.

**Keyingi bobda qo‘llanma mualliflari tomonidan ishlab chiqilgan texnologik yondashuv asosida o‘zbek tili darslarini tashkil etish va o‘tkazishga doir ishlanmalar, ya‘ni ta‘lim texnologiyalarining namunalarini sinflar kesimida keltiriladi. Ushbu namunalar asosida boshqa mavzularning ham ta‘lim texnologiyalarini yaratishingiz mumkin.**



### III BOB. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA O‘ZBEK TILI FANINI O‘QITISHDA TEXNOLOGIK YONDASHUVNI TATBIQ ETISH

#### 3.1. Texnologik yondashuv asosida o‘zbek tili darslarini tashkil etish va o‘tkazishga doir ishlanmalar (ta‘lim texnologiyalari namunalari)

#### 5-SINF

#### 21- MAVZU: Kun tartibim. O‘rin-payt kelishigining qo‘llanishi

#### Ta‘lim berish texnologiyasi

<b>Vaqt</b> 45 daqiqa	<i>O‘quvchilar soni 25 nafar</i>
<b><i>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</i></b>	O‘tilganlarni takrorlash va yangi mavzuni bayon qilish darsi.
<b><i>Dars rejasi / o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</i></b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Uy vazifasini so‘rash</li> <li>2. Yangi mavzuni bayon qilish</li> <li>3. Yangi mavzuni mustahkamlash</li> <li>4. O‘quvchilarni baholash</li> </ol>
<p><b><i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i></b></p> <p><b>1. Ta‘limiy maqsadi:</b> o‘rin-payt kelishiklarining qo‘llanishi haqida ma‘lumot berish, ularni qo‘llash malakasini shakllantirish.</p> <p><b>2. Tarbiyaviy maqsadi:</b> O‘quvchilarni o‘z kun tartiblarini to‘g‘ri tashkil qilishga o‘rgatish.</p> <p><b>3. Rivojlantiruvchi maqsadi:</b> O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.</p>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b></li> <li>• O‘quvchilarni o‘rin-payt kelishiklarining qo‘llanishi bilan tanishtirish;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasini shakllantirish;</li> <li>• “Kun tartibi” mavzusidagi leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rgatish va boshq.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b><i>O‘quv faoliyati natijalari:</i></b></li> <li>• O‘quvchilar o‘rin-payt kelishiklarining qo‘llanishi bilan tanishadilar;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasi shakllanadi;</li> <li>• “Kun tartibi” mavzusidagi leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rganadilar va b.</li> </ul>
<b><i>Ta‘lim usullari</i></b>	Tushuntirish, Aqliy hujum.
<b><i>Ta‘lim shakli</i></b>	Jamoaviy, guruhlarda ishlash
<b><i>Ta‘lim vositalari</i></b>	“O‘zbek tili” darsligi, elektron vositalar, tarqatma materiallar, rasmlar.
<b><i>Ta‘lim berish sharoiti</i></b>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xona
<b><i>Monitoring va baholash</i></b>	Og‘zaki so‘rov: tezkor-so‘rov va boshq.

## O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi (jadval)

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<b>Faoliyat</b>	
	<i>ta’lim beruvchi</i>	<i>ta’lim oluvchilar</i>
1-bosqich. (16 daq.)	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash	Uy vazifasini topshiradilar
2-bosqich. (8 daq.)	2.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg‘ulot rejasi bilan tanishtiradi. 2.2. Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi. (1-ilova) 2.3. Matn ustida ishlash.	Tinglaydilar, yozib oladilar. Slaydni ko‘radilar  Matn ustida ishlaydilar
3-bosqich. (7 daq.)	3.1. Tezkor-so‘rov (savol-javob). Aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. (2-ilova) 3.2. Grammatik ma’lumotni mustahkamlash (darslik bilan ishlash).	Javob beradilar  Yozadilar.
4- bosqich. (10 daq.)	Nutqiy malakalarini mustahkamlash. Guruhlarga bo‘linib, berilgan topshiriqlar ustida ishlash (3-ilova).	Guruhlarda ishlaydilar va b.
5- bosqich. (4 daq.)	5.1. Mavzu bo‘yicha yakun qiladi. 5.2. Guruhlar ishini baholaydi, o‘quv mashg‘ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 5.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi .	O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o‘tkazadilar. Savol beradilar  Topshiriqni yozadilar

Kelishik  
nomlari


- Bosh kelishik
- Qaratqich kelishigi

Kelishik  
nomlari

- Tushum kelishigi
- Jo`nalish kelishigi

Kelishik  
nomlari

- O`rin-payt kelishigi
- Chiqish kelishigi



## Bilib oling!

- O`rin-payt kelishigidagi so`z **-da** qo`shimchasi yordamida yasaladi va **kimda?**, **nimada?**, **qayerda?** so`roqlariga javob bo`ladi. Bu kelishikdagi so`zlar ish-harakatning manbayi, payti, o`rni, vositasi kabi ma`nolarni ifodalaydi.
- **Masalan:** Tadbirni maktabda (qayerda?) o`tkazdik.
- Do`stimda (kimda?) qiziqarli kitob bor.
- Oyim soat 12:00da (qachon?) keladilar.

# Guruhlarda ishlash uchun TOPSHIRIQLAR



**TOPSHIRIQ: Ko`rsatilgan vaqt misolida kun tartibingizni bayon qiling.**





# Darslikda berilgan topshiriqlarni bajarish

## 5- SINF

### 47-Mavzu: Bahor bayramlari. Tartib son.

#### Ta'lim berish texnologiyasi

<b>Vaqt</b> 45 daqiqa	<i>O'quvchilar soni 25 nafar</i>
<b><i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i></b>	O'tilganlarni takrorlash va yangi mavzuni bayon qilish darsi.
<b><i>Dars rejasi / o'quv mashg'ulotining tuzilishi</i></b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Uy vazifasini so'rash</li> <li>2. Yangi mavzuni bayon qilish</li> <li>3. Yangi mavzuni mustahkamlash</li> <li>4. O'quvchilarni baholash</li> </ol>
<p><b><i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i></b></p> <p><b>1. Ta'limiy maqsadi:</b> tartib sonning qo'llanishi haqida ma'lumot berish, ularni qo'llash malakasini shakllantirish.</p> <p><b>2. Tarbiyaviy maqsadi:</b> O'quvchilarning milliy bayramlar va milliy an'analar haqidagi mavjud bilimlarini kengaytirish.</p> <p><b>3. Rivojlantiruvchi maqsadi:</b> O'quvchilar og'zaki va yozma nutqini, o'z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.</p>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b></li> <li>• O'quvchilarni tartib sonning qo'llanishi bilan tanishtirish;</li> <li>• Ularni qo'llash malakasini shakllantirish;</li> <li>• "Bahor bayramlari" mavzusidagi leksik birliklarni nutqda qo'llashni o'rgatish va boshq.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></b></li> <li>• O'quvchilar tartib sonning qo'llanishi bilan tanishadilar;</li> <li>• Ularni qo'llash malakasi shakllanadi;</li> <li>• "Bahor bayramlari" mavzusidagi leksik birliklarni nutqda qo'llashni o'rganadilar va b.</li> </ul>
<b><i>Ta'lim usullari</i></b>	Tushuntirish, suhbat, klaster, aqliy hujum.
<b><i>Ta'lim shakli</i></b>	Kichik guruhlarda ishlash
<b><i>Ta'lim vositalari</i></b>	"O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, tarqatma materiallar, rasmlar.
<b><i>Ta'lim berish sharoiti</i></b>	Maxsus texnika vositalari bilan

	jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq.

### O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (jadval)

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat</b>	
	<b>ta'lim beruvchi</b>	<b>ta'lim oluvchilar</b>
1-bosqich. (16 daq.)	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash	Uy vazifasini topshiradilar
2-bosqich. (8 daq.)	2.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 2.2. Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi. (1-ilova) 2.3. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'ladi va matn ustida ishlash qoidasini tushuntiradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar. Slaydni ko'radilar  Matn ustida ishlaydilar, darslikda berilgan 1-topshiriqni bajaradilar.
3-bosqich. (7 daq.)	3.1. Klaster, aqliy hujum metodlari orqali o'quvchilar bilimlarini faollashtiradi. (2-ilova) 3.2. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (darslik bilan ishlash).	Javob beradilar  Yozadilar.
4- bosqich. (10 daq.)	O'quvchilarning yozma hamda og'zaki nutqlarini mustahkamlash. Kichik guruhlarda darslikda berilgan topshiriqlar ustida ishlash (3-ilova).	Kichik guruhlarda topshiriqlar ustida ishlaydilar va b.
5- bosqich. (4 daq.)	5.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi. 5.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 5.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi .	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar  Topshiriqni yozadilar



## BILIB OLING!


- Narsa-hodisalarning tartibini ifodalash uchun sonlarga **-inchi** yoki **-nchi** qo`shimchasi qo`shiladi:  
to`rt+**inchi**>to`rtinchi, o`n ikki+**nchi** xona>  
o`n ikkinchi xona kabi.
- **Masalan:** Do`stim oltnchi uyda yashaydi.



### Bahor bayramlari



## 2- ILOVA



**Milliy bayramlar**

- 1 - yanvar — „Yangi yil bayrami“
- 14- yanvar — „Vatan himoyachilari kuni“
- 8 -mart — „Xalqaro xotin-qizlar kuni“
- 21 -mart — „Navro`z“ bayrami
- 9- may — „Xotira va qadrlash kuni“
- 1 -sentabr — „Mustaqillik kuni“
- 1- oktabr — „O`qituvchi va murabbiylar kuni“
- 8 -dekabr — „Konstitutsiya kuni“
- Ramazon Hayit (Iyd-al-Fitr) bayrami
- Qurbon Hayit (Iyd-al-Adha) bayrami

*Navro`zingiz muborak, aziz yurtdoshlar!*

# Topshiriq

Topshiriq. Har bir guruhga xalq bayramlari va sayllari aks etgan fotosuratlar tarqatiladi. O`quvchi unda aks ettirilgan lavha qaysi bayramga yoki sayllarga oid ekanligini aniqlashi va aytib berishi kerak.

Mustaqillik bayrami  
Navro`z bayrami  
Yangi yil bayrami  
Hosil bayrami  
Qovun sayli  
Qovoq sayli

Gul sayli  
Xotin-qizlar bayrami  
Vatan himoyachilari kuni  
O`qituvchi va murabbiylar kuni  
Konstitutsiya kuni  
Til bayrami

**Quyidagi bayram va sayllar yilning qaysi fasllarida nishonlanadi?**

**3-ILOVA**



**3-mashq.** Nuqtalar o`rniga gap mazmuniga mos sonlarni qo`yib gaplarni to`ldiring.



- ... mart kuni O`zbekistonda Navro`z bayrami keng nishonlanadi. Bizning maktabimizda ... may kuniga bag`ishlangan tadbir bo`ldi. Tadbirda sinfimiz o`quvchilaridan ... kishi qatnashdi. Zuhra ijro etgan ... raqs ko`pchilikka yoqdi.



# Darslikda berilgan topshiriqlarni bajarish

## 6-SINF

### 19- MAVZU: Kutubxonada. Kelishik qo‘shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarining ishlatilishi

#### Ta’lim berish texnologiyasi

<b>Vaqt</b> 45 daqiqa	<i>O‘quvchilar soni 25 nafar</i>
<b><i>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</i></b>	O‘tilganlarni takrorlash va yangi mavzuni bayon qilish darsi.
<b><i>Dars rejasi / o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</i></b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Uy vazifasini so‘rash</li> <li>2. Yangi mavzuni bayon qilish</li> <li>3. Yangi mavzuni mustahkamlash</li> <li>4. O‘quvchilarni baholash</li> </ol>
<p><b><i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i></b></p> <p><b>1. Ta’limiy maqsadi:</b> O‘quvchilarga o‘zbek tilida gumon olmoshlarining yasalishi haqida ma’lumot berish.</p> <p><b>2. Tarbiyaviy maqsadi:</b> O‘quvchilarda kitobga muhabbat, kitob mutoalaasiga mehr uyg‘otish orqali ilmga bo‘lgan intilishni yanada kuchaytirish.</p> <p><b>3. Rivojlantiruvchi maqsadi:</b> O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini oshirish. Mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish.</p>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b></li> <li>• O‘quvchilarni kelishik qo‘shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarining ishlatilishi, qo‘llanishi bilan tanishtirish;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasini shakllantirish;</li> <li>• <b>“Kutubxonada”</b> mavzusidagi leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rgatish va b.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b><i>O‘quv faoliyati natijalari:</i></b></li> <li>• O‘quvchilar kelishik qo‘shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarining ishlatilishi, qo‘llanishi bilan tanishadilar;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasi shakllanadi;</li> <li>• <b>“Kutubxonada”</b> mavzusidagi leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rganadilar va b.</li> </ul>
<b><i>Ta’lim usullari</i></b>	Tushuntirish, Aqliy hujum, rolli o‘yin.
<b><i>Ta’lim shakli</i></b>	Kichik guruhlarda ishlash
<b><i>Ta’lim vositalari</i></b>	“O‘zbek tili” darsligi, tarqatma materiallar, rasmlar


<b><i>Ta'lim berish sharoiti</i></b>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xona
<b><i>Monitoring va baholash</i></b>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq.

### **O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (jadval)**

<b><i>Ish bosqichlari va vaqti</i></b>	<b>Faoliyat</b>	
	<b><i>ta'lim beruvchi</i></b>	<b><i>ta'lim oluvchilar</i></b>
1-bosqich. (16 daq.)	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash	Uy vazifasini topshiradilar
2-bosqich. (8 daq.)	2.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 2.2. Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi. (1-ilova). 2.3. Mashq ustida ishlash. 2.4. Kutubxona haqida ma'lumot berish (2-ilova)	Tinglaydilar, yozib oladilar. Slaydni ko'radilar  Mashq ustida ishlaydilar
3-bosqich. (7 daq.)	3.1. Tezkor-so'rov (savol-javob). Aqliy hujum orqali o'quvchilarning bilimlarini faollashtiradi. (3-ilova) 3.2. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (darslikda berilgan topshiriqlar bilan ishlash).	Javob beradilar  Topshiriqlarni bajaradilar.
4-bosqich. (10 daq.)	O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini mustahkamlash. Rolli o'yin, guruhlariga bo'linib ishlash (4-ilova).	Guruhlarda ishlaydilar va "Kutubxonada" mavzusidagi dialoglarni rollarga bo'lib o'qiydilar.
5- bosqich. (4 daq.)	5.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi. 5.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 5.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi .	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar  Topshiriqni yozadilar

## BILIB OLING!

Gumon olmoshlari shaxs va narsa-buyum, ularning belgi, miqdori, o`rni, payti noaniqligini ifodalovchi so`zlardir. Ular so`roq olmoshlari oldidan **-alla** yoki ulardan keyin **-dir** qo`shimchasini qo`shish orqali hosil qilinadi. Masalan: **allakim-kimdir, allanima-nimadir, allaqaysi-qaysidir, allaqancha-qanchadir, allaqanday-qandaydir, allaqachon-qachondir kabi.**







### 3-ILOVA

1. Olmosh soʻz turkumiga taʼrif bering?
2. Olmoshning maʼno turlarini ayting?
3. Gumon olmoshlari qaysi qoʻshimchalar yordamida hosil qilinadi?

### 4-ILOVA

**TOPSHIRIQ:** quyida berilgan “Kutubxonada” mavzusidagi dialogni davom ettiring va sherigingiz bilan uni rollarga boʻlib oʻqing.

## Kutubxonada

O`quvchi: - Assalomu alaykum!

Kutubxonachi: - Vaalaykum assalom!Keling.

O`quvchi: - Kutubxonaga a'zo bo`lsam  
bo`ladimi?

Kutubxonachi: - Albatta, mana bu kitobxon  
daftarchasini to`ldiring.

O`quvchi: - Xo`p. Mana, marhamat.

Kutubxonachi: - Qaysi sinfda o`qiysiz?

O`quvchi: - 6-"A" sinfida o`qiyman.

Kutubxonachi: - Juda yaxshi. Bugun kitob  
olmoqchimisiz?

O`quvchi: - Ha, albatta.

Kutubxonachi: - Qaysi kitobni beray?

O`quvchi: - Menga ...



**Darslikda berilgan  
topshiriqlarni bajarish**

## 7-SINF

### 39-MAVZU: Alisher Navoiy.

#### -gan qo‘shimchali sifatdoshlarning qo‘llanishi

1-dars


#### Ta’lim berish texnologiyasi

<b>Vaqt</b> 45 daqiqa	<i>O‘quvchilar soni 25 nafar</i>
<b><i>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</i></b>	O‘tilganlarni takrorlash va yangi mavzuni bayon qilish darsi.
<b><i>Dars rejasi / o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</i></b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Uy vazifasini so‘rash</li> <li>2. Yangi mavzuni bayon qilish</li> <li>3. Yangi mavzuni mustahkamlash</li> <li>4. O‘quvchilarni baholash</li> </ol>
<p><b><i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i></b></p> <p><b>1. Ta’limiy maqsadi:</b> O‘quvchilarga o‘zbek tilida -gan qo‘shimchali sifatdoshlarning qo‘llanishi haqida ma’lumot berish.</p> <p><b>2. Tarbiyaviy maqsadi:</b> O‘quvchilarda Alisher Navoiy merosiga, ijodiga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni yanada kuchaytirish.</p> <p><b>3. Rivojlantiruvchi maqsadi:</b> O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini oshirish. Mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish.</p>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b></li> <li>• O‘quvchilarni -gan qo‘shimchali sifatdoshlarning qo‘llanishi bilan tanishtirish;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasini shakllantirish;</li> <li>• Mavzuga oid leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rgatish hamda “<b>Alisher Navoiy</b>” hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b><i>O‘quv faoliyati natijalari:</i></b></li> <li>• O‘quvchilar -gan qo‘shimchali sifatdoshlarning qo‘llanishi bilan tanishadilar;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasi shakllanadi;</li> <li>• Mavzuga oid leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rganadilar hamda “<b>Alisher Navoiy</b>” hayoti va ijodi haqida ma’lumot beradilar.</li> </ul>
<b><i>Ta’lim usullari</i></b>	Tushuntirish, suhbat, aqliy hujum.
<b><i>Ta’lim shakli</i></b>	Guruhlarda ishlash
<b><i>Ta’lim vositalari</i></b>	“O‘zbek tili” darsligi, tarqatma materiallar, rasmlar.
<b><i>Ta’lim berish sharoiti</i></b>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xona
<b><i>Monitoring va baholash</i></b>	Og‘zaki so‘rov: tezkor-so‘rov va boshq.



## O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi (jadval)

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<b>Faoliyat</b>	
	<i>ta’lim beruvchi</i>	<i>ta’lim oluvchilar</i>
1-bosqich. (16 daq.)	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash	Uy vazifasini topshiradilar
2-bosqich. (8 daq.)	<p>2.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg‘ulot rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>2.2. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish (Power Point dasturi yordamida tayyorlangan salydlar orqali). (1-ilova).</p> <p>2.3. Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi (2-ilova).</p> <p>2.4. Matn ustida ishlash.</p>	<p>Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>Slaydni ko‘radilar</p> <p>Savol beradilar</p> <p>Matn ustida ishlaydilar</p>
3-bosqich. (7 daq.)	<p>3.1. Tezkor-so‘rov (savol-javob). Aqliy hujum orqali o‘quvchilarning bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>3.2. Grammatik ma’lumotni mustahkamlash (darslikda berilgan topshiriq, mashqlarni bajarish).</p>	<p>Javob beradilar</p> <p>Topshiriqlarni bajaradilar.</p>
4- bosqich. (10 daq.)	<p>4.1. Guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar bilan tanishtirish.</p> <p>4.2. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini mustahkamlash. (Darslikda berilgan topshiriq va mashqlarni bajarish)</p>	Guruhlarda topshiriqlarni bajaradilar.
5-bosqich. (4 daq.)	<p>5.1. Mavzu bo‘yicha yakun qiladi.</p> <p>5.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o‘quv mashg‘ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi.</p> <p>5.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi .</p>	<p>O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o‘tkazadilar.</p> <p>Savol beradilar</p> <p>Topshiriqni yozadilar</p>



**Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.**

**Islom Karimov**

## ALISHER NAVOIY

O`zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk mutafakkir, buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy 1441-yil 9- fevralda Hirot shahrida tug`ilgan.

Alisher 4-5 yoshidayoq o`qish-yozishni o`rganadi. 12 yoshida mukammal g`azallarni yozgan edi. Alisher Navoiy ibrat bo`lgulik hayot va ijod yo`lini bosib o`tdi.

- 1472-yilda Bosh vazir lavozimiga va “Amir” unvoniga ega bo`ldi.
- Vazirlik chog`ida Alisher Navoiy madrasa, shifoxona, ko`prik, to`g`on, masjidlar va boshqa o`nlab binolar qurdirgan.
- 1476-yil Vazirlikdan iste`foga chiqishi haqida Sultonga aytadi. Sulton uning iltimosini bajaradi.
- 1483-yilda Alisher Navoiy o`zining buyuk “Xamsa” asarini yozishga kirishadi va uni ikki yilda yozib tugatadi.
- “Xamsa” besh dostonni o`z ichiga oladi.
- Bular: “Hayrat-ul Abror” (yaxshilarning hayratlanishi),
- “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab`ai Sayyor” ,“Saddi Iskandariy”.

1487-yil Husayn Bayqaro iltimosi bilan Astrobodga hokim bo`ladi.  
1501-yilning 3-yanvarida betobligi tufayli olamdan o`tdi.



## Haykal

Toshkentning keng ko'chasida,  
Gavjum yo'lining chekkasiga  
Qo'yilgandir baland haykal,  
Bu – Navoiy, shoir bobom,  
Atrof go'zal, keng xiyobon.  
She'r bog'ida go'yo bog'bon.  
Qo'llarida qalin devon,  
Bu – Navoiy, shoir bobom.

(Po'lat Mo'min)



Narsa-buyumning belgisini bildiradigan fe'l shakli **sifatdosh** deb ataladi.

Sifatdoshlar **-gan** qo`shimchasi bilan hosil qilinadi va sifat kabi otga bog`lanib, uning belgisini bildirib keladi.

**Masalan:** o`qilgan kitob, kelgan mehmon. Sifatdoshlar uzoq o`tgan zamon fe'li bilan shakldosh bo`lib, ular nutqda quyidagicha qo`llanadi.

**O`quvchi nima qilgan?**

yozgan  
o`qigan  
o`quvchi javob bergan  
dam olgan  
kelgan

**Nima qilgan o`quvchi?**

yozgan  
o`qigan  
javob bergan o`quvchi  
dam olgan  
kelgan

## ALISHER NAVOIY HIKMATLARI

1. Insonni so`z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo`q ondin.
2. Tilga ixtiyorsiz – elga e`tiborsiz.
3. Tiling birla ko`nglingni bir tut.
4. Befoyda so`zni ko`p aytma,  
Foydali so`zni ko`p eshiturdin qaytma.

# “Xamsa”



## 7-SINF

### 40- MAVZU: Alisher Navoiy.

#### -gan qo‘shimchali sifatdoshlarning qo‘llanishi

2-dars

#### Ta’lim berish texnologiyasi

<b>Vaqt</b> 45 daqiqa	<b>O‘quvchilar soni</b> 25 nafar
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	O‘tilganlarni takrorlash va yangi mavzuni bayon qilish darsi.
<b>Dars rejasi / o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Uy vazifasini so‘rash</li> <li>2. Yangi mavzuni bayon qilish</li> <li>3. Yangi mavzuni mustahkamlash</li> <li>4. O‘quvchilarni baholash</li> </ol>
<p><b>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>Ta’limiy maqsadi:</b> O‘quvchilarga o‘zbek tilida -gan qo‘shimchali sifatdoshlarning qo‘llanishi haqida ma’lumot berish.</li> <li>2. <b>Tarbiyaviy maqsadi:</b> O‘quvchilarda Alisher Navoiy merosiga, ijodiga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni yanada kuchaytirish.</li> <li>3. <b>Rivojlantiruvchi maqsadi:</b> O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini oshirish.</li> </ol>	

Mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish.	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Pedagogik vazifalar:</b></li> <li>• O‘quvchilarni -gan qo‘shimchali sifatdoshlarning qo‘llanishi bilan tanishtirish;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasini shakllantirish;</li> <li>• Mavzuga oid leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rgatish hamda “<b>Alisher Navoiy</b>” hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>O‘quv faoliyati natijalari:</b></li> <li>• O‘quvchilar -gan qo‘shimchali sifatdoshlarning qo‘llanishi bilan tanishadilar;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasi shakllanadi;</li> <li>• Mavzuga oid leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rganadilar hamda “<b>Alisher Navoiy</b>” hayoti va ijodi haqida ma’lumot beradilar.</li> </ul>
<b>Ta’lim usullari</b>	Tushuntirish, suhbat, aqliy hujum, rolli o‘qish.
<b>Ta’lim shakli</b>	Guruhlarda ishlash
<b>Ta’lim vositalari</b>	“O‘zbek tili” darsligi, tarqatma materiallar, rasmlar.
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	Og‘zaki so‘rov: tezkor-so‘rov va boshq.

### O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi (jadval)

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat</b>	
	<b>ta’lim beruvchi</b>	<b>ta’lim oluvchilar</b>
1-bosqich. (16 daq.)	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash	Uy vazifasini topshiradilar
2-bosqich. (8 daq.)	2.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg‘ulot rejasi bilan tanishtiradi. 2.2. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish(Power Point dasturi yordamida tayyorlangan salydlar orqali). (1-ilova). 2.3. Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi (2-ilova). 2.4. Matn ustida ishlash.	Tinglaydilar, yozib oladilar.  Slaydni ko‘radilar  Savol beradilar  Matn ustida ishlaydilar
3-bosqich.	3.1. Tezkor-so‘rov (savol-javob). Aqliy	Javob beradilar



(7 daq.)	hujum orqali o'quvchilarning bilimlarini faollashtiradi. 3.2. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (darslikda berilgan topshiriq, mashqlarni bajarish).	Topshiriqlarni bajaradilar.
4- bosqich. (10 daq.)	4.1. Guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar bilan tanishtirish. 4.2. Nutqiy malakalarini mustahkamlash. Rolli o'qish, guruhlariga bo'linib ishlash. Darslikda berilgan 4-topshiriq. 4.3. O'quvchilarning og'zaki nutqini mustahkamlash. (Darslikda berilgan topshiriq va mashqlarni bajarish)	Guruhlarda topshiriqlarni bajaradilar.  O'qiydilar, javob beradilar.
5- bosqich. (4 daq.)	5.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi. 5.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 5.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar  Topshiriqni yozadilar

## 1-ILOVA



**-gan** qo`shimchasi **k** tovushi bilan tugagan fe'llarga **-kan** shaklida, **q** tovushi bilan tugagan fe'llarga **-qan** shaklida qo`shiladi.

**Masalan:** o`qib chiqqan kitob, kechikkan mehmon.

Sifatdoshlarning bo`lishsiz shakli **-ma** qo`shimchasi vositasida hosil qilinadi.

**Masalan:** kelmagan bolalar, o`tilmagan mavzu kabi



## 2-ILOVA

### Savollar

1. Alisher Navoiy qalamiga mansub qaysi asarlarni bilasiz?
2. Alisher Navoiy nomi bilan ataluvchi qanday joy nomlarini bilasiz?
3. Alisher Navoiy hikmatlaridan misol keltiring?
4. Sifatdosh deb nimaga aytiladi?

O`zbekiston shaharlarining biri Navoiy nomida va ushbu shaharda unga atab yodgorlik o`rnatilgan.





## Toshkent shahrida Davlat milliy kutubxonasi



## Milliy bog`i



## Opera va balet katta teatri



Metro bekatiga Alisher Navoiy nomi berilgan.



Navoiyga bag`ishlab Moskva, Tokio, Baku, Ashxobod shaharlarida yodgorliklar o`rnatilgan.



## Darslikda berilgan topshiriqlarni bajarish

### 8-SINF

**13- MAVZU: Til – millat ko‘zgusi. His-hayajon gaplar, ularda tinish belgilarining qo‘llanishi**

#### Ta’lim berish texnologiyasi

<b>Vaqt</b> 45 daqiqa	<i>O‘quvchilar soni: 25 nafar</i>
<b><i>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</i></b>	O‘tilganlarni takrorlash va yangi mavzuni bayon qilish darsi.
<b><i>Dars rejasi / o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</i></b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Uy vazifasini so‘rash</li> <li>2. Yangi mavzuni bayon qilish</li> <li>3. Yangi mavzuni mustahkamlash</li> <li>4. O‘quvchilarni baholash</li> </ol>
<p><b><i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i></b></p> <p><b>1. Ta’limiy maqsadi:</b> O‘quvchilarga his-hayajon gaplar, ularda tinish belgilarining qo‘llanishi bo‘yicha ma’lumot berish .</p>	



<p><b>2. Tarbiyaviy maqsadi:</b> O‘quvchilarda o‘zbek tilga mehr uyg‘otish orqali ko‘p tillarni o‘rganishga bo‘lgan intilishni yanada kuchaytirish.</p> <p><b>3. Rivojlantiruvchi maqsadi:</b> O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini oshirish. Mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish.</p>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Pedagogik vazifalar:</b></li> <li>• O‘quvchilarni his-hayajon gaplar, ularda tinish belgilarining qo‘llanishi bilan tanishtirish;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasini shakllantirish;</li> <li>• <b>“Davlat tili”</b> matnidagi leksik birliklarni nutqda qollashni o‘rgatish va b.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>O‘quv faoliyati natijalari:</b></li> <li>• O‘quvchilar his-hayajon gaplar, ularda tinish belgilarining qo‘llanishi bilan tanishadilar;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasi shakllanadi;</li> <li>• <b>“Davlat tili”</b> matnidagi leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rganadilar va b.</li> </ul>
<b>Ta’lim usullari</b>	Tushuntirish, aqliy hujum, “BBB”metodi.
<b>Ta’lim shakli</b>	Kichik guruhlarda ishlash
<b>Ta’lim vositalari</b>	“O‘zbek tili” darsligi, tarqatma materiallar, rasmlar.
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	Og‘zaki so‘rov: tezkor-so‘rov va boshq.

### O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi (jadval)

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat</b>	
	<b>ta’lim beruvchi</b>	<b>ta’lim oluvchilar</b>
1-bosqich. (16 daq.)	1.1.Tashkiliy qism. 1.2.Uy vazifasini so‘rash	Uy vazifasini topshiradilar
2-bosqich. (8 daq.)	2.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg‘ulot rejasi bilan tanishtiradi. 2.2. Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi. (1-ilova). 2.3.Mashq ustida ishlash. 2.4. Davlat tili haqida ma’lumot berish (2-ilova)	Tinglaydilar, yozib oladilar. Slaydni ko‘radilar  Mashq ustida ishlaydilar
3-bosqich. (7 daq.)	3.1. Tezkor-so‘rov (savol-javob). Aqliy hujum orqali o‘quvchilarning bilimlarini faollashtiradi. (3-ilova) 3.2. Grammatik ma’lumotni mustahkamlash (darslikda berilgan topshiriqlar bilan ishlash). (4-ilova)	Javob beradilar  Topshiriqlarni bajaradilar.

4- bosqich. (10 daq.)	4.1.O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini mustahkamlash. 4.2.“Adabiy o‘qish” ruknida berilgan “Til bilgan el biladi” hikoyasi o‘qish va mazmuni so‘zlash. (5-ilova) 4.3.Mustahkamlash uchun savol-topshiriqlar ustida ishlash, lug‘at bilan tanishish.	Guruhlarda ishlaydilar va “Til bilgan el biladi” hikoyasini o‘qiydilar, mazmuni so‘zlaydilar. Savol-topshiriqlar ustida ishlaydilar, lug‘at bilan tanishadilar.
5- bosqich. (4 daq.)	5.1. Mavzu bo‘yicha yakun qiladi. 5.2. Guruhlar ishini baholaydilar, “BBB”metodi orqali o‘quv mashg‘ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 5.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi .	O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o‘tkazadilar. Savol beradilar  Topshiriqni yozadilar

### 1-ILOVA

*Darak, so‘roq va buyruq gaplar his-hayajonsiz gaplardir. Bular nutqda kuchli his-hayajonga ega bo‘lishi bilan his-hayajon gaplarga aylanishi mumkin. His-hayajon gaplar undov gap ham deb nomlanadi.*

*Undov gap fikrni kuchli his-hayajon bilan ifodalaydigan, kuchli ohang bilan aytiladigan gaplardir. Ular shodlik, quvonch, suyunish, qo‘rquv, tantana, taajjub, qayg‘u, afsuslanish kabi turli hissiyotlarni ifodalaydi va baland ohangda aytilishi bilan boshqa gap turlaridan farq qiladi. Yozuvda undov gaplarning oxiriga undov belgisi qo‘yiladi. Masalan: Ey Vatan! Polvonlaring bor bo‘lsin! Uyg‘oq bo‘lsin!*

*His-hayajon gaplar his-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so‘roq, buyruq shaklidagi gaplardir.*

### 2-ILOVA

His-hayajon gap deganda nimani tushunasiz?

His-hayajon gaplarning qanday belgilari bor?

His-hayajon gaplar oxiriga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

O‘zbek adabiy tilining asoschisi kim?

### 3-ILOVA

Alisher Navoiyning til haqidagi maxsus asari qanday nomlanadi?

**4-ILOVA**

Hozirgi o`zbek adabiy tilining asoschisi – Alisher

Navoiy



**5-ILOVA**



1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?
2. Davlat tilini bilish sizga nimalarda yordam beradi?
3. Boshqa tillarni bilish-chi?
4. Til haqidagi hikmatli so‘zlar va o‘zbek maqollaridan aytib bering.

## TIL – DIL KALITI!




**Davlat tiliga hurmat va e'tiborning birinchi namunasi shu tilda to'g'ri, chiroyli so'zlash va yozishdir.**

*Alisher Navoiy o'zbek tili haqida yozgan muhim asari “*

*Muhokamatul-lug'atayn” deb nomlanadi.*

*Navoiyning bu asari o'zbek tilining boyligini, uning mohiyatini ko'rsatib berishga bag'ishlangan. Ulkan shoirning eng yirik asarlari “Xazoyinul-maoniy “ deb atalgan she'riy to'plami va beshta dostonidan iboratdir.*

*Endilikda ulug' Navoiyning boy ijodiy merosi haqiqiy xalq mulkiga aylandi. Uning asarlari bir qancha tillarga tarjima qilindi va jahon adabiyotidan munosib o'rin oldi. etdi .*





## Darslikda berilgan topshiriqlarni bajarish va jadvalni to'ldirish

Bilaman	Bilib oldim	Bilmoqchiman

### 8-SINF

#### 29- MAVZU: Tarixiy shaharga sayohat. *Tomon, qarab ko'makchilarining qo'llanishi*

#### Ta'lim berish texnologiyasi

<b>Vaqt</b> 45 daqiqa	<b>O'quvchilar soni: 25 nafar</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	O'tilganlarni takrorlash va yangi mavzuni bayon qilish darsi.
<b>Dars rejasi / o'quv mashg'ulotining tuzilishi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Uy vazifasini so'rash</li> <li>2. Yangi mavzuni bayon qilish</li> <li>3. Yangi mavzuni mustahkamlash</li> <li>4. O'quvchilarni baholash</li> </ol>
<b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b>	
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>Ta'limiy maqsadi:</b> O'quvchilarga <i>tomon, qarab ko'makchilarining qo'llanishi</i> bo'yicha ma'lumot berish .</li> <li>2. <b>Tarbiyaviy maqsadi:</b> O'quvchilarda tarixiy shaharlarga qiziqish uyg'otish</li> </ol>	



<p>orqali ona-Vatanga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirish.</p> <p><b>3. Rivojlantiruvchi maqsadi:</b> O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini, o'z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini oshirish. Mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.</p>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Pedagogik vazifalar:</b></li> <li>• O'quvchilarni <i>tomon, qarab</i> ko'makchilarining qo'llanishi bilan tanishtirish;</li> <li>• Ularni qo'llash malakasini shakllantirish;</li> <li>• "Biz yashayotgan zamin" matnidagi leksik birliklarni nutqda qo'llashni o'rgatish va b.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>O'quv faoliyati natijalari:</b></li> <li>• O'quvchilar <i>tomon, qarab</i> ko'makchilarining qo'llanishi bilan tanishadilar;</li> <li>• Ularni qo'llash malakasi shakllanadi;</li> <li>• "Biz yashayotgan zamin" matnidagi leksik birliklarni nutqda qo'llashni o'rganadilar va b.</li> </ul>
<b>Ta'lim usullari</b>	Tushuntirish, Aqliy hujum, "BBB".
<b>Ta'lim shakli</b>	Kichik guruhlarda ishlash
<b>Ta'lim vositalari</b>	"O'zbek tili" darsligi, tarqatma materiallar, rasmlar.
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq.

**O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (jadval)**

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat</b>	
	<b>ta'lim beruvchi</b>	<b>ta'lim oluvchilar</b>
3- bos-qich. (16 daq.)	1.1.Tashkiliy qism. 1.2.Uy vazifasini so'rash	Uy vazifasini topshiradilar
4- bos-qich. (8 daq.)	2.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 2.2. Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi. (1-ilova). 2.3.Mashq ustida ishlash. 2.4. Tarixiy shaharlar haqida ma'lumot berish. (2-ilova)	Tinglaydilar, yozib oladilar. Slaydni ko'radilar  Mashq ustida ishlaydilar
3-bosqich. (7 daq.)	3.1. Tezkor-so'rov (savol-javob). Aqliy hujum orqali o'quvchilarning bilimlarini faollashtiradi. (3-ilova) 3.2. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (darslikda berilgan topshiriqlar bilan ishlash).	Javob beradilar  Topshiriqlarni bajaradilar.
4- bosqich.	4.1.O'quvchilarning og'zaki va yozma	Guruhlarda ishlaydilar va

(10 daq.)	nutqlarini mustahkamlash. 4.2.“Adabiy o`qish” ruknida berilgan “Toshkent” matnini o`qish va mazmuni so`zlash. (4-ilova) 4.3.Mustahkamlash uchun savol-topshiriqlar ustida ishlash.	“Toshkent” matnini o`qiydilar, mazmuni so`zlaydilar. Savol-topshiriqlar ustida ishlaydilar.
5- bosqich. (4 daq.)	5.1. Mavzu bo`yicha yakun qiladi. 5.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o`quv mashg`ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 5.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi .	O`z-o`zini, o`zaro baholashni o`tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

### 1-ILOVA

Otlarning boshqa so`zlarga tobe bog`lanishi uchun xizmat qiladigan yordamchi so`zlarga ko`makchilar deyiladi.

Ko`makchilar ko`pincha otlarni fe`lga bog`lab keladi.

***Masalan:** Shahar tomon ketdi. Insonning fe`l-atvoriga **qarab** unga baho berishadi.*

Tomon,qarab ko`makchilari yetakchi so`zga bog`lanib, yo`nalish ma`nosini ifodalaydi.





**Darslikda berilgan topshiriqlarini bajarish.**

*Qadimiy va navqiron shahar*




**“SHARQ DARVOZASI”**






Ташкенту 2200 лет. Мечеть "Ходжа Асрор Вали"  
© Мирсалихов Баходир / Фотобанк Лори



Qaysi tarixiy shaharlar haqida ma'lumotga egasiz?



Bilaman	Bilib oldim	Bilmoqchiman

## INSERT

**Insert** – samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi.

**Insert** – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo‘yilish muolajasi. Shundan so‘ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.

**Insert** – matn bilan ishlash jarayonida ta‘lim oluvchiga o‘zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta‘minlovchi kuchli asbob.

**Insert** – bu, o‘zlashtirishning majmualari vazifalarini yechish va o‘quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o‘quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o‘qitish usulidir.

### Matnda belgilash tizimi

(√) - men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;

(+) - yangi axborot belgisi;

(-) - meni bilganlarimga, zid belgisi;

(?) - meni o‘ylantirib qo‘ydi. Bu bo‘yicha menga qo‘shimcha axborot kerak belgisi.

√	+	—	?

## 9-SINF

### 19- MAVZU: Adabiyotimiz siymolari. Kesimning ifodalanishi. Ot kesim, ularda *-dir* shaklining qo‘llanishi

#### Ta‘lim berish texnologiyasi

<b>Vaqt</b> 45 daqiqa	<i>O‘quvchilar soni: 25 nafar</i>
<b><i>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</i></b>	O‘tilganlarni takrorlash va yangi mavzuni bayon qilish darsi.
<b><i>Dars rejasi / o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</i></b>	1. Uy vazifasini so‘rash 2. Yangi mavzuni bayon qilish 3. Yangi mavzuni mustahkamlash 4. O‘quvchilarni baholash
<b><i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i></b> <b>1. Ta‘limiy maqsadi:</b> O‘quvchilarga kesimning ifodalanishi, ot kesim, ularda <i>-dir</i> shaklining qo‘llanishi bo‘yicha ma‘lumot berish. <b>2. Tarbiyaviy maqsadi:</b> O‘quvchilarda adabiyotimiz namoyondalari ijodi bilan tanishish orqali o‘zbek adabiyotiga bo‘lgan qiziqishni orttirish. <b>3. Rivojlantiruvchi maqsadi:</b> O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini oshirish. Mustaqil	

fikrlash qobiliyatini o‘stirish.	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Pedagogik vazifalar:</b></li> <li>• O‘quvchilarni kesimning ifodalanishi. Ot kesim, ularda <i>-dir</i> shaklining qo‘llanishi bilan tanishtirish;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasini shakllantirish;</li> <li>• “Mahmudxo‘ja Behbudiy” matni va “O‘zbekim” she‘ridagi leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rgatish va b.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>O‘quv faoliyati natijalari:</b></li> <li>• O‘quvchilar kesimning ifodalanishi. Ot kesim, ularda <i>-dir</i> shaklining qo‘llanishi bilan tanishadilar;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasi shakllanadi;</li> <li>• “Mahmudxo‘ja Behbudiy” matni va “O‘zbekim” she‘ridagi leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rganadilar va b.</li> </ul>
<b>Ta’lim usullari</b>	Tushuntirish, aqliy hujum.
<b>Ta’lim shakli</b>	Kichik guruhlarda ishlash
<b>Ta’lim vositalari</b>	“O‘zbek tili” darsligi, tarqatma materiallar, rasmlar.
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	Og‘zaki so‘rov: tezkor-so‘rov va boshq.

### O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi (jadval)

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat</b>	
	<b>ta’lim beruvchi</b>	<b>ta’lim oluvchilar</b>
1-bosqich. (16 daq.)	1.1.Tashkiliy qism. 1.2.Uy vazifasini so‘rash	Uy vazifasini topshiradilar
2-bosqich. (8 daq.)	2.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg‘ulot rejasi bilan tanishtiradi. 2.2. Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi. (1-ilova). 2.3. Mashq ustida ishlash. 2.4. Adabiyotimiz siymolari haqida ma’lumot berish (2-ilova)	Tinglaydilar, yozib oladilar. Slaydni ko‘radilar  Mashq ustida ishlaydilar
3-bosqich. (7 daq.)	3.1. Tezkor-so‘rov (savol-javob). Aqliy hujum orqali o‘quvchilarning bilimlarini faollashtiradi. (3-ilova) 3.2. Grammatik ma’lumotni mustahkamlash (darslikda berilgan topshiriqlar bilan ishlash).	Javob beradilar  Topshiriqlarni bajaradilar.

4- bosqich. (10 daq.)	4.1.O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini mustahkamlash. 4.2.Darslikda berilgan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” matni va “O‘zbekim” she‘rini o‘qish va mazmuni so‘zlash) (4- ilova). 4.3.Mustahkamlash uchun savol-topshiriqlar ustida ishlash.	Guruhlarda ishlaydilar va “Mahmudxo‘ja Behbudiy” matni va “O‘zbekim” she‘rini o‘qiydilar, mazmuni so‘zlaydilar. Savol-topshiriqlar ustida ishlaydilar.
5- bosqich. (4 daq.)	5.1.Mavzu bo‘yicha yakun qiladi. 5.2. Guruhlar ishini baholaydilar, “Insert” metodi orqali o‘quv mashg‘ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 5.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi.	O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o‘tkazadilar. Savol beradilar  Topshiriqni yozadilar

## 1-ILOVA

**Shaxs-son ma‘nolarini ifodalab, nima qil (-di,-yapti va boshq.)? nima bo‘l(-di,-yapti va boshq.)? kimdir? nimadir? qayerdir? So‘roqlariga javob bo‘luvchi mustaqil so‘zlar gapda kesim vazifasini bajaradi.**

**Kesim gapning mazmuniy markazidir. U boshqa bo‘laklarsiz ham gap bo‘la oladi. Masalan: Yaxshimisiz? Keldi.**

**Kesim qanday so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: fe‘l kesim va ot kesim.**

**Fe‘ldan boshqa so‘zlar orqali (ot,sifat,son,ravish,olmosh) ifodalanib, kim? nima? qanday? So‘roqlariga javob bo‘luvchi kesimlar ot kesim sanaladi. Masalan: Osmonimiz – musaffo.**



## 2-ILOVA



Asl ismi Nizomiddin Mir Alisher. U Hirotida tugʻilib, shu yerda umrining asosiy qismini oʻtkazgan. Navoiyning otasi Gʻiyosiddin Bahodir temuriylar xonadoniga yaqin boʻlgan. Sheʼr zavqi va isteʼdodi erta uygʻongan.

Alisher Navoiy ijodining yuksak choʻqqisi “Xamsa” asari (1483-85)dir, “Xamsa” tarkibiga “Hayratul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabʼai sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlar kiradi.



### **ABDULLA QODIRIY:**

1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida tavallud topgan.

1913-1914-yillar adib ilk ijodini shoirlikdan boshlagan.

1914-1915 yillar uning «Ahvolimiz», «Millatimga», «Toʻy» kabi sheʼrlari gazeta va jurnallarda bosilgan.

1917-1918 yillardan boshlab «Oʻtgan kunlar» romani uchun material yigʻishni boshlagan.

1925-1926 yillarda «Oʻtgan kunlar» uch boʻlim holida kitob boʻlib nashr etilgan.



**A.Qahhor:**

Talantli o‘zbek yozuvchisi. 1907 -yil 17-sentabrda Qo‘qonda tug‘ildi. Oldin eski maktabda, “Istiqbol” maktab-internatida, so‘ngra Qo‘qon pedtexnikumida o‘qidi. 1926-1930- yillarda O‘rta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakultetida tahsil oldi. A. Qahhor o‘rinli so‘z qo‘llash mahoratini puxta egallagan adibdir. Ijodida voqelikni realistik talqin etish ustuvorlik qiladi. Adib serqirra ijodkor sifatida adabiyotning deyarli barcha tur va janrlarida qalam tebratgan. “Olam yasharadi” nomli birinchi hikoyalar to‘plami 1932 yilda bosilgan. “Sarob” (1934), “Qo‘shchinor chiroqlari” (1951) nomli romanlari, “Sinchalak” (1958), “O‘tmishdan ertaklar” (1965) kabi qissalari, “Boshsiz odam”, “Anor”, “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Dahshat”, “Millatchilar”, “San’atkor”, “Adabiyot muallimi”, “O‘jar”, “Asror bobo” kabi o‘nlab hikoyalar yozgan.



**Darslikda berilgan topshiriqlarni bajarish.**

**9-SINF**

**42- MAVZU: Allomalarimiz hayotidan. Chunki, shuning uchun bog‘lovchilarining qo‘llanishi**

**Ta’lim berish texnologiyasi**

<b>Vaqt</b> 45 daqiqa	<i>O‘quvchilar soni: 25 nafar</i>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	O‘tilganlarni takrorlash va yangi mavzuni bayon qilish darsi.
<b>Dars rejasi / o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</b>	1. Uy vazifasini so‘rash 2. Yangi mavzuni bayon qilish 3. Yangi mavzuni mustahkamlash 4. O‘quvchilarni baholash
<b>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</b> <b>1. Ta’limiy maqsadi:</b> O‘quvchilarga <i>chunki, shuning uchun</i> bog‘lovchilarining qo‘llanishi bo‘yicha ma’lumot berish.	

<p><b>2. Tarbiyaviy maqsadi:</b> O‘quvchilarni allomalarimiz hayoti bilan tanishish orqali ularda buyuk allomalarimizga bo‘lgan ihurmat, iftixor hissini yanada kuchaytirish.</p> <p><b>3. Rivojlantiruvchi maqsadi:</b> O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini oshirish. Mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish.</p>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Pedagogik vazifalar:</b></li> <li>• O‘quvchilarni <i>ghunki, shuning uchun</i> bog‘lovchilarining qo‘llanishi bilan tanishtirish;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasini shakllantirish;</li> <li>• “Najmiddin Kubro” matnidagi leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rgatish va b.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>O‘quv faoliyati natijalari:</b></li> <li>• O‘quvchilar <i>ghunki, shuning uchun</i> bog‘lovchilarining qo‘llanishi bilan tanishadilar;</li> <li>• Ularni qo‘llash malakasi shakllanadi;</li> <li>• “Najmiddin Kubro” matnidagi leksik birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rganadilar va b.</li> </ul>
<b>Ta’lim usullari</b>	Tushuntirish, aqliy hujum, insert, rolli o‘yin.
<b>Ta’lim shakli</b>	Kichik guruhlarda ishlash
<b>Ta’lim vositalari</b>	“O‘zbek tili” darsligi, tarqatma materiallar, rasmlar.
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	Og‘zaki so‘rov: tezkor-so‘rov va boshq.

### O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi (jadval)

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat</b>	
	<b>ta’lim beruvchi</b>	<b>ta’lim oluvchilar</b>
1-bosqich. (16 daq.)	1.1.Tashkiliy qism. 1.2.Uy vazifasini so‘rash	Uy vazifasini topshiradilar
2-bosqich. (8 daq.)	2.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg‘ulot rejasi bilan tanishtiradi. 2.2. Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi. (1-ilova). 2.3. Mashq ustida ishlash. 2.4. Buyuk allomalarimiz haqida ma’lumot berish (2-ilova)	Tinglaydilar, yozib oladilar.  Slaydni ko‘radilar.  Mashq ustida ishlaydilar. Rolli o‘yin tashkil etiladi.
3-bosqich. (7 daq.)	3.1. Tezkor-so‘rov (savol-javob). Aqliy hujum orqali o‘quvchilarning bilimlarini faollashtiradi. (3-ilova) 3.2. Grammatik ma’lumotni	Javob beradilar  Topshiriqlarni bajaradilar.

	mustahkamlash (darslikda berilgan topshiriqlar bilan ishlash).	
4- bosqich. (10 daq.)	4.1.O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini mustahkamlash. 4.2.Darslikda berilgan "O'zberkiston" she'rini o'qish va mazmuni so'zlash. 4.3.Mustahkamlash uchun savol-topshiriqlar ustida ishlash. Rolli o'yin tashkil etish. 4-ilova)	Guruhlarda ishlaydilar va "O'zberkiston" she'rini o'qiydilar, mazmuni so'zlaydilar. Savol-topshiriqlar ustida ishlaydilar. Rolli o'yin tashkil etadilar.
5- bosqich. (4 daq.)	5.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi. 5.2. Guruhlar ishini baholaydilar, "Insert" metodi orqali o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 5.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi .	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

## 1-ILOVA

**Uyushiq bo'laklarni va qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bog'lovchi sanaladi.**


**Masalan: va, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning**

## 2-ILOVA

<p>Slaydlar ketma-ketligi. Ekranda "Allomalarimiz hayotidan" mavzusi bo'yicha buyuk allomalarning hayoti va ijodi bilan bog'liq slaydlar quyidagi ketma-ketlikda beriladi.</p> <p><b>Mirzo Ulug'bek</b> Muhammad Tarag'ay 1394-yil 22-martda Sultoniya shahrida tug'ilgan.</p>	<p>Marhamat, tanishing, ushbu rasmda Mirzo Ulug'bek tasvirlangan. Uning asl ismi Muhammad Tarag'ay. U Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Ulug'bek 1394-yil 22-martda Sultoniya shahrida tug'ilgan. Yoshligidan tajribali, bilimli murabbiylar qo'lida tarbiyalanib, xat-savodini chiqargan.</p>
--	---




Keyin Mirzo Ulug‘bek haqidagi slaydlar o‘qituvchining nutqiga ko‘ra ko‘rsatib boriladi.



Bobosi Amir Temurning vafotidan keyin uning o‘rniga hukmdor bo‘ladi va bobosi boshlagan ishni davom ettiradi.

Astronomiyaga bo‘lgan qiziqishi uning rasadxona qurilishiga asos soldi.

Ushbu rasadxona Samarqandda hozir ham saqlanib qolgan .



Quyidagi slaydda she‘riyat mulkining sultoni, olim va davlat arbobi, o‘zbek adabiy tilining asoschisi bobomiz hazrat Mir Alisher Navoiyni ko‘rib turibsiz. Alisher Navoiy 1441-yil Hirotda tug‘ilgan. Ilm-fanni juda qadrlagan Alisherning otasi G‘iyosiddin o‘g‘lining tarbiyasiga katta ahamiyat bergan. Bolaligidan juda

**Alisher Navoiy** 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug‘ilgan.


aqli bo‘lgan Alisher adabiyotni sevib o‘rgangan va 10-12 yoshlaridayoq she‘rlar yoza boshlagan.


Uning she‘riyatdagi ilk ustozlari tog‘alari Mir Said Qobuliy va Muhammad Ali G‘aribiylar bo‘lgan.

Alisher Navoiy 1466-1468-yillarda Samarqandda yashagan. U faoliyati davomida xalq manfaati, yurt obodligi, fan, madaniyat ravnaqiga xizmat qildi.

1483-1485- yillarda besh dostonidan iborat “Xamsa” asarini yaratdi.

Alisher Navoiy 1501- yilda vafot etdi.





Xamsa - пятерица,  
Navoiy – это его псевдоним.

Respublikamizdagi Alisher Navoiy  
nomi bilan bog‘liq joylar ko‘rsatiladi.



Hozirda xalqimizning o‘z  
shoiriga ehtiromi sifatida ko‘p  
joylar uning nomi bilan atalmoqda.  
Shuningdek, adib nomi bilan  
ataluvchi Davlat mukofoti ham bor.



**Abdulla Avloniy** 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrida tug'ildi.



Abdulla Avloniy ulkan o'zbek shoiri, dramaturgi va taniqli jamoat arbobidir. Avloniy xalqni ilmi bo'lishini xohlagan. Shuning uchun u 1904-yilda yangi yo'nalishdagi maktab ochib, uni yozuv taxtasi, parta va o'quv qurollari bilan jihozladı. Unga o'zi mudirlik va o'qituvchilik qildi. U birinchilardan bo'lib, maktabga geografiya, ximiya, fizika fanlarini kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi.

Abdulla Avloniy to'rtta qismdan iborat katta darslik yaratdi.

1. „**Birinchi muallim**“.
2. „**Alifbe**“
3. „**O'qish kitobi**:.
4. „**Ikkinchi muallim**“.

Abdulla Avloniy ko'plab she'rlar muallifidir.

Abdulla Avloniy 1934-yilda 24-avgustda vafot etdi.

Hurmatli o'quvchilar, buyuk allomalarimizdan yana kimlarni bilasiz? Ular haqida ma'lumotlar to'plang.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Bog`lovchi deb qanday yordamchi so`zlarga aytiladi?
2. Bog`lovchi gap bo`lagi vazifasida kela oladimi?

**TOPSHIRIQ:** Rasm asosida namunadagidek savol-javob qiling va dialogni davom ettiring.



–Bu kimning portreti?

–Bu Amir Temurning portreti. U jasur sarkarda va adolatli shoh sifatida tanilgan. Uning xizmati shundaki, u mahalliy urushlarga barham berib, markazlashgan kuchli davlat tuzdi...

–Bu-chi, kimning portreti? – ...

**Matnda belgilash tizimi**

(√) - men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;

(+) - yangi axborot belgisi;

(-) - meni bilganlarimga, zid belgisi;

(?) - meni o`ylantirib qo`ydi. Bu bo`yicha menga qo`shimcha axborot kerak belgisi.

√	+	—	?



**Darslikda berilgan topshiriqlarni bajarish**



### 3.2. O‘zbek tili fanini o‘qitish texnologiyasini amaliyotga tatbiq etishga doir ish tajribalari (“Mahorat maktabi” tinglovchilarining ishlari)

#### Sinflar kesimida

##### O‘zbek tili

2-sinf II chorak

##### 19-20 DARS

**Darsning mavzusi:** Hh, Xx harflarini yozma va bosma shakllarini o‘rgatish.  
(2- soat)

**Darsning ta’limiy maqsadi:** O‘quvchilarga Hh va Xx harflarini yozma va bosma shakllarini o‘rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O‘quvchilarga til o‘rganishning ahamiyati haqida ma’lumot berish. Til o‘rganishga qiziqtirish.

**Darsni rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, lug‘at boyligini oshirish.

**Darsning turi:** Yangi bilim beruvchi.

**Darsning jihozlanishi:** Rasmlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar, alifbo.

##### Dars rejasi

##### Dars bosqichlari:

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so‘rash:– 5 daqiqa.

Yangi mavzuni tushintirish: - 25 daqiqa.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash: – 10 daqiqa.

O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

##### Darsning borishi:

Tashkiliy qism. Darsni tashkil qilish.

**Uy vazifasini so‘rash:** O‘quvchilardan bajargan uy vazifalari tekshirilib, savol – javob o‘tkaziladi.

O‘quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘llash.

**Yangi mavzuni tushintirish:** o‘zbek alifbosidagi Hh va Xx harflarini yozishni va to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish.

**I.Talaffuz mashqi:** Hh va Xx harflari ko‘rsatilib o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri talaffuz qilish o‘rgatiladi.- ha, - ho, - he, hi, - xa, -xo, - xe, - xi bog‘inlari o‘qituvchi bilan birgalikda takrorlanadi.

##### II. Yangi harflarni o‘rgatish.

Kiril hamda lotin alifbosi qiyoslanib harflarning katta va kichik shakli og‘zaki suhbat orqali tushintiriladi.

Harf tovushning yozuvdagi ifodasi. Undosh tovush talaffuz qilinganda o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ining ma’lum bir joyida yoki bo‘g‘izda to‘siqqa uchraydi. “H” – undosh tovush. “H” – Ovozning miqdoriga ko‘ra –

shovqinli. Hosil bo'lish usuliga ko'ra – sirg'aluvchi. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra bo'g'iz undoshi, jarangsiz.

“X” - undosh tovush. “X” – Ovozning miqdoriga ko'ra – shovqinli. Hosil bo'lish usuliga ko'ra – sirg'aluvchi. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra chuqur til orqa undoshi. Jarangsiz.

### **III. Yozma ish mashqi:**

O'qituvchi Hh va Xx harflarining katta va kichik shakillarini va - ha, - ho, - he, hi,- **xa, -xo, - xe, - xi** bog'inlarini yozilishini doskada yozib ko'rsatadi. O'quvchilar daftarlariga yozib oladilar.

**O'tilgan mavzuni mustahkamlash:** O'quvchilar birma – bir doskaga chiqib Hh va Xx harflarining katta va kichik shakillarini, - ha, - ho, - he, hi,- **xa, -xo, - xe, - xi** bog'inlarini hamda *haykal, timsoh, behi, xurmo, xat, taxta, daraxt* so'zlarini yozadilar.

Tinglang, takrorlang. - ha, - ho, - he, hi,- **xa, -xo, - xe, - xi, haykal, timsoh, behi, xurmo, xat, taxta, daraxt. Bu Amir Temur haykali. Mana behi daraxti. Hasan husanga xat berdi.**

O'quvchilar bilimni baholash, uyga vazifa berish.

**Uyga vazifa:** Hh va Xx harflarining katta va kichik shakillarini, - ha, - ho, - he, hi,- **xa, -xo, - xe, - xi** bog'inlarini yozish, to'g'ri talaffuz qilishni mashq qilish. O'tilgan harflarni va so'zlarni yod oling.

## **21 – 22 DARS**

**Darsning mavzusi:** Pp va Qq harflarini yozma va bosma shakllarini o'rgatish.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga Pp va Qq harflarini yozma va bosma shakllarini o'rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'zbek tilini o'rganishiga e'tiborni qaratish.

**Darsni rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

**Darsning turi:** Yangi bilim beruvchi.

**Darsning jihozlanishi:** Rasmlar, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar.

**Dars rejasi**

**Dars bosqichlari:**

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Suhbatlashish –15 daqiqa.

Yangi mavzuni tushintirish: Pp va Qq harflarini yozma va bosma shakllarini yozishni, to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish - 10 daqiqa.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash – 15 daqiqa.

O'quvchilar bilimni baholash, rag'batlantirish,

Uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

**Darsning borishi:**

Tashkiliy qism. Darsni tashkil qilish.

Suhbatlashish: O'zbekiston mavzusi bo'yicha rasmlar asosida suhbat o'tkazish.

O'quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'llash.

Yangi mavzuni tushintirish: o‘zbek alifbosidagi Pp va Qq harflarini yozishni va to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish.

### ***I. Talaffuz mashqi:***

Pp va Qq harflari ko‘rsatilib o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri talaffuz qilish o‘rgatiladi. - pa, - pe, - po, - pi, -pu, -qa, -qo, -qe, -qi, - qu bog‘inlari o‘qituvchi bilan birgalikda takrorlanadi.

### ***II. Yangi harflarni o‘rgatish.***

Kirill hamda lotin alifbosi qiyoslanib harflarning katta va kichik shakli og‘zaki suhbat orqali tushintiriladi.

Harf tovushning yozuvdagi ifodasi. Undosh tovush talaffuz qilinganda o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ining ma‘lum bir joyida yoki bo‘g‘izda to‘siqqa uchraydi. “P” – undosh tovush. “P” – Ovozning miqdoriga ko‘ra – shovqinli. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra – portlovchi. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra lab, lab-lab undoshi. Jarangsiz.

“Q” – undosh tovush. “Q” – Ovozning miqdoriga ko‘ra – shovqinli. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra – portlovchi. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra chuqur til orqa undoshi. Jarangli.

### ***III. Yozma ish mashqi:***

O‘qituvchi **Pp, Qq** harflarining katta va kichik shakllarini - pa, - pe, - po, - pi, - pu, -qa, -qo, -qe, -qi, - qu bog‘inlari hamda paxta, palto, parta, piyola, qalam, quyon, qol, qand so‘zlari,

- Kim qalam oldi?

- Men qalam oldim gaplarini yozilishini doskada yozib ko‘rsatadi. O‘quvchilar daftarlariga yozib oladilar.

***O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:*** O‘quvchilar birma – bir doskaga chiqib Pp va Qq harflarining katta va kichik shakllarini hamda paxta, palto, parta, piyola, qalam, quyon, qo‘l, qand so‘zlarini, . Bu paxta dalasi. - Kim qalam oldi? - Men qalam oldim gaplarini yozadilar.

***Tinglang, takrorlang:*** – pa, - pe, - po, - pi, -pu, - qa, - qo, - qe, - qi, - qu, paxta, palto, parta, payola, qalam, quyon, qo‘l, qand. Bu paxta dalasi. - Kim qalam oldi? - Men qalam oldim.

O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish.

**Uyga vazifa:** **Pp, Qq** harflarining katta va kichik shakllarini, – pa, - pe, - po, - pi, -pu, - qa, - qo, - qe, - qi, - qu bo‘g‘inlarini yozish. To‘g‘ri talaffuz qilishni mashq qilish.

## **23-24 DARS**

**Darsning mavzusi:** **Sh, sh va Ch, ch** harflarini yozma va bosma shakllarini o‘rgatish.

**Darsning ta‘limiy maqsadi:** O‘quvchilarga Sh va Ch harflarini yozma va bosma shakllarini o‘rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O‘zbek tilini o‘rganishiga e‘tiborni qaratish.

**Darsni rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish.

**Darsning turi:** Yangi bilim beruvchi.

**Darsning jihozlanishi:** Rasmlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar, alifbo.

**Dars rejasi**

**Dars bosqichlari:**

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so‘rash:– 5 daqiqa.

Yangi mavzuni tushintirish: - 25 daqiqa.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash: – 10 daqiqa.

O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

**Darsning borishi:**

Tashkiliy qism. Darsni tashkil qilish.

Uy vazifasini so‘rash. **P, Q** harflarining katta va kichik shakillarini, – pa, - pe, - po, - pi, -pu, - qa, - qo, - qe, - qi, - qu bo‘g‘inlarini yozish, to‘g‘ri talaffuz qilish topshirilgan edi. O‘quvchilardan bajargan uy vazifalari tekshirilib, savol – javob o‘tkaziladi.

O‘quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘llash.

Yangi mavzuni tushintirish: o‘zbek alifbosidagi **Sh, sh va Ch, ch** harflarini yozishni va to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish.

**I. Talaffuz mashqi:** Sh va Ch harflari ko‘rsatilib o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri talaffuz qilish o‘rgatiladi. - sha, - she, - sho, - shi, - shu, - cha, - cho, - che, - chi, - chu bog‘inlari o‘qituvchi bilan birgalikda takrorlanadi.

**II. Yangi harflarni o‘rgatish.**

Kirill hamda lotin alifbosi qiyoslanib harflarning katta va kichik shakli og‘zaki suhbat orqali tushintiriladi.

Undosh tovush talaffuz qilinganda o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ining ma‘lum bir joyida yoki bo‘g‘izda to‘siqqa uchraydi. **“Sh”** – undosh tovush. **“Sh”** – ovozning miqdoriga ko‘ra – shovqinli. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra – sirg‘aluvchi. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til oldi, til-milk undoshi. Jarangsiz.

**“Ch”** – undosh tovush. **“Ch”** – ovozning miqdoriga ko‘ra – shovqinli. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra – portlovchi. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til oldi, til-milk undoshi. Jarangsiz.

**III. Yozma ish mashqi:**

O‘qituvchi **Sh, sh, Ch, ch** harflarining katta va kichik shakllarini, -sha, - she, - sho, - shi, - shu, - cha, - cho, - che, - chi, - chu bog‘inlari yozilishini doskada yozib ko‘rsatadi. O‘quvchilar daftarlariga yozib oladilar.

**O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:**

O‘quvchilar **Sh, Ch** harflarini hamda, – sha, - she, - sho, - shi, - shu, - cha, - cho, - che, - chi, - chu bog‘inlarini o‘qituvchi bilan birgalikda jo‘r bo‘lib takrorlaydilar. Birma – bir o‘qituvchining o‘qigan so‘zlarini doskada yozadilar. Sher, shox, eshik, osh, choynak, chana, chelak, olcha. O‘rmonda sher bor. Charos bir chelak olcha terdi.

O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish.

**Uyga vazifa:** Sh va Ch harflarining katta va kichik shakllarini, o'rmonda sher bor. Charos bir chelak olcha terdi. gaplarini yozish. To'g'ri talaffuz qilishni mashq qilish.

## 25–26 DARS

**Darsning mavzusi:** Jj va G'g' harflarini yozma va bosma shakllarini o'rgatish.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga Jj va G'g' harflarini yozma va bosma shakllarini o'rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'zbek tilini o'rganishiga e'tiborni qaratish.

**Darsni rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

**Darsning turi:** Yangi bilim beruvchi.

**Darsning jihozlanishi:** Rasmlar, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar.

Alifbo.

**Dars rejasi**

**Dars bosqichlari:**

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so'rash:– 5 daqiqa.

Yangi mavzuni tushintirish: Jj va G'g' harflarini yozma va bosma shakllarini yozishni, to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish - 10 daqiqa.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash – 15 daqiqa.

O'quvchilar bilimini baholash, rag'batlantirish, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

**Darsning borishi:**

Tashkiliy qism. Darsni tashkil qilish.

Uy vazifasini so'rash. O'tilgan harflarni va topishmoqni yod olish topshirilgan edi. O'quvchilardan bajargan uy vazifalari tekshirilib, savol – javob o'tkaziladi.

O'quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'llash.

Yangi mavzuni tushintirish: o'zbek alifbosidagi Jj va G'g' harflarini yozishni va to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish.

**I. Talaffuz mashqi:**

Jj va G'g' harflari ko'rsatilib o'qituvchi tomonidan to'g'ri talaffuz qilish o'rgatiladi. - ja, - je, - jo, - ji, -ju, -g'a, -g'o, -g'e, -g'i, - g'u bog'inlari o'qituvchi bilan birgalikda takrorlanadi.

**II. Yangi harflarni o'rgatish.**

Kirill hamda lotin alifbosi qiyoslanib harflarning katta va kichik shakli og'zaki suhbat orqali tushintiriladi.

Harf tovushning yozuvdagi ifodasi. Undosh tovush talaffuz qilinganda o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ining ma'lum bir joyida yoki bo'g'izda to'siqqa uchraydi. “J” – undosh tovush. “J” – Ovozning miqdoriga ko'ra – shovqinli. Hosil bo'lish usuliga ko'ra – sirg'aluvchi. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra til oldi, til – milk undoshi. Jarangli.

“G’” – undosh tovush. “G’” – Ovozning miqdoriga ko‘ra – shovqinli. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra – sirg‘aluvchi. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra chuqur til orqa undoshi. Jarangli.

### III. Yozma ish mashqi:

O‘qituvchi **Jj, G‘g‘** harflarining katta va kichik shakllarini - . - ja, - je, - jo, - ji, -ju, -g‘a, -g‘o, -g‘e, -g‘i, - g‘u bog‘inlari hamda jo‘ja, jo‘xori, jo‘mrak, g‘ijjak, g‘ildirak, bog‘ so‘zlari, Sog‘ tanda, sog‘lom aql. Sog‘liging, boyliging gaplarini doskada yozib ko‘rsatadi. O‘quvchilar daftarlariga yozib oladilar.

**O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:** O‘quvchilar birma – bir doskaga chiqib Jj va G‘g‘ harflarining katta va kichik shakllarini hamda jo‘ja, jo‘xori, jo‘mrak, g‘ijjak, g‘ildirak, bog‘ so‘zlarini yozadilar.

**Tinglang, takrorlang:** - ja, - je, - jo, - ji, -ju, -g‘a, -g‘o, -g‘e, -g‘i, - g‘u bog‘inlari, G‘ulom g‘ijjak chaldi. Bog‘da jajji bolalar gul teryaptilar. G‘olib bilan G‘ani g‘ildirak o‘ynadilar gaplari o‘qituvchi bilan birgalikda takrorlanadi.

O‘quvchilar bilimni baholash, uyga vazifa berish.

**Uyga vazifa:** **Jj, G‘g‘** harflarining katta va kichik shakllarini yozish. To‘g‘ri talaffuz qilishni mashq qilish. Sog‘ tanda, sog‘lom aql. Sog‘liging, boyliging maqollarini yod olish.

## 27-DARS

**Darsning mavzusi:** **Zz** harfini yozma va bosma shaklini o‘rgatish.

**Darsning ta‘limiy maqsadi:** O‘quvchilarga **Zz** harfini yozma va bosma shaklini o‘rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O‘zbek tilini o‘rganishiga e‘tiborni qaratish.

**Darsni rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish.

**Darsning turi:** Yangi bilim beruvchi.

**Darsning jihozlanishi:** Rasmlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar.

**Dars rejasi**

**Dars bosqichlari:**

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so‘rash:– 5 daqiqa.

Yangi mavzuni tushintirish: **Zz** harfini yozma va bosma shaklini yozishni, to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish - 10 daqiqa.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash – 15 daqiqa.

O‘quvchilar bilimni baholash, rag‘batlantirish,

Uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

**Darsning borishi:**

Tashkiliy qism. Darsni tashkil qilish.

Uy vazifasini so‘rash. **Jj, G‘g‘** harflarining katta va kichik shakllarini yozish. To‘g‘ri talaffuz qilishni mashq qilish. Sog‘ tanda, sog‘lom aql. Sog‘liging, boyliging maqollarini yod olish topshirilgan edi. O‘quvchilardan bajarigan uy vazifalari tekshirilib, savol – javob o‘tkaziladi.

O‘quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘llash.

Yangi mavzuni tushintirish: o‘zbek alifbosidagi : **Zz** harfini yozma va bosma shaklini yozishni, to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish.

### ***I. Talaffuz mashqi:***

Zz harfi ko‘rsatilib o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri talaffuz qilish o‘rgatiladi. – za,- ze, -zo,- zi,-zu, bg‘inlari o‘qituvchi bilan birgalikda takrorlanadi.

### ***II. Yangi harflarni o‘rgatish.***

Kirill hamda lotin alifbosi qiyoslanib harflarning katta va kichik shakli og‘zaki suhbat orqali tushintiriladi.

Harf tovushning yozuvdagi ifodasi. Undosh tovush talaffuz qilinganda o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ining ma‘lum bir joyida yoki bo‘g‘izda to‘siqqa uchraydi. “**Z**” – undosh tovush. “**Z**” – Ovozning miqdoriga ko‘ra – shovqinli. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra – sirg‘aluvchi. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til oldi, til - tish undoshi. Jarangli.

### ***III. Yozma ish mashqi:***

O‘qituvchi harflar Zz harfi uning katta va kichik shakllarini - za,- ze, -zo,- zi, -zu bog‘inlari hamda zebra, zirak, zanjir, zina so‘zlari, Bola odobi bilan aziz. Zaxro bobosiga xat yozdi. Gaplarini doskada yozib ko‘rsatadi. O‘quvchilar daftarlariga yozib oladilar.

***O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:*** O‘quvchilar birma – bir doskaga chiqib Zz harfining katta va kichik shakllarini hamda hamda zebra, zirak, zanjir, zina so‘zlarini yozadilar.

***Tinglang, takrorlang:*** za,- ze, -zo,- zi,-zu, zebra, zirak, zanjir, zina, Zumrad aqlli qiz. Dadasi Ziyodaga zirak olib berdi.

O‘quvchilar bilimni baholash, uyga vazifa berish.

***Uyga vazifa:*** **Zz** harfining katta va kichik shakllarini yozish. To‘g‘ri talaffuz qilishni mashq qilish. Bola odobi bilan aziz. Zaxro bobosiga xat yozdi. Gaplarini yozish.

## **28-29 DARS**

**Darsning mavzusi:** Ff va Vv harflarini yozma va bosma shakllarini o‘rgatish. (1- soat)

**Darsning ta‘limiy maqsadi:** O‘quvchilarga Ff va Vv harflarini yozma va bosma shakllarini o‘rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O‘zbek tilini o‘rganishiga e‘tiborni qaratish.

**Darsni rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish.

**Darsning turi:** Yangi bilim beruvchi.

**Darsning jihozlanishi:** Rasmlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar.

**Dars rejasi**

**Dars bosqichlari:**

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so‘rash:– 5 daqiqa.

Yangi mavzuni tushintirish: Ff va Vv harflarini yozma va bosma shakllarini yozishni, to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish - 10 daqiqa.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash – 15 daqiqa.

O‘quvchilar bilimini baholash, rag‘batlantirish, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

### **Darsning borishi:**

Tashkiliy qism. Darsni tashkil qilish.

Uy vazifasini so‘rash. O‘tilgan harflarni va maqollarni yod olish topshirilgan edi. O‘quvchilardan bajargan uy vazifalari tekshirilib, savol – javob o‘tkaziladi.

O‘quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘llash.

Yangi mavzuni tushuntirish: o‘zbek alifbosidagi Ff va Vv harflarini yozishni va to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish.

### ***I. Talaffuz mashqi:***

**Ff** va **Vv** harflari ko‘rsatilib o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri talaffuz qilish o‘rgatiladi. - fa, - fe, - fo, - fi, -fu, -va, -vo, -ve, -vi, - vu bog‘inlari o‘qituvchi bilan birgalikda takrorlanadi.

### ***II. Yangi harflarni o‘rgatish.***

Kirill hamda lotin alifbosi qiyoslanib harflarning katta va kichik shakli og‘zaki suhbat orqali tushuntiriladi.

Harf tovushning yozuvdagi ifodasi. Undosh tovush talaffuz qilinganda o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ining ma‘lum bir joyida yoki bo‘g‘izda to‘siqqa uchraydi. **“F”** – undosh tovush. **“F”** – Ovozning miqdoriga ko‘ra – shovqinli. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra – sirg‘aluvchi. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra lab, lab – tish undoshi. Jarangsiz.

**“V”** – undosh tovush. **“V”** – Ovozning miqdoriga ko‘ra – ovozdor. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra – sirg‘aluvchi. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra lab, lab – tish undoshi. Jarangli.

### ***III. Yozma ish mashqi:***

O‘qituvchi **Ff**, **Vv** harflarining katta va kichik shakllarini - fa, - fe, - fo, - fi, -fu, -va, -vo, -ve, -vi, - vu bog‘inlari hamda fil, favvora, daftar, shifokor, varrak, tovus, tovuq, velosiped so‘zlari, Farrux daftariga yozdi. Uning xati chiroyli gaplarini doskada yozib ko‘rsatadi. O‘quvchilar daftarlariga yozib oladilar.

***O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:*** O‘quvchilar birma – bir doskaga chiqib Ff va Vv harflarining katta va kichik shakllarini hamda fil, favvora, daftar, shifokor, varrak, tovus, tovuq, velosiped so‘zlarini yozadilar.

***Tinglang, takrorlang:*** - fa, - fe, - fo, - fi, -fu, -va, -vo, -ve, -vi, - vu bog‘inlari, hamda fil, favvora, daftar, shifokor, varrak, tovus, tovuq, velosiped so‘zlarini, Farrux daftarga yozdi. Uning xati chiroyli. Tovus chiroyli qush gaplari o‘qituvchi bilan birgalikda takrorlanadi.

O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish.

**Uyga vazifa:** **Ff**, **Vv** harflarining katta va kichik shakllarini yozish. To‘g‘ri talaffuz qilishni mashq qilish. Farrux daftarga yozdi. Uning xati chiroyli. Gaplarini tarjima qiling.



## 3-SINF II CHORAK

### 19-21 DARS

#### **Darsning mavzusi: “Sabzavotlar”**

**Darsning ta’limiy maqsadi:** O‘quvchining sabzavotlar mavzusidagi tayanch so‘z boyligini mukammallashtirish.

-Shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish.

-Nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O‘quvchilarda ona tabiatga bo‘lgan mehrini kuchaytirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, lug‘atboyligini oshirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish.

**Darsning turi:** Mustahkamlash.

**Darsning jihozlanishi:** Kitoblar, rasmlar, tarqatma materiallar, test topshiriqlari.

#### **Dars rejasi**

#### **Dars bosqichlari:**

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so‘rash:– 5 daqiqa.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash: – 25 daqiqa.

Mashq va topshiriqlarni bajarish – 10 daqiqa.

O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

#### **Darsning borishi:**

Tashkiliy qism. Darsni tashkil qilish.( Sinf o‘quvchilari ikki guruhga bo‘linib oladilar)

Uy vazifasini so‘rash. O‘qituvchi o‘quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirib, ularni faoliyatini o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘llaydi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Ikkala guruhga bir xil (meva va poliz ekinlarining nomi yozilgan) so‘zlar yozilgan kartochka beriladi. Guruhlarga topshiriq: So‘zlarni guruhlang. Birinchi ustunga meva nomlarini ikkinchi ustunga poliz ekinlarini nomini yozing. So‘zlar quyidagicha bo‘lishi mumkin: olma, anor, tarvuz, sholg‘om, handalak, kartoshka, uzum, behi. Topshiriqni bajarib bo‘lganlaridan so‘ng, guruhlar o‘rtasida o‘zaro musobaqa o‘tkaziladi. Ikkala guruhdan o‘quvchilar chiqib, I guruh: birinchi ustundagi so‘zlarni o‘qiydi. II guruh o‘quvchilari shu so‘zlarni izohlaydilar. II guruh: ikkinchi ustundagi so‘zlarni o‘qiydi. I guruh: o‘quvchilari shu so‘zlarni izohlaydilar. Masalan, anor – anor rangi qizil, pushti bo‘ladi. Mazasi shirin, nordon bo‘ladi. U kuzda pishadi. Handalak – handalak rangi sariq, mazasi shirin bo‘ladi. Yozda pishadi. Polizda o‘sadi. Mashg‘ulot tugagach o‘quvchilar baholanib, ish yakunlanadi.

Yangi mavzu bo‘yicha mustahkamlash: mashq va topshiriqlar bajarish.

1- 3 - topshiriq, 1 – 3 – mashqlarni berilgan shartiga ko‘ra bajaring.

O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish.

**Uyga vazifa:** Topishmoqlarni yod oling va javobini toping.

## 22-24 DARS

### **Darsning mavzusi: Ob –havo (1- soat)**

**Darsning ta’limiy maqsadi:** O‘quvchining “Ob –havo” mavzusidagi tayanch so‘z boyligini mukammallashtirish. Shu mavzudagi og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish. - (a, y) -di qo‘shimchali hozirgi - kelasi zamon fe’lining qo‘llanishi.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O‘quvchilarga tabiatga, tirik jonzotlarga nisbatan mehribon bo‘lishni o‘rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, lug‘at boyligini oshirish. Mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

**Darsning turi:** Suhbat.

**Darsning jihozlanishi:** Kitoblar, rasmlar, tarqatma materiallar, test topshiriqlari.

### **Dars rejasi**

#### **Dars bosqichlari:**

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so‘rash:– 5 daqiqa.

Yangi mavzu: “Ob -havo”– 20 daqiqa.

Nutq namunalari: **Vaqt: hozir, kecha, kechasi, kunduzi.**

Talaffuz: (a, y) – di qo‘shimchali hozirgi - kelasi zamon fe’lining qo‘llanishi – 5 daqiqa.

Mashq va topshiriqlarni bajarish – 10 daqiqa.

O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

#### **Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism.** Darsni tashkil qilish.

**Uy vazifasini so‘rash.**

O‘quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘llash.

**Yangi mavzuni o‘rganish.** “Chapak chalish” mashg‘uloti. So‘zlarni guruhlang. O‘qituvchi O‘quvchilarga “Uy hayvonlari”, “Kasb hunarlar”, “Yovvoyi hayvonlar va qushlar” mavzusiga oid so‘zlarni eslab olishni taklif etadi. Ketma-ket shu mavzuga oid bo‘lgan so‘zlarni o‘qiydi. O‘qituvchi “Ob -havo” mavzusini e’lon qiladi. O‘quvchilar o‘qituvchining so‘zlarini diqqat bilan tinglab borar ekanlar, agar so‘z shu mavzuga oid bo‘lsa, tinch o‘tiradilar. Mabodo aytilgan so‘z boshqa mavzu doirasiga kirsa, u holda chapak chalib qo‘yadilar. Masalan, havo, salqin, bulut, ishchi, tovuq, issiq, ayiq va h.k. Mashg‘ulot tugagach faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Mashg‘ulotga yakun yasalib, yangi mavzu tushintiriladi.

“Yodda tuting” rukni ostida berilgan so‘zlarni o‘qituvchi o‘qib beradi va tushintiradi. O‘quvchilar birgalikda takrorlaydilar.

Yangi mavzu bo‘yicha mustahkamlash: mashq va topshiriqlar bajarish.

1-3-topshiriq, 1-2 – mashqlar berilgan shartiga ko‘ra bajariladi.

O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish.

**Uyga vazifa:** Rasm asosida fasllar haqida bittadan gap tuzing.

## 5-SINF (2-CHORAK)

*Darsning mavzusi: Mening sinfdoshlarim. (2- soat)*

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarning "Mening sinfdoshlarim" mavzusiga oid leksik minimumini boyitish. Uni faol leksikaga aylantirish. Nutqiy ko'nikma va malakasini takomikkashtirish. Tushum kelishigi qo'shimchalarining qo'llanishiga oid grammatik bilimlarni yozma va og'zaki nutqda qo'llash malakalarini mustahkamlash. Muomala odobi bo'yicha tengdoshlariga murojaat qilish bo'yicha vaziyatli savol-javobga yo'llanma berish

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarni sinfdosh do'stlariga bo'lgan mehrini, hurmatini oshirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** bilim olishga qiziqtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmasini orttirish, ijodiy yondashishni shakllantirish

**Darsning turi:** Interfaol.

**Darsning jihozlanishi:** Kitoblar, rasmlar, tarqatma materiallar, test topshiriqlari, grammatik jadvallar.

Dars rejasi

**Dars bosqichlari:**

**Darsning borishi:**

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so'rash va mustahkamlash– 5 daqiqa.

Yangi mavzu: "**Mening sinfdoshlarim**" – 10 - daqiqa.

Grammatika: tushum kelishigi qo'shimchalarining qo'llanishi – 5 daqiqa.

Mustahkamlash – 10 daqiqa.

Mashq va topshiriqlarni bajarish – 10 daqiqa.

O'quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

**Tashkiliy qism.** Darsni tashkil qilish.(Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linib oladilar)

**Uy vazifasini so'rash.** O'quvchilar uyga berilgan vazifaga javob berganlaridan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirib, ularning faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'llaydi.

O'tilgan darslar yuzasidan uy vazifasini tekshirish va bilimini kartochkalar orqali aniqlash.

Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi, ularga uch xil kartochkalar beriladi.

**1-kartochka:** Ajratib ko'rsatilgan otlardagi egalik va kelishik qo'shimchalarini toping.

Javonda o'zbek **yo'zuvchilarining** asarlari bor.

**Xonamizning** jihozlari yangi.

**2-kartochka:** Ajratib ko'rsatilgan otlardagi egalik va kelishik qo'shimchalarini toping.

**Maktabimizning** devoriga ko'rgazmali qurollar ilingan.

**Ukamning** o'rtog'i rasm to'garagiga qatnaydi.

**3-kartochka:** egalik va kelishik qo'shimchasini olgan otlarni aniqlang.

Yulduz **xolasining** uyiga borsa jim o'tirmaydi.

**Maktabimizning** hovlisida manzarali daraxtlar ekilgan bog' bor.

**Yangi mavzuni o'rganish.** "Bilib oling" ruknida berilgan ma'lumot asosida grammatik mavzuni tushuntirish.

Tayyorlab qo'yilgan ko'rgazmali rasmlar asosida o'qituvchi yangi mavzuni mustahkamlaydi.

**"Menga aytingchi" mashg'uloti.**

Ta'rif: Bu ish 4 kishidan iborat guruhlarda uch bosqichda o'tkaziladi:

1. Barcha ishtirokchilarga savollar yozilgan A5 formatdagi qog'oz beriladi. Guruh a'zolari savollardan birini o'zidan o'ng tomonda o'tirgan ishtirokchiga beradi. U bir daqiqa vaqt davomida berilgan savolga javob beradi va o'ng tomondagi ishtirokchiga savol beradi. Jarayon shu tariqa guruhning barcha ishtirokchilari savollarga javob bermaganlariga qadar davom etadi.

2. Ishtirokchilar savol tanlab, o'zlari istagan guruh a'zosiga beradilar. Javob to'liq bo'lishi lozim. Javob berishga 1 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu jarayon navbatma – navbat amalga oshiriladi.

3. Ishtirokchilar navbatma-navbat o'zlari xohlagan 1 ta savolni tanlaydilar. So'ng bir daqiqa vaqt davomida tanlangan savolga javob beradilar.

Tarqatma varag'i.

**Menga aytingchi:**

1. Sizga o'zingizdagi qanday xususiyat yoqadi.
2. O'zingizga yoqmaydigan xususiyatingiz.
3. Boshlang'ich maktab bilan bog'liq bo'lgan yorqin xotiralaringiz.
4. Hayotingizda siz bilan ro'y bergan eng ahamiyatli voqea.
5. Sizga nima bilan shug'ullanish yoqadi.
6. Sizning eng katta muvaffaqiyatingiz.
7. Siz ushbu dars haqida nima deb o'ylaysiz.
8. Sizga katta ta'sir ko'rsatgan sinfdoshingiz.
9. Sizga do'stingizning qanday fazilati yoqadi.
10. Kelajakdagi umidlaringiz.
11. Sizning sinfdoshlaringiz qanday bolalar?
12. Sinfingiz o'quvchilari sizga yoqadimi? Nima uchun?
13. Siz o'zingiz to'g'ringizda qanday fikrdasiz.

O'quvchilarda tanlash imkoniyati mavjud bo'lishi uchun savollar soni kamida 12 ta bo'lishi kerak.

O'rta hisobda 12-14 daqiqa sarflanadigan mashqni bajarib bo'lgandan keyin muhokama o'tkaziladi:

- Mashqni bajarish vaqtida nimalarni his qildingiz?
- Qanday yangilikni bilib oldingiz?
- Nimalarni o'rgandingiz?
- Sizni mashqni bajarish vaqtida nima hayratlantirdi (har bir bosqichda)?
- va hokazo, o'qituvchining ixtiyoriga ko'ra.

**Foydalanish doiralari:** Har qanday o'quv fanida, o'tilgan materialni takrorlashda yoki o'quvchilarning mazkur mavzu bo'yicha bilimlarini aniqlash maqsadida yangi materialni tushuntirish lozim.

**Afzalliklari:** O‘quvchilar bilimlarini nostandart ravishda tekshirish imkoniyati. Mashqning ikkinchi bosqichi o‘quvchilarga o‘z bilimlarini to‘ldirish, o‘rganilgan materialni aniqlashtirishga imkon yaratadi. Uning uchinchi bosqichi o‘quvchilarga o‘rganilayotgan material bo‘yicha o‘z bilimlarini namoyish etish va baholashga yordam beradi.

**Oiyinchiliklari:** Guruhlarga ish bajarish uchun turli vaqt muddatlari kerak bo‘lishi mumkin va o‘qituvchi bunga tayyor bo‘lishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarni baholash bo‘yicha aniq mezonlarga ega bo‘lishi kerak.

Mashq va topshiriqlarni bajarish.

O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish.

*Uyga vazifa.*

## 5-SINF

**Darsning mavzusi: Mening sinfdoshlarim (2- soat)**

**Darsning ta’limiy maqsadi:** O‘quvchilarning “Mening sinfdoshlarim” mavzusiga oid so‘z boyligini, nutqiy ko‘nikmalarini, tushum kelishigi qo‘shimchalarining qo‘llanishiga oid grammatik bilimlarni yozma va og‘zaki nutqda qo‘llash malakalarini mustahkamlash. O‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirish so‘z boyligini oshirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o‘quvchilarni sinfdosh do‘stlariga bo‘lgan mehrini, hurmatini oshirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** bilim olishga qiziqtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini orttirish, ijodiy yondashishni shakllantirish

**Darsning turi:** mustahkamlash.

**Darsning jihozlanishi:** kitoblar, rasmlar, tarqatma materiallar, test topshiriqlari.

### Dars rejasi

**Dars bosqichlari:**

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so‘rash:– 5 daqiqa.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash: – 25 daqiqa.

Mashq va topshiriqlarni bajarish – 10 daqiqa.

O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

**Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism.** Darsni tashkil qilish. (Sinf o‘quvchilari uch guruhga bo‘linib oladilar)

**Uy vazifasini so‘rash:** O‘quvchilar uyga berilgan vazifaga javob berganlaridan so‘ng, o‘qituvchi o‘quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirib, ularning faoliyatini o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘llaydi.

O‘tilgan darslar yuzasidan uy vazifasini tekshirish va bilimini kartochkalar orqali aniqlash.

Sinf o‘quvchilari uch guruhga bo‘linadi, ularga uch xil kartochkalar beriladi.

**1-kartochka:** Berilgan so‘zlarni tushum kelishigida qo‘llab, so‘z birikmalari tuzing va tarjima qiling.

Kitob, meva, savol, uzum

*2-kartochka:* Berilgan soʻzlarni tushum kelishigida qoʻllab, soʻz birikmalari tuzing va tarjima qiling.

Ertak, qoʻl, hosil, xat

*3-kartochka:* Berilgan soʻzlarni tushum kelishigida qoʻllab, soʻz birikmalari tuzing va tarjima qiling.

Kiyim–kechaklar, xona, barglar, gul

Oʻquvchilarning bilimlari sinab olingandan soʻng topshiriq xulosalanib, yangi mavzu tushuntiriladi.

Yangi mavzuni oʻrganish. “Bilib oling” ruknida berilgan maʼlumot asosida grammatik mavzuni tushuntirish.

Yangi mavzuni mustahkamlash: mashq va topshiriqlarni bajarish.

Oʻquvchilar bilimni baholash, uyga vazifa berish.

*Uyga vazifa:* Savollarga yozma ravishda javob bering.

## 6- SINIF II CHORAK

### KUTUBXONADA (Kelishik qoʻshimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarining ishlatilishi)

#### 1-DARS

*Darsning taʼlimiy maqsadi.* Oʻquvchilarga oʻzbek tilida gumon olmoshlarining yasalishi haqida maʼlumot berish.

*Darsning tarbiyaviy maqsadi.* Oʻquvchilarda kitobni sevish, kitob oʻqishga mehr uygʻotish orqali ularning ilmga intilishini kuchaytirish.

*Darsning jihazlanishi.* Darslik, kutubxona rasmi, yangi nashr etilgan kitoblar, 1-slayd.

*Darsda qoʻllanadigan pedagogik texnologiyalar.* Hamkorlik metodi, aqliy hujum, Kim tez topadi?, BBB usuli.

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1.	Tashkiliy qism. Uy vazifasini soʻrash	8 daqiqa
2	Rasm va savollar asosida suhbat. 1, 2-topshiriq.	7 daqiqa
3.	Grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi.	7 daqiqa
4.	Mustahkamlash mashqlari (2-3- mashqlar)	8 daqiqa
5.	“Bilasizmi?”rukni asosida guruhlarda ishlash (4-mashq).	10 daqiqa
6.	Maqollar ustida ishlash (3-topshiriq) BBB usuli.	3 daqiqa
7.	Oʻquvchilarni baholash va uyga vazifa.	2 daqiqa

### ***Darsning borishi:***

1. Tashkiliy qism. Uyga vazifa – M.Boboyevning “O‘zbekiston” she’ri ifodali o‘qitiladi hamda 5-mashqda berilgan mevalar ta’rifi so‘raladi. Shu asosda o‘tilgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim va malakalari baholanadi.

2. Yangi 8- mavzuni boshlashdan avval o‘quvchilar diqqati darslikda berilgan rasimga qaratiladi va 1-topshiriq bo‘yicha “Kutubxonada” mavzusidagi dialog juftlikda o‘qitiladi. So‘ngra 2-topshiriqdagi savollar va berilgan rasm asosida shu mavzudagi suhbat davom ettiriladi.

3. Grammatik qoidani tushuntirish uchun avval **1-mashqdagi** matnni o‘qitish va o‘quvchilarni matn mazmuniga hamda matnda ajratib ko‘rsatilgan *kimdir, qaysidir, kimlarningdir* so‘zlariga o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish maqsadga muvofiq.

So‘ngra o‘quvchilar **“Kelishik qo‘shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarining ishlatilishi”** mavzusi bo‘yicha berilgan grammatik qoida bilan tanishtiriladi. O‘quvchilarga o‘zbek tilida gumon olmoshlari shaxs va narsa-buyum, ularning belgi, miqdori, o‘rni, payti noaniqligini ifodalashi, ular so‘roq olmoshlari oldidan *alla* so‘zini yoki ulardan keyin *-dir* qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilinishi haqida ma’lumot beriladi. Buning uchun quyidagi slayddan foydalanish tavsiya etiladi:

1-slayd      ***Gumon olmoshlarining hosil qilinishi***

**kim**

**nima**

**qaysi**

**alla + qanday + dir**

**qancha**

**nechta**

**nechuk**

4. Grammatik ma’lumotni mustahkamlash uchun darslikdagi 2- va 3-mashqlardan foydalaniladi. 2-mashq og‘zaki, 3-mashq esa namuna asosida yozma bajartiriladi.

5. Guruhlarda ishlash. O‘quvchilarga 4-mashqdagi “Bilasizmi?” rukni o‘qitiladi. So‘ngra 5ta guruhga bo‘linib, kim nimani va qanday o‘rganganligini yozib chiqadilar. So‘ngra har bir guruhdan bittadan vakil chiqib, buyuk allomalarimiz haqida ma’lumotlar beradilar hamda namuna asosida o‘z xulosalarini yozadilar. Qaysi guruh topshiriqni birinchi bo‘lib va yaxshi bajarsa, yuqori baho bilan rag‘batlantiriladi.

Dars yakunida 3-topshiriqda berilgan ilm haqidagi maqollar o‘qitiladi va ularning mazmuni tushuntiriladi. So‘ngra avvaldan tarqatib qo‘yilgan BBB kartochkalari o‘quvchilar tomonidan to‘ldirtiladi hamda o‘quvchilar baholanadi.

**Uyga vazifa.** Gumon olmoshlaridan foydalanib, “*Maktabimiz kutubxonasida*” mavzusida kichik matn tuzish.

## 2-DARS

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga kelishik qo'shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarining ko'plik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarni zamonaviy kutubxonalar afzalliklari bilan tanishtirish, ularning ilmga intilishini kuchaytirish.

**Darsning jihozlanishi.** Darslik, "Ma'rifat markazi" va elektron kutubxonalar haqida videolavha yoki rasmlar, audiokasseta, 1-va 2-slaydlar.

**Darsda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum, rolli o'yin.

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1.	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash	8 daqiqa
2	"Ma'rifat markazi", elektron kutubxona haqidagi videolavha yoki rasm asosida suhbat. 4-topshiriq, 5-mashq.	10 daqiqa
3.	Grammatik qoida bilan tanishtirish. 1-va 2-slaydlar namoyishi.	8 daqiqa
4.	Mustahkamlash mashqlari (6-mashq)	7 daqiqa
5.	Adabiy o'qish. "Kitob o'qishning hikmati" matni ustida ishlash. Zanjir usuli.	10 daqiqa
6.	O'quvchilarni baholash va uyga vazifa.	2 daqiqa

### **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash. O'quvchilardan "Maktab kutubxonasida" mavzusida tuzib kelgan matnlari o'qitiladi, oxirgi o'qigan kitoblari haqida, tuzgan matnlari tarkibida qo'llagan gumon olmoshlari, ularning yasalishi bo'yicha qo'shimcha savollar berib, o'quvchilarning egallagan bilim-ko'nikmalari baholanadi.

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilar diqqati darslikdagi 4-topshiriqda berilgan suhbat matnini audiokasseta orqali diqqat bilan tinglash, so'ngra rolli ijro etish tavsiya etiladi. So'ngra **5-mashqdagi** matn o'qitiladi. Bunda Toshkent shahrida yangi qurilgan "Ma'rifat markazi" va u yerdagi elektron kutubxona haqidagi videolavha yoki rasmdan foydalanish tavsiya etiladi. So'ngra o'quvchilarga matndagi olmoshlarni aniqlatiladi va ularning ma'nosi izohlatiladi.

3. Ushbu darsda o'quvchilarga o'zbek tilida *bir* so'ziga *-ov, -on, -or* qo'shimchalarini qo'shish orqali ham gumon olmoshlari hosil qilinishi, *biron, biror* so'zlari *biron-bir, biror-bir* shaklida juft holda ham qo'llaishi mumkinligi haqida yangi grammatik ma'lumot beriladi. Shuningdek, gumon olmoshlariga kelishik qo'shimchalarining qo'shilishi, bunda ko'plik qo'shimchalari ulardan oldin kelishi tushuntiriladi. Masalan: *kimdir - kimlargadir, nimadir - nimalarni, birovlarining* kabi. Buning uchun 1-mavzudagi slaydning davomini namoyish qilish yaxshi natija beradi.



Grammatik qoidani tushuntirish uchun avval 5-mashqdagi matni o‘qitish va o‘quvchilarni matn mazmuniga hamda matnda ajratib ko‘rsatilgan *kimdir, qaysidir, kimlarningdir* so‘zlariga o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish maqsadga muvofiq.

So‘ngra o‘quvchilar **“Kelishik qo‘shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarining ishlatilishi”** mavzusi bo‘yicha berilgan grammatik qoida bilan tanishtiriladi. O‘quvchilarga o‘zbek tilida gumon olmoshlari shaxs va narsa-buyum, ularning belgi, miqdori, o‘rni, payti noaniqligini ifodalashi, ular so‘roq olmoshlari oldidan *alla* so‘zini yoki ulardan keyin *-dir* qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilinishi haqida ma’lumot beriladi. Buning uchun 2- slayddan foydalanish tavsiya etiladi:

2-slayd ***Gumon olmoshlarining kelishik va ko‘plik qo‘shimchalari bilan ishlatilishi***

<b>kim</b>		<b>ni</b>		
<b>alla +</b>	<b>nima</b>	<b>+ lar</b>	<b>+</b>	<b>ning</b>
	<b>birov</b>			<b>ga</b>
	<b>biron-bir</b>			<b>da</b>
	<b>biror-bir</b>			<b>dan</b>

4. Grammatik ma’lumotni mustahkamlash uchun darslikda berilgan 6-mashqdagi terma gaplardan foydalaniladi. O‘quvchilar gaplar tarkibidagi gumon olmoshlari qaysi kelishik qo‘shimchalari bilan kelganligini aniqlaydilar, qo‘llanishini slaydga qarab turib izohlaydilar. O‘quvchilarning nutqiy malakalarini mustahkamlash uchun esa 5-topshiriqdagi suhbat matni og‘zaki oqitiladi.

5. Ushbu darsda adabiy o‘qish sifatida berilgan *“Kitob o‘qishning hikmati”* matnini zanjir usulida ovoz chiqarib ifodali o‘qitish ko‘zda tutiladi. Bu o‘quvchilarning nutqiy malakalarini mustahkamlaydi va mavzuga oid bilimlarini chuqurlashtiradi.

6. Dars yakunida quyidagi test topshiriqlaridan foydalanib, barcha o‘quvchilarni baholash mumkin:

**1. Gumon olmoshlari berilgan qatorni ko‘rsating.**

A. bir narsa, har narsa, hech narsa

B. allanima, kimdir, allanarsa

C. hech bir, hech narsa, hech kim,

**2. Gumon olmoshi xato yozilgan qatorni ko‘rsating.**

A. har qancha, har qaysi, har nima

B. alla narsa, kimdir, nimalardir

C. har narsa, hech kim, bir nima

**3. Gumon olmoshlarini hosil qiluvchi vositalar berilgan qatorni ko‘rsating.**

A. har, hech

B. alla, - dir

C. narsa, bir

**4. Gumon olmoshlarining imlosi to‘g‘ri berilgan qatorni ko‘rsating.**

A. *alla* soʻzdan oldin kelib ajratib yoziladi, - *dir* soʻzdan keyin kelib qoʻshib yoziladi

B. *alla* soʻzdan oldin kelib qoʻshib yoziladi, - *dir* soʻzdan keyin kelib ajratib yoziladi

C. *alla* soʻzdan keyin kelib ajratib yoziladi, - *dir* soʻzdan oldin kelib qoʻshib yoziladi.

**Uyga vazifa.** Adabiy oʻqish uchun berilgan “*Kitob oʻqishning hikmati*” matnini hikoya qilib berishga tayyorlanish, matnda qoʻllangan gumon olmoshlarni aniqlab, qoʻllanishini tushuntirish.

## ***I MAVZU: OBOD OʻLKAM***

***(Aniq va mavhum otlarining ishlatilishi)***

### **1-DARS**

Darsning maqsadi:


**2. Tarbiyaviy maqsad:**

**Oʻquvchilarni respublikamiz shahar va qishloqlarida olib borilayotgan obodonchilik ishlari bilan tanishtirish, vatanga muhabbat,**

**1. Taʼlimiy maqsad. Aniq va mavhum otlar, yasama mavhum otlarlarining yasalishi haqida maʼlumot berish, oʻquvchilarlar lugʻat boyligini oshirish.**

**3. Rivojlantiruvchi maqsad: Oʻquvchilar ogʻzaki va yozma nutqini, oʻz fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.**

***Darsning jihozlanishi. “Oʻzbek tili” darsligi, rasmlar, videokasseta, audiokasseta, disklar, Quddat Hikmatning «Men tugʻilgan oʻlka» sheʼri, test topshiriqlari.***



Dars metodlari: **Hamkorlik metodi, klaster, zanjir usuli.**

***Darsdan kutiladigan BKM natijalari.*** Oʻquvchi aniq va mavhum otlar, mavhum otlarlarining yasalishi va imlosi haqida nazariy maʼlumotga ega boʻladi; lugʻat boyligi oshadi, ularda ushbu otlarni turli nutqiy vaziyatlarda qoʻllash koʻnikmalari hosil boʻladi; mavzu doirasida oʻz fikrini ogʻzaki va yozma bogʻlanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

**Dars rejasi:**

1. Salomlashuv va tanishuv. O'qituvchining kirish so'zi. Madhiya ijrosi. 4 daqiqa

2. Rasm va videolavhalar asosida suhbat (1-topshiriq). «Muqaddas zamin» matni ustida ishlash, lug'at ishi (1-mashq). 10 daqiqa

3. Grammatik qoida bayoni. 7 daqiqa

4. Mustahkamlash. 2-mashq va 2-topshiriq og'zaki bajariladi. Vatan haqidagi maqollar, matni ustida ishlash (3-mashq). Men tug'ilgan o'lka» she'rini zanjir usulida o'qish. 10 daqiqa

5. Darsni yakunlash, o'quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa. 4 daqiqa

### Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism. Salomlashuv va tanishuv. O'qituvchining kirish so'zi. Madhiya ijrosi.

#### II. Nutqiy mavzu bayoni.


Videolavha namoyishi va darslikdagi rasmni kuzatish. Rasm va videolavhalar asosida suhbat (1-topshiriq). Klaster usuli. «Muqaddas zamin» matni ustida ishlash, lug'at ishi (1-mashq).

1- topshiriqda rasm asosida suhbat tashkil etish uchun yo'naltiruvchi savollar berilgan bo'lib, keyingi 2 ta savolga javob berishda klaster usulidan foydalanish samarali bo'ladi.

- Poytaxtimizda yana qanday yangi inshootlar barpo etildi?


- Siz yashayotgan shahar yoki qishloqda-chi?

Bu topshiriqni masalan quyidagi shaklda yozdirish mumkin:



Respublikamizning boshqa shahar, tuman yoki qishloqlarida istiqloq yillarida barpo etilgan yangi inshootlarni ham shu shaklda ko'rsatish suhbatning jonli bo'lishiga olib keladi.

#### III. Grammatik qoida bayoni



## O'quvchilarga aniq va mavhum otlarning ishlatilishi, mavhum otlarning ma'nolarini misollar bilan tushuntirish.

Bilib oling!

Otlar aniq va mavhum bo'ladi. Aniq otlar biz ko'ra oladigan narsa-buyumlarni bildiradi. Ular birlik va ko'plik sonda kela oladi. Masalan: *shahar* – *shaharlar*, *mamlakat* – *mamlakatlar*, *bino* – *binolar* kabi. Mavhum otlar his-tuyg'lar, shaxsga xos belgi, kasb-hunar nomlarini bildiradi va asosan birlik sonda qo'llanadi.

### IV. Mustahkamlash


A) 2- mashq og'zaki bajariladi. Vatan haqidagi maqollarning ma'nosini tushuntiriladi (2- topshiriq).

V) 3- mashqdagi matn ustida ishlash. Bunda avval matn o'qitiladi. So'ng aniq va mavhum otlarni aniqlab, ikki guruhga ajratib yozish, mavhum otlarning yasalishini tushuntirish so'raladi.

C) «*Men tug'ilgan o'lka*» she'rini “*Zanjir*” usulida ifodali o'qitish.

V. Darsni yakunlash. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa: o'z shahar (qishloq, tumani)nigizda qanday obodonchilik ishlari olib borilayotgani haqida matn tuzing.

## 2- DARS



*Darsning jhozlanishi.* “O'zbek tili” darsligi, rasm va videolavhalar, Qambar otaning she'rlar to'plami, tarqatma materiallar.

*Dars metodlari.* Hamkorlik metodi, aqliy hujum, zanjir, klaster usullari.

*Darsdan kutiladigan BKM natijalari.* O'quvchi aniq va mavhum otlar, ularning imlosi haqida nazariy ma'lumotga ega bo'ladi; lug'at boyligi oshadi, ularda ushbu otlarni turli nutqiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; mavzu doirasida o'z fikrini og'zaki va yozma bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism. Uyga vazifasini so'rash 7 daqida
2. Takrorlash. Rasmni kuzatish va "Obod o'lka" matni ustida ishlash (4-mashq). Savollar asosida suhbatlashish (4-topshiriq) 10 daqida
3. Yangi mavzu bayoni 5 daqida
4. Mustahkamlash. 10 daqida
5. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (5-7 mashqlar). Nutqiy mavzuni mustahkamlash. «Vatanni yashnataylik» she'ri (5-topshiriq).8 daqida
6. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa 5 daqida

Darsning borishi:

- I. Tashkiliy qism. Uy vazifasi tekshiriladi. O'quvchilardan «*Men tug'ilgan o'lka*» she'rini yod aytib berish so'raladi.
- II. O'tilgan mavzuni takrorlash.  
4-topshiriq. I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat" — yengilmas kuch" asaridan olingan "Muqaddas zamin" matni ustida ishlash. Matn ifodali o'qitiladi, so'ng o'quvchilar diqqati ajratib ko'rsatilgan so'zlarga qaratiladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Bilib oling!

O'quvchilarga mavhum otlar, ularning tub yoki yasama bo'lishi (*viydon, mehr, ishonch, saxiylik, muxandislik* kabi), mavhum otlar so'zlarga *-lik, -chilik, -ch, -inch* qo'shimchlarini qo'shish yordamida yasalishi (*mardlik, shifokorlik, uchuvchilik, ishonch* kabi) haqida ma'lumot beriladi:

#### IV. Mustahkamlash.

A) 4-5-mashqlar yozma bajartiriladi. Ushbu mashqlar vositasida avval o'quvchilarda berilgan so'zlarga *-lik yoki -chilik* qo'shimchalaridan mosini qo'yib mavhum otlarni yasash, so'ng nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan mavhum otlardan mosini qo'yish ko'nikmalari hosil qilinadi. 6- mashq o'quvchilarda mavhum otlarni nutqda mustaqil qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilgan.

V) Qambar otaning «*Vatanni yashnataylik*» she'ri «Zanjir» usulida ifodali o'qitiladi.

V. Mavzuni xulosalash. Har bir mavzu yakunida o'quvchilarning mavzu bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va ularni to'g'ri baholash uchun BBB tarqatma kartochkalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu kartochkalar o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelinadi va dars tugashiga 10 daqiqacha qolganda tarqatib qo'yiladi va o'quvchilardan to'ldirib berish so'raladi.


Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman

Uyga vazifa: «*Vatanni yashnataylik*» she'rini yod oling.

#### V MAVZU: ADABIYOT MUZEYIDA (Otlarda *-day, -dek, kabi, xuddi* shakllarining ishlatilishi)

##### 11-DARS

Darsning maqsadi:



*Darsning jihozlanishi.* «O'zbek tili» darsligi, elektron vositalar, disklar, audiokasseta, magnitofon, muzey eksponatlari rasmlari, Oybekning «*Bola Alisher*» asari.

*Dars metodlari.* Interfaol, hamkorlik metodi, rolli o'qish, aqliy hujum.

*Darsdan kutiladigan BKM natijalari.* O'quvchi otlarda *-day, -dek, kabi, xuddi* shakllarining qo'llanishi bo'yicha bilimga ega bo'ladi; ularda bunday otlarni og'zaki va yozma nutqda amaliy qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; adabiyot muzeyi mavzusi doirasida o'z fikrini bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini soʻrash.  
«Ustozlar» qoʻshigʻini birgalikda kuylash. 10 daqiqa

2. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi matni bilan ishlash  
(2-3 topshiriqlar). 10 daqiqa

3. Grammatik qoida bilan tanishtirish 7 daqiqa

4. Mustahkamlash mashqlari (2-4-mashqlar). 10 daqiqa

5. Oʻquvchilar bilimini baholash, uyga vazifa. 8 daqiqa

## Darsning borishi:

### I. Taskiliy qism

Uy vazifasini soʻrash va baholash.

Oʻquvchilarga Poʻlat Moʻminning «Ustozlar» sheʼrini yoddan aytiriladi.  
Soʻngra avval audiokasseta orqali qoʻshiq eshittiriladi va birgalikda kuylanadi.

### II. Nutqiy mavzu bayoni

1. **Aqliy hujum.** 1-topshiriqda berilgan savollar asosida suhbat tashkil etish.

2. **1-mashq.** «Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi» matni ustida ishlash.  
Oʻquvchilarga matn oʻqitiladi, notanish soʻzlar lugʻati ustida ishlanadi.

3. **3-topshiriq.** Suhbat matni rollarga boʻlib oʻqitiladi. Oʻquvchilar diqqati matnda ajratib koʻrsatilgan *goʻyo Navoiy davriga qaytgandekmiz, xuddi vorislardek, togʻdek, bobomiz kabi, Navoiydek* soʻzlari va birikmalariga qaratiladi. Soʻngra darslikdagi grammatik qoida tushuntiriladi.

### III. Grammatik qoida bayoni.



Bilib oling!

O'quvchilarga o'zbek tilida o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini bildirish uchun *-day, -dek, go'yo, kabi, xuddi* shakllari ishlatilishi; *-day, -dek* qo'shimchalari so'zlarga qo'shib yozilishi haqida ma'lumot beriladi. Nazariy ma'lumot avval matnlarda berilgan misollar, so'ngra o'quvchilar og'zaki keltirgan misollari yordamida izohlanadi.

#### IV. Mustahkamlash.

⇒ Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 2-3-mashqlar bajartiriladi. O'quvchilarga 2-mashq berilgan namuna asosida bajartiriladi.

*Namuna: Kun – kundek – xuddi kundek; kundek ravshan.*

O'quvchilar avval so'zlarga o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini bildiruvchi qo'shimchalar va so'zlar qo'shib yozadilar, so'ng ular ishtirokida so'z birikmalari tuzadilar.

So'ngra 3-mashq bajartiriladi. O'quvchilar nuqtalar o'rniga o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini bildiruvchi so'z va qo'shimchalarni qo'yib gaplarni ko'chiradilar.

Ushbu mashqlar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

⇒ 4-mashq rivojlantiruvchi tamoyil asosida tuzilgan. Ushbu mashq topshirig'iga ko'ra nomlari berilgan shaxslar ta'riflanadi. So'ngra o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini bildiruvchi vositalar yordamida fikr davom ettiriladi.

*Namuna: Alisher Navoiy — o'zbek adabiy tilining asoschisi.  
Biz xuddi bobomizdek bo'lishni orzu qilamiz.*


V. Darsni yakunlash. O'qituvchi mavzuni xulosalaydi va darsni yakunlaydi, darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

Uyga vazifa: Berilgan reja asosida "Adabiyot muzeyi" mavzusida ijodiy matn yozing.

4. *Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyining tashkil etilishi.*
5. *Muzey ekspozitsiyalari va bo'limlari.*
6. *Muzeyda alohida o'rin tutadigan eksponatlar.*



## 12- DARS




*Darsning jihozlanishi.* "O'zbek tili" darsligi, elektron va ko'rgazmali vositalar, BBB kartochklari, O'zbekiston ensiklopediyasi, Oybekning "Bola Alisher" asari.

*Dars metodlari.* Hamkorlik metodi, aqliy hujum, rolli o'qish, BBB usuli.

*Darsdan kutiladigan BKM natijalari.* O'quvchi o'zbek tilida -dek, -day qo'shimchali so'zlar go'yo, xuddi, kabi, singari so'zlari bilan qo'llansa, o'xshatish ma'nosi kuchaytirilishi; bunda go'yo, xuddi so'zlari otlardan oldin, kabi esa keyin kelishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi; ularda ushbu shakllarni nutqda qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; adabiyot muzeyi mavzusi doirasida o'z fikrini bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

### Dars rejasi:



### Darsning borishi:

I.Taskiliy qism. Uy vazifasi tekshiriladi. O'quvchilarning "Adabiyot muzeyidan olgan taassurotlarim" mavzusida ijodiy ishi tekshiriladi. Eng yaxshi yozilgan matn qayd etiladi va baholanadi.

## II. O‘tilganlarni takrorlash.

O‘quvchilarga darslikdagi 5-topshiriqda berilgan “*Muzey haqida*” matni o‘qitiladi, notanish so‘zlar lug‘ati ustida ishlanadi. 2-3 ta o‘quvchi matn mazmunini so‘zlab beradi. O‘qituvchi qo‘shimcha ma’lumotlar bilan matni boyitadi. 6-topshiriqdagi savollar orqali o‘quvchilarning muzeylar haqidagi tasavvurlari aniqlashtiriladi.

## III. Grammatik qoida bayoni.

### Bilib oling!

O‘quvchilarga o‘zbek tilida *-dek, -day* qo‘shimchali so‘zlar so‘zlar *go‘yo, xuddi, kabi, singari* so‘zlari bilan qo‘llansa, o‘xshatish ma‘nosi kuchaytirilishi; bunda *go‘yo, xuddi* so‘zlari otlardan oldin, *kabi* esa keyin kelishi haqida ma’lumot beriladi. Masalan: *oyday – go‘yo oyday – xuddi oyday – oy kabi;*

## IV. Mustahkamlash mashqlari.

⇒ A) Grammatik ma’lumotni mustahkamlash uchun 5-6-mashqlar bajartiriladi. 5-mashqda nuqtalar o‘rniga o‘xshatish-qiyoslash vositalarini qo‘shib gaplarni ko‘chirish. 6-mashq aqliy hujum metodida bajartiriladi. O‘quvchilar 5-topshiriqdagi suhbat matnidan o‘xshatish-qiyoslash vositalari bor bo‘lgan gaplarni aniqlab daftarlariga yozishlari, shuningdek, matndagi yana qaysi gaplarga o‘xshatish-qiyoslash vositalarini qo‘shish mumkinligi topishlari kerak.

⇒ V) Nutqiy mavzuni mustahkamlash uchun adabiy o‘qish sifatida Oybekning “*Bola Alisher*” asaridan berilgan parcha o‘quvchilarga juftlikda rolli o‘qitiladi, notanish so‘zlar lug‘ati ustida ishlanadi, asar mazmunini tushuntirib beriladi. So‘ng o‘quvchilardan asardan qanday tasavvur hosil qilganlari so‘raladi.

## V. Mavzuni yakunlash.

Bu darsda “Adabiyot muzeyida” nutqiy mavzusi yakunlanadi. Shu bois o‘qituvchi BBB kartochkalarini o‘qitish yordamida o‘quvchilarning ushbu mavzu bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlaydi. So‘ngra o‘quvchilarni baholaydi. Uygah vazifa: “*Bola Alisher*” hikoyasi mazmunini so‘zlab berish.

## XII MAVZU: YANGI YIL REJASI (Jamlovchi sonlarning yasalishi va qo‘llanishi)

### 29-DARS

*Darsning ta’limiy maqsadi.* O‘quvchilarga jamlovchi sonlarning yasalishi va qo‘llanishi haqida ma’lumot berish.

*Darsning tarbiyaviy maqsadi.* O‘quvchilarni qish faslida tabiatda yuz beradigan o‘zgarishlarni kuzatishga o‘rgatish, ularga qishki o‘yinlarning jamoa bo‘lib o‘ynalishini singdirish, ahil jamoa bo‘lib yashashga intilish tuyg‘ularini kuchaytirish.

*Darsning jihozlanishi.* Darslik, videolavha va rasmlar, qishki o‘yinlar va sport turlari haqida ma’lumotlar, test topshiriqlari.

*Dars metodlari.* Hamkorlik metodi, aqliy hujum, rolli o‘yin.

*Darsdan erishiladigan BKM natijalari:* O‘quvchi o‘zbek tilidagi jamlovchi sonlar haqida nazariy bilimga ega bo‘ladi, ularda ushbu sonlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalari va yangi yil mavzusida og‘zaki va yozma bog‘lanishli ifodalash malakalari shakllanadi.

### Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash	8 daqiqa
2. “Qish faslida” matni ustida ishlash (1-topshiriq, 1-mashq). Aqliy hujum.	10 daqiqa
3. Yangi grammatik qoida bayoni.	7 daqiqa
4. Grammatik qoidani mustahkamlash (2-5-mashqlar)	10 daqiqa
5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash (2-topshiriq). Hamkorlik metodi.	7 daqiqa
6. Darsni yakunlash, o‘quvchilarni baholash va uyga vazifa.	3 daqiqa

### Darsning borishi:

#### 1. Tashkiliy qism.



Uy vazifasi - R.Daminovning “Bo‘stonliq” she‘rini yod aytish so‘raladi. O‘quvchilardan she‘rdagi joy nomlari, Bo‘stonliqdagi tog‘lar haqida ham so‘rab o‘tgan dars takrorlab olinadi.

#### II. O‘tilgan mavzuni takrorlash.

O‘quvchilar diqqati darslikda berilgan rasmga qaratiladi yoki videolanva namoyish qilinadi hamda 1-topshiriqdagi savollar asosida “Aqliy hujum” metodida suhbat tashkil etiladi. So‘ngra “Qish faslida” matni ustida ishlanadi (1-mashq). Avval matn o‘qitiladi va matnda ajratib ko‘rsatilgan *uchovlari, ikkovi, to‘rtlamiz, o‘nlab* so‘zlariga e‘tibor qaratiladi.

### III. Grammatik mavzu bayoni.

### III. Yangi mavzu bayoni.

Ushbu darsda nutqda shaxs va narsa-buyumlarning jami miqdorini ko'rsatishda jamlovchi sonlardan foydalanilishi, jamlovchi sonlar ikkidan o'ngacha bo'lgan sonlarga *-ov, -ovlon, -ala* qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinishi, jamlovchi sonlarning, odatda, egalik qo'shimchalari bilan birgalikda qo'llanishi, egalik qo'shimchalari *-ov, -ovlon, -ala* qo'shimchalaridan keyin qo'shilishi haqida ma'lumot beriladi.

IV. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 2-5-mashqlarni bajartirish ko'zda tutilgan. Ushbu mashqlar tadrijiy o'sish tamoyilida tuzilgan bo'lib, bunda 2-mashq egallangan bilimni mustahkamlashga, 4-5-mashqlar ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar avval berilgan sonlarga jamlovchi sonlarni hosil qiluvchi qo'shimchalarni qo'shib yozishni (2-mashq), so'ngra qavs ichida berilgan jamlovchi sonlardan birini tanlab olishni (3-mashq), keyin esa jamlovchi sonni o'zlari mustaqil topib, gap tarkibida qo'llashni (4-5-mashqlar) mashq qiladilar.

V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash uchun 2-topshiriq bajartiriladi. O'quvchilar avval matnni ichlarida o'qiydilar va suhbatda necha kishi ishtirok etganini aniqlaydilar. So'ngra suhbat matni rollarga bo'lib o'qitiladi va hamkorlikda davom ettiriladi.

VI. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa topshirish. *Uyga vazifa:* Yangi yilni qanday kutib olish va qishki ta'tilni qanday o'tkazish rejasini tuzib kelish.

## 30-DARS

*Darsning ta'limiy maqsadi.* O'quvchilarga jamlovchi sonlarning yasalishi va qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

*Darsning tarbiyaviy maqsadi.* O'quvchilarni qish faslida tabiatda yuz beradigan o'zgarishlarni kuzatishga o'rgatish, ularga qishki o'yinlarning jamoa bo'lib o'ynalishini singdirish, ahil jamoa bo'lib yashashga intilish tuyg'ularini kuchaytirish.

*Darsning jihozlanishi.* Darslik, yangi yil archasi rasmi, videolavha, audiomatn, BBB kartochkalari.


*Darsda qo'llanadigan metodlar.* Noan'anaviy, hamkorlik metodi, aqliy hujum, rolli o'yin, BBB usuli.

*Darsdan erishiladigan BKM natijalari:* O‘quvchi jamlovchi sonlar, ularni hosil qiluvchi qo‘shimchalar haqida nazariy bilimga ega bo‘ladi, ularda ushbu sonlarni og‘zaki va yozma nutqda amaliy qo‘llash ko‘nikmalari va yangi yil mavzusida suhbatlasha olish malakalari shakllanadi.

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash 3 daqiqa
2. “Yangi yil rejasi” matni ustida ishlash (3-topshiriq, 6-mashq). Guruhlarga bo‘linib ishlash. Noan’anaviy metod. 15 daqiqa
3. Yangi grammatik qoida bayoni. Aqliy hujum. 7 daqiqa
4. Grammatik qoidani mustahkamlash (7-8-mashqlar) 10 daqiqa
5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash (4-topshiriq). Adabiy o‘qish. “Yangi yil qo‘shig‘i”ni kuylash. Hamkorlik metodi. 7 daqiqa
6. Darsni yakunlash va test topshiriqlari yordamida o‘quvchilarni baholash, uyga vazifa. 3 daqiqa

**1. Tashkiliy qism.** Yo‘qlama va uy vazifasini so‘rash.

**2. Yangi nutqiy mavzu bayonini** archa haqidagi she‘rni ifodali o‘qitish va berilgan tayanch so‘zlar (3-topshiriq) hamda rasm asosida suhbat tashkil etishdan boshlanadi. O‘quvchilar tuzgan gaplar biri-birining davomi bo‘lishi va archa, yangi yil bayrami haqida bog‘lanishli matn hosil qilinishi ko‘zda tutiladi. So‘ngra “*Yangi yil rejasi*” matni o‘qitiladi va berilgan savol asosida matn og‘zaki davom ettiriladi. O‘quvchilar yangi yilni qanday kutib olish rejalari haqida so‘zlab beradilar.



Darsning ushbu bosqichini noan’anaviy tarzda tashkil etish ham mumkin. Buning uchun o‘quvchilar o‘zlari tanlab olgan yulduzchalar asosida guruhlariga birlashadilar. Yulduzchalarda *archa*, *qor bobo*, *qor qiz*, *yangi yil* rasmlari yopitirilgan yoki so‘zlari yozilgan bo‘lib, shu tayanch so‘z asosida har bir guruh kichik hikoya, ertak yoki she‘r to‘qib aytib beradi.

**3. Yangi grammatik ma'lumot bayonidan** avval o'quvchilar diqqati 6-mashqda ajratib ko'rsatilgan *ikkovlari, uchalamiz, oltovimizga, uchovimizga* so'zlariga qaratiladi. O'quvchilar jamlovchi olmoshlarga savol beradilar, ushbu so'zlarning yasalishini tahlil qiladilar. O'qituvchi jamlovchi olmoshlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanib kela olishi, bunda ushbu olmoshlarga beriladigan so'roqlar va ularning gapda bajaradigan vazifalari to'g'risida ma'lumot beradi.

**4. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash** uchun 7-8- mashqlar yozma bajartiriladi. O'quvchilar nuqtalar o'rniga mos jamlovchi sonlarni qo'yib, matnni to'ldirib yozadilar. Buning uchun o'quvchilar gapda ifodalangan harakatni nechta shaxs bajarishini aniqlashi va shunga mos jamlovchi sonni yozishlari darkor. Bunday mashqlar o'quvchilarni mustaqil mantiqiy fikrlashga va topqirlikka o'rgatadi, grammatik bilimlarni amaliy qo'llash malakalarini shakllantiradi.

5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash uchun **berilgan 4- topshiriqdagi savollarni 4 guruhga taqsimlab beriladi hamda quyidagi maqollar ham har bir guruhga bittadan tarqatiladi. Guruh a'zolari ularni o'qib, ma'nolarini tushuntirib berishlari va qo'llangan sonlar haqida ma'lumot berishlari kerak.**

1. *Yangi yil bayramini kimlar bilan (jami necha kishi) nishonlamoqchisiz?*

Izohlang: *O'nta bo'lsa, o' rni boshqa, qirqta bo'lsa qiligi.*

2. *Yangi yil bayramiga kimlar bilan qanday tayyorgarlik ko'ryapsiz?*

Izohlang: *Ikki yorti – bir butun.*

3. *Qishki ta'tilda kimlar bilan (jami necha kishi) qayerga bormoqchisiz?*

Izohlang: *Yetti marta o'lchab, bir marta kes.*

4. *Ta'til kunlarida yana nimalar qilishni rejalashtiryapsiz?*

*Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa , unmagani undirar. to'rtovlon tugal bo'lsa, yo 'nmaganni yo 'ndirar.*

So'ngra adabiy o'qish uchun berilgan "**Yangi yil qo'shig'i**" she'rini ifodali o'qitish, audiasma yordamida qo'shiqni tinglash va birgalikda kuylash ko'zda tutiladi (5- topshiriq).

6. Darsni yakunlash jarayonida o'quvchilarga quyidagi test topshiriqlarini tarqatish ularning bilim-malakalarini aniqlash imkonini beradi.

Uyga vazifa: Qo'shiq matnini yod olish.

### **31- DARS. NI – 4. Test sinovi.**

### **32- DARS. Takrorlash.**

## **9-MAVZU. QADIMIY VA NAVQIRON SHAHARLAR (Ozaytirma darajadagi sifatlarning qo'llanishi)**

### **1-DARS**

***Darsning ta'limiy maqsadi.*** O'quvchilarga sifatlarning ozaytirma darajasini hosil qiluvchi qo'shimchalar, sifatlarning ozaytirma qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

***Darsning tarbiyaviy maqsadi.*** O'quvchilarni qadimiy va navqiron shaharlarimiz haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, ularda qadimiy obidalarimiz bilan faxrlanish, g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otish.

***Darsning jihozlanishi.*** Darslik, qadimiy shaharlarimiz, Samarqanddagi Registon maydoni, zamonaviy binolar, mashinasozlik zavodlari haqida videolavha yoki rasmlar, slaydlar.

***Darsda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar.*** Aqliy hujum, guruhlariga bo'linib ishlash, klaster, BBB usullari.

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1.	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash	8 daqiqa
2.	1-topshiriqdagi savollar asosida suhbat va Samarqand matni ustida ishlash (1-mashq).	10 daqiqa
3.	Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi.	8 daqiqa
4.	Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (2- va 3-mashqlar mashqlar).	7 daqiqa
5.	Nutqiy malakalarini mustahkamlash (2-topshiriq va 4- mashq). Klaster, guruhlariga bo'linib ishlash.	10 daqiqa
7.	O'quvchilarni baholash va uyga vazifa.	2 daqiqa

#### ***Darsning borishi:***

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash. O'quvchilarga "Kitob o'qishning hikmati" hikoya qildiriladi. Asarda qo'llangan gumon olmoshlari, ularning yasalishi bo'yicha qo'shimcha savollar berib, o'quvchilarning egallagan bilim-ko'nikmalari baholanadi. Bunda asosiy e'tibor buyuk Ibn Sinoning kitob mutoalasini qanchalik yaxshi ko'rganiga qaratilish kerak.



2. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilar diqqati darslikdagi 1-topshiriqqa qaratiladi. Aqliy hujum metodidan foydalanib, berilgan savollar, darslikda berilgan rasm yoki videolavha asosida qadimiy shaharlarimiz haqida o‘quvchilar bilan suhbat tashkil etiladi. So‘ngra **1-mashqdagi** matn o‘qitiladi va ajratib ko‘rsatilgan **salobatliroq, ko‘kish, sarg‘ish, qizg‘ish** so‘zlariga o‘quvchilar diqqatini jalb qilish orqali grammatik qoidani tushuntirishga o‘tiladi.

3. Yangi grammatik ma‘lumot - **ozaytirma darajadagi sifatlarning qo‘llanishini** tushuntirishda quyidagi slayddan foydalanish tavsiya etiladi:

1-slayd

Sifat darajalari

<b>Oddiy daraja</b>	<b>Qiyosiy daraja</b>	<b>Ozaytirma daraja</b>
qizil	qizilroq	qizg‘ish
katta	kattaroq	
qora	+roq qoraroq	qoramtir
pushti	pushtiroq	
kichik	kichikroq	
sho‘r	sho‘rroq	

O‘qituvchi o‘quvchilarga sifatlarda ozaytirma darajaning **-mtir, -imtir, -ish** qo‘shimchalarini qo‘shish yordamida hosil qilinishi, shuningdek, **-roq** affiksi yordamida hosil qilinadigan qiyosiy daraja ham belgining ozaytirma shaklini ifodalashini misollar vositasida tushuntiradi. Bunda qo‘shimchalar qo‘shilganda yuz beradigan ayrim tovush o‘zgarishlarini doskaga yozib alohida tushuntirish maqsadga muvofiq: *sariq+ish – sarg‘ish, qizil+ish- qizg‘ish* kabi.

4. Grammatik ma‘lumotni mustahkamlash uchun darslikdagi **2- va 3-mashqlar** yozma bajaritiladi. Bunda o‘quvchilarning 2-mashqni berilgan namuna asosida bajarishlari, 3-mashqda esa nuqtalar o‘rniga quyidagi sifatlarni qo‘yib so‘z birikmalari tuzishlari ko‘zda tutilgan:

<i>baland minora</i>	<i>hashamatli bino</i>	<i>eski shahar</i>
<i>moviy osmon</i>	<i>mustahkam qal‘a</i>	<i>tosh ko‘cha</i>
<i>qadimiy obida</i>	<i>muhtasham qasr</i>	<i>mashhur madrasa</i>
<i>keng maydon</i>	<i>muqaddas maqbara</i>	<i>go‘zal mehmonxona</i>

5. 2-topshiriq va 4-mashq o‘quvchilarning nutqiy malakalarini mustahkamlashga qaratilgan. 2-topshiriqdagi savollarga javob berishni tarmoqlangan klaster usulidan foydalanish mumkin.

Tarmoqlangan klaster namunasi

Samarqand obidalari

Registon maydonidagi madrasalar

Ushbu madrasalarda tahsil olganlar



- |                             |                     |
|-----------------------------|---------------------|
| 1. Mirzo Ulug‘bek madrasasi | 1. Alisher Navoiy   |
| 2. Sherdor madrasasi        | 2. Abdurahmon Jomiy |
| 3. Tillakori madrasasi      | 3. Ali Qushchi      |

Samarqanddagi yana boshqa obidalar

- |               |              |              |
|---------------|--------------|--------------|
| 5. Go‘ri Amir | 2. Bibixonim | 3. Rasadxona |
|---------------|--------------|--------------|

Ular kimlar tomonidan qurilgan?

Amir Temur	Amir Temur	Mirzo Ulug‘bek
------------	------------	----------------

Bunda o‘quvchilardan 1-mashqdagi ma’lumotlardan va foydalanish uchun berilgan so‘zlardan foydalanishlari ham ko‘zda tutiladi. Mashq va topshiriqlarni bajarishda avval o‘tilgan ma’lumotlarga murojaat qilib turish o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga, ularni e’tiborli bo‘lishga o‘rgatadi. So‘ngra o‘quvchilar diqqati darslikdagi rasmlarga qaratiladi va tarixiy Samarqanddan zamonaviy Samarqandga yo‘naltiriladi. Guruhlarga bo‘linib ishlash tashkil etiladi. O‘quvchilar 2 guruhga ajratiladi. 1- guruh 1-matnni, 2-guruh 2-matnni o‘qib, rasm asosida davom ettiradilar.

6. Darsni yakunlash. BBB usulida o‘quvchilarning bilim va malakalari aniqlanadi va baholanadi. So‘ngra matnlarni to‘ldirish va “*Qadimiy va navqiron Samarqand*” mavzusida ijodiy matn tuzish uyga vazifa sifatida topshiriladi.

## 2-DARS

***Darsning ta’limiy maqsadi.*** O‘quvchilarga sintaktik usul bilan sifatlarning ozaytirma darajasini hosil qilish, ushbu so‘zlarning qo‘llanishi haqida ma’lumot berish.

***Darsning tarbiyaviy maqsadi.*** O‘quvchilarda mustaqillik yillarida shaharlarimizda bo‘lgan o‘zgarishlar, respublikamiz viloyatlari va shaharlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini tarbiyalash.

***Darsning jihozlanishi.*** Darslik, Buxorodagi Minorai kalon, Ark rasmlari (yoki videolavhalar), A.Oripovning “*Dehqonbobo va 12 bolakay*”, Safar Barnoyevning “*Minora*” she’rlari, slaydlar.

***Darsda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar.*** Guruhlarga bo‘linib ishlash, “Zanjir” usuli, “Taqqimot” o‘yini, BBB usuli.

T/r	Dars rejayi	Vaqt
1.	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash	7 daqiqa
2.	Safar Barnoyevning “ <i>Minora</i> ” she’ri, rasmlar yoki videolavha ustida ishlash (1-topshiriq).	6 daqiqa
3.	Grammatik qoida bilan tanishtirish. 2-slayd namoyishi.	5 daqiqa

4.	Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (5-7-mashqlar va 4-5-topshiriqlar).	10 daqiqa
5.	Adabiy o'qish. "Dehqonbobo va 12 bolakay" she'rini "Zanjir" usulida ifodali o'qitish. "Taqdimot" o'yinini tashki qilish (5-topshiriq).	15 daqiqa
7.	O'quvchilarni baholash va uyga vazifa.	2 daqiqa

### Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash. O'quvchilar "Qadimiy va navqiron Samarqand" mavzusida tuzgan ijodiy matnlarini o'qib beradilar.

2. O'qituvchi qadimiy va navqiron shaharlarimizdan yana biri Buxor ekanligini eslatib, Safar Barnoyevning "Minora" she'rini ifodali o'qitadi va o'quvchilar diqqatini Buxoro shahridagi Minorai kalon, Ark me'moriy obidalar rasmiga (yoki videolavhasiga) jalb qiladi. Ushbu tasvirlarni ta'riflashda sifat va uning daraja shakllaridan foydalanishga harakat qilish kerak. Jumladan, quyidagi kabi savollar berish orqali o'quvchilarni she'r mazmuniga olib kirish kerak:

*Shoir minorani tasvirlashda qanday so'zlar va birikmalardan foydalangan?*

*Javob: ulkan minora, gard qo'nmagan toshiga, qaramoqchi bo'lsang unga-do'pping tushar boshingdan, uzoqlardan ham ko'zga tashlanadi.*

*Siz bu minorani o'z so'zlaringiz bilan qanday ta'riflaysiz?*

*Javob: Juda ham baland, bundan balandroq minora bo'lmasa kerak.*

.....

3. So'ng o'qituvchi sifatlarning ozaytirma darajasi sintaktik usul – maxsus so'zlar vositasida yasalishi ham mumkinligini bayon etadi va o'quvchilar e'tiborini darslikdagi qoidaga hamda 2-slayd namoyishiga qaratadi.

2-slayd

### Sifat darajalari

#### Oddiy daraja

#### Qiyosiy daraja

#### Ozaytirma daraja

qizil	} +roq	qizilroq	qizg'ish	sal qizil
katta		kattaroq		picha katta
qora		qoraroq	qoramtir	biroz qora
pushti		pushtiroq		nim pushti
kichik		kichikroq		ozgina kichik
sho'r		sho'rroq		jindak sho'r

4. Mavzuni mustahkamlash uchun 5-7-mashqlar va 4-va 5-topshiriqlar bajartiriladi. 5-mashq avval og'zaki o'qitiladi. So'ngra o'quvchilar matndagi ma'lumotlardan foydalanib, qaysi shahar necha yoshdaligini yozadilar. Ushbu ma'lumotlarni 4-topshiriqda amaliy qo'llab, amaliy nutqiy ko'nikmalarini mustahkamlaydilar. 7-mashq va 5-topshiriq ham o'quvchilarning ham nutqiy, ham grammatik bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan.

5. Adabiy o'qish materiali sifatida berilgan Abdulla Oripovning "Dehqonbobo va 12 bolakay" she'rini "Zanjir" usulida ifodali o'qitish va she'r asosida 5-topshiriqdagi "Taqdimot" o'yinini tashki qilish darsning tarbiyaviy-ta'limiy

maqsadiga erishishga katta yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish va har bir guruhga bittadan shahar taqdimotini topshirish kerak. Guruh a'zolari 10 daqiqa ichida shu shaharning tarixi va hozirgi holati haqida ma'lumot taqdim qilishlari kerak.

6. BBB usuli bo'yicha tarqatilgan kartochkalarni o'qitish va o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni baholash. Bunda ushbu kartochkalarining quyidagi tarzda to'ldirilishi ko'zda tutiladi:

Bilmas edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman
Sifatlarning daraja shakllarini	1. Belgi bildiruvchi so'zlarni 2. Sifatning oddiy va ozaytirma darajasini 3. <i>-mtir, -mtir, -sh, -ish</i> qo'shimchalarini 4. <i>Och, nim, sal, sag 'al, xiyol, picha, jindak</i> so'zlarini qo'llashni	Orttirma darajani

**Uyga vazifa.** O'z shahri yoki qishlog'i tarixi, u yerdagi qadimiy yodgorliklar haqida ijodiy matn tuzib kelish.

## 15-MAVZU. SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK (*Haqida, to'g'risida ko'makchilarining ishlatilishi*)

### 1-DARS

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarda *haqida, to'g'risida ko'makchilarining ishlatilishi* bo'yicha ma'lumot berish, ularda ushbu ko'makchilarni nutq jarayonida qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarga salomatlik – tuman boylik ekanligini uqtirish, ularni yoshlikdan salomatlikni asrab-avaylashga, sog'lom turmush tarzini kechirishga undash.

**Darsning jihozlanishi.** Darslik, P. Mo'minning "*Ibn sino bobo – ulashar davo*" she'ri, "*Sport – salomatlik garovi*", "*Sog'lom turmush tarzi*" matnlari, BBB kartochkalari.

**Darsda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar.** Hamkorlik metodi, "*Zanjir*", "*Aqliy hujum*" metodlari, guruhlariga bo'linib ishlash, BBB usuli.

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1.	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va ash.	7 daqiqa

2.	Kirish suhbat. Rasm va berilgan savollar asosida o‘zaro suhbatlashish (1-topshiriq). Aqliy hujum.	10 daqiqa
3.	Nutqiy mavzu. “ <i>Salomatlik – tuman boylik</i> ” matni ustida ishlash (1-mashq, 2-topshiriq).	10 daqiqa
4.	Grammatik ma’lumot. <i>Haqida, to‘g‘risida</i> ko‘machilari.	5 daqiqa
5.	Mavzuni mustahkamlash. “ <i>Sog‘lom turmush tarzi</i> ” matni (2-mashq) va “ <i>Ibn sino bobo – ulashar davo</i> ” she’ri ustida ishlash (3-topshiriq)	10 daqiqa
6.	Darsni yakunlash, o‘quvchilarni baholash (BBB usuli), uyga vazifa.	3 daqiqa

### Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash.

2. Rasm asosida suhbatlashish (1-topshiriq). Aqliy hujum. O‘quvchilar berilgan gaplar qaysi rasmlarga mos kelishini aytishlari va o‘z fikrlarini isbotlash uchun shu mavzuda bir nechta gaplar tuzib, salomatlik uchun nimalar zarurligi haqida fikr bildirishlari kerak.

3. Ushbu kirish suhbatidan so‘ng o‘qituvchi bugungi nutqiy mavzu salomatlik haqida ekanligini aytadi va o‘quvchilarga 1-mashqdagi “*Salomatlik – tuman boylik*” matnini o‘qitadi. O‘quvchilar matni o‘qib, sog‘lom bo‘lish uchun nimalarga e’tibor berish kerakligini aniqlaydilar. So‘ngra 2-topshiriqdagi savollar asosida savol-javob o‘tkaziladi.

4. Yangi grammatik mavzu bayonida avval o‘quvchilar e’tibori 2-topshiriqdagi savollarda ajratib ko‘rsatilgan *haqida, to‘g‘risida* so‘zlariga qaratiladi. O‘qituvchi yaangi axborot berishda *haqida, to‘g‘risida* yordamchi so‘zlaridan foydalanilishi, ushbu so‘zlar yordamchi so‘zlar ekanligi, ular o‘zbek tilida ko‘makchilar deb atalishi va o‘zi bog‘langan so‘z bilan bitta savolga javob berishini misollar vositasida tushuntiradi.

5. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun 2-mashqda berilgan “*Sog‘lom turmush tarzi*” matni ustida ishlanadi. O‘quvchilar ushbu matnda nima haqida fikr yuritilganini aniqlaydilar va 3-mashqni namuna asosida yozma bajaradilar. Bu topshiriqni doskada bajartirish maqsadga muvofiq. O‘quvchilar sog‘lom turmush tarziga mos va zid odatlarni o‘zaro qiyoslab, har ikkisidan kelib chiqadigan oqibatlarni quyidagi ikki ustunga ajratib yozadilar:

**Sog‘lom turmush**

---



---

**Nosog‘lom turmush**

---



---

Buni guruhlar musobaqasi sifatida tashkil etish ham mumkin. Topshiriq bajarib bo‘lingach, o‘qituvchi fikrlarni umumlashtirish va o‘quvchilarga yoshlikdan sog‘lom turmush tarzini kechirishga odatlanish kerakligini, buni, avvalo, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishdan boshlash zarurligini uqtiradi.

5. *“Ibn sino bobo – ulashar davo”* (3-topshiriq) she’ri ifodali o‘qitiladi va mazmuni – she’r nima haqida ekanligi so‘zlatiladi. Olingan xulosalarni 3-mashqdagi ustunlarga yozdirib qo‘yish ham mumkin. She’rni yod olish va Ibn Sino bobomiz haqida ma’lumot yozib kelish uyga vazifa sifatida topshiriladi.

6. Dars yakunlanadi, BBB kartochokalari to‘ldiriladi va o‘quvchilar baholanadi.

## **2-DARS**

***Darsning ta’limiy maqsadi.*** O‘quvchilarda *haqida, to‘g‘risida* ko‘makchilarini nutq jarayonida qo‘llash, yangi ma’lumotni so‘rab bilib olish malakalarini hosil qilish.

***Darsning tarbiyaviy maqsadi.*** O‘quvchilarni shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish, salomatlikka zarar keltiradigan odatlardan saqlanish kerakligini uqtirish, ularni salomatliklarini yoshlikdan asrab-avaylashga chaqirish.

***Darsning jihozlanishi.*** Darslik, Rauf Subxonning *“Tushki ovqat”* hikoyasi, *“Shaxsiy gigiyena qoidalari”*, *“Uyali aloqa haqida”* matnlari, BBB kartochokalari.

***Darsda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar.*** *“Zanjir”*, *“Aqliy hujum”* metodlari, guruhlarga bo‘linib ishlash, rolli o‘yin, BBB usuli.

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1.	<b>Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash.</b>	7 daqiqa
2.	O‘tilgan mavzuni takrorlash <i>“Shaxsiy gigiyena qoidalari”</i> matni ustida ishlash (4-mashq, 4-topshiriq). <i>“Zanjir”</i> , <i>“Aqliy hujum”</i> metodlari.	10 daqiqa
3.	Nutqiy mavzuni mustahkamlash. <i>“Uyali aloqa haqida”</i> matni ustida ishlash (4-mashq).	10 daqiqa
4.	Guruhlarga bo‘linib maqollar ustida ishlash (6-topshiriq).	7 daqiqa
5.	Adabiy o‘qish. Rauf Subxonning <i>“Tushki ovqat”</i> hikoyasi. Rolli o‘yin.	8 daqiqa
6.	Darsni yakunlash, o‘quvchilarni baholash (BBB usuli), uyga vazifa.	3 daqiqa

### **Darsning borishi**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash. O‘quvchilar shoir P. Mo‘minning *“Ibn sino bobo – ulashar davo”* she’rini yod aytib beradilar, Ibn Sino haqida yozib kelgan ma’lumotlarini o‘qib beradilar.

2. O‘tilgan mavzuni takrorlash. O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini 4-mashqda berilgan “*Shaxsiy gigiyena qoidalarini*” matniga qaratadi. O‘quvchilar matni o‘qiydilar va unda nima haqida fikr yuritilganini aytib beradilar. Ushbu mashqni bajarishda “*Zanjir*”, “*Aqliy hujum*” metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. So‘ngra 4-topshiriq bajartiriladi. Ushbu topshiriq 3-mashqni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar berilgan javoblarni o‘qib chiqadilar va matn mazmunidan foydalanib ushbu javoblarga mos savollar tuzadilar. Savol tuzish jarayonida o‘quvchilarda *haqida, to‘g‘risida* ko‘makchilarini amaliy qo‘llash ko‘nikmalari hosil qildirib boriladi.

3. Nutqiy mavzuni mustahkamlash uchun “*Uyali aloqa haqida*” matni ustida ishlanadi (4-mashq). O‘quvchilarga matn o‘qitiladi, so‘ngra ularning diqqati darslikdagi rasmga, uyali telefon bilan muloqotlarga qaratiladi va bu holatlarga o‘z munosabatlarini bildirish so‘raladi. Bahs-munozaradan so‘ng 5-topshiriq asosida uyali telefonning foydali va zararli tomonlarini ikki ustunga ajratib yozish topshirig‘i beriladi.

4. Guruhlarga bo‘linib ishlash. Maqollarni o‘qish va mazmunini tushuntirish (6-topshiriq). Buning uchun o‘quvchilarni 4 guruhga bo‘lish va har bir guruhga bittadan maqolni sharhlab berishni topshirish maqsadga muvofiq.

1-guruh. Sog‘ tanda – sog‘lom aql.

2-guruh. Sog‘liging – boyliging.

3-guruh. Salomatlik – tuman boylig.

4-guruh. El sog‘ligi – yurt boyligi.

5. Adabiy o‘qish. Rauf Subxonning “*Tushki ovqat*” hikoyasi ustida ishlash. Dars jarayonida hikoyani rolli o‘qitish, so‘ngra uning mazmunini so‘zlatish maqsadga muvofiq.

6. Darsni yakunlash, BBB kartochkalarini o‘qitish, darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni baholash. **Uyga vazifa.** Hikoyani qayta so‘zlab berish. “*Salomatlik – tuman boylig*” mavzusida ijodiy matn tuzish.

## 7-SINF. I CHORAK

### II MAVZU. KUCH - BILIMDA (2 soat) (Shaxs otlarining yasalishi va qo‘llanishi)

#### 1-DARS

**Darsning ta’limiy maqsadi.** O‘zbek tilida shaxs otlarining yasalishi va qo‘llanishi haqida ma’lumot berish, berilgan grammatik qoidani mashqlar vositasida mustahkamlash.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O‘quvchilarni bilim olishga chaqirish, ilmning foydasi, jamiyatni rivojlantiruchi kuch bilimda ekanligini ta’kidlash.

**Darsning jihozlanishi.** I. Karimovning “*Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch*” asari, Hamid Olimjonning asarlar to‘plami, rasmlar, she’rlar, slayd.

**Darsda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar.** Hamkorlik metodi, "Aqliy hujum", "Klaster" metodlari, juftlikda ishlash.

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash	8 daqiqa
2	Rasmlar va 1- va 2-topshiriq asosida suhbat	10 daqiqa
3	Grammatik qoida bilan tanishtirish (slayd namoyishi)	8 daqiqa
4	Grammatik mavzuni mustahkamlash (2-4-mashqlar, "Klaster" metodi)	12 daqiqa
5	Nutqiy malakani mustahkamlash (dialogik suhbat )	5 daqiqa
6.	O'quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa.	2 daqiqa

### **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash.

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. O'quvchilar diqqati darslikdagi rasmlarga qaratiladi, S. Fayzullaevaning she'ri ifodali o'qitiladi va 1- topshiriqda berilgan tayanch so'zlar va birikmalar asosida o'quvchilarga gaplar tuzdiriladi va mustaqillik bayrami haqida suhbat tashkil qilinadi.

*Tayanch so'zlar:* yangi maktab, turli fanlar, o'qituvchilar, sinfdoshlar, ilm o'chog'i, sevinmoq, egallamoq.

So'ngra 2-topshiriq bajartiriladi. O'quvchilar o'z maktablari, yangi o'quv yilida bo'lgan o'zgarishlar haqida so'zlab beradilar, ular bu yil o'qiydigan yangi fanlar haqida suhbatlashiladi.

Shunday tayyorgarlikdan so'ng, o'qituvchi darslikdagi yurtboshimiz I. Karimovning "*Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch*" asaridan berilgan parchani o'qib beradi va o'quvchilar e'tiborini matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga va 3-topshiriqdagi savollarga qaratadi. O'quvchilar bilan "*Maktab ko'rgan*", "*maktab yaratgan*" iboralarining ma'nolari, o'qituvchilik va murabbiylik kasblari bilim va tarbiya bergani uchun sharaflanishi, ilm davlat va jamiyat taraqqiyotining bosh omili bo'lgani uchun ham o'qituvchilikning nihoyatda muhim o'rin tutishi haqida suhbat o'tkaziladi. Bunda "Aqliy hujum" metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

3. Grammatik qoida bilan tanishtirish. Ushbu darsda shaxs otlarining atoqli va turdosh bo'lishi, turdosh otlar insonlarning kasbini bildirib kelishi va kichik harf bilan yozilishi, ular tub va yasama bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumot beriladi. So'ngra quyidagi slaydni namoyish etadi va o'quvchilarni yasama shaxs otlarini yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtiradi:

### **Yasama shaxs otlari va ularni yasovchi qo'shimchalarni bilib oling!**

-chi	-kor	-bon	-soz	-shunos	-paz
ishchi	paxtakor	bog'bon	soatsoz	tilshunos	oshpaz
-gar	-dor	-do'z	-boz	-kash	-dosh
zargar	chorvador	etikdo'z	dorboz	chizmakash	sinfdosh

4. Mavzuni mustahkamlash uchun 2-mashqni “Klaster” usulidan foydalanib bajartirish, buning uchun doskani 2 qismga ajratish (“Tub shaxs otlari” va “Yasama shaxs otlari”), o‘quvchilar tub va yasama shaxs otlarini aniqlash, yasama shaxs otlarini esa yasovchi qo‘shimchalariga ko‘ra guruhlash yaxshi natija beradi. Bunda darslikdan tashqari misollardan foydalanish ham mumkin. Ushbu mashqni quyidagicha bajartirilishi ko‘zda tutiladi:

***Tub shaxs otlari***

*dehqon  
farrosh  
tabib  
shoir  
hamshira*

***Yasama shaxs otlari***

*o‘qituvchi san'atkor huquqshunos soatsoz chizmakash  
sportchi shifokor tilshunos kemasoz  
aloqachi havaskor o‘lkashunos  
haydovchi sohibkor  
qo‘shiqchi savdogar kabi.*

Bu ro‘yxatni 3-mashqdagi shaxs otlari hisobiga kengaytirib borish ham mumkin. 3-va 4-mashqlarda topshiriqlar rivojlantirib boruvchi tamoyil asosida tuzilgan bo‘lib, 3-mashqda o‘quvchilarga H. Olimjonning “O‘zbekiston” she’ridan berilgan parchadagi har bir shaxs otiga ma’nodosh so‘larini topib yozishi, 4-mashqda esa berilgan so‘zlardan shaxs otlari hosil qilish, so‘ngra har bir shaxs otining ma’nosini namunadagidek izohlab yozish topshiriqlari qo‘yilgan.

*Namuna:* Tarbiya – tarbiyachi (tarbiya ishi bilan shug‘ullanadigan shaxs)

5. Darsning ushbu bosqichi egallangan bilimlarni nutqda amaliy qo‘llash malakasini tekshirishga qaratiladi. Buning uchun o‘quvchilar juftliklarga ajratilib, 4-topshiriqdagi suhbat matni rollarga bo‘lib o‘qitiladi. O‘quvchilar berilgan savollar asosida suhbatni davom ettiradilar. Ushbu oxirgi topshiriqdan so‘ng o‘quvchilar bilimi baholanadi

6. Dars yakunlanadi va uyga vazifa beriladi: “Men yoqtirgan kasb” mavzusida ijodiy ish yozish.

## **2-DARS**

***Darsning ta’limiy maqsadi.*** Dialogik va monologik nutqlar vositasida Shaxs otlarining qo‘llanishini mustahkamlash.

***Darsning tarbiyaviy maqsadi.*** Donolarning ilm haqidagi fikrlari bilan tanishtirish, inson o‘z aql-idroki, bilimi bilan barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qodir ekanligini uqtirish.

***Darsning jihazlanishi.*** I. Karimovning “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” asari, Hamid Olimjonning asarlar to‘plami, rasmlar, audioakasseta, she’rlar, grammatik slayd.

***Darsda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar.*** Hamkorlik metodi, “Aqliy hujum”, “Zanjir”, “BBB” metodlari, lug‘at diktant.

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rab baholash. Lug‘at diktant o‘tkazish.	8 daqiqa
2	Audiokasseta vositasida suhbat matnini tinglash va rolli ijro etish	7 daqiqa



3	Monologik nutq ko'nikmalarini mustahkamlash (5-mashq)	10 daqiqa
4	“ <i>Kuch - bilimda</i> ”matni va “ <i>Bilasizmi?</i> ” rukni ustida ishlash, «Aqliy hujum» metodidan foydalanish (7-topshiriqni og'zaki va 6-mashqni yozma bajartirish),“BBB” metodi	10 daqiqa
5	Adabiy o'qish. “ <i>Kitob-xazinalar kaliti</i> ” rivoyati ustida ishlash,“Zanjir” metodi	8 daqiqa
6.	O'quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa.	2 daqiqa

### ***Darsning borishi:***

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash va lug'at diktant o'tkazish. Buning uchun o'qituvchi tub va yasama shaxs otlarini aralash holda o'qiydi, o'quvchilar esa ularni turlarga ajratib yozib boradilar. So'ngra lug'at diktanti yozilgan varaqlar baholash uchun yig'ib olinadi.

2. Dialogik nutq ko'nikmalarini mustahkamlash. Darslikda berilgan rasmlarni kuzatish, so'ngra audiokassetaga yozilgan suhbatni eshittirish va 6-topshiriq asosida o'quvchilarni shu ohangda rolli ijro etishni tashkil etish.

3. Monologik nutq ko'nikmalarini mustahkamlash. O'quvchilarga 5-mashqda berilgan matnlarni o'qitib gapirtirish, so'ngra oxirgi abzasdagi savolga javob bergan holda suhbatni davom ettirish topshiriladi. Shaxs otlarini aniqlab, yasalishini tushuntirish so'raladi.

4. O'tilgan grammatik mavzuni mustahkamlash. Buning uchun “*Kuch - bilimda*” matni va “*Bilasizmi?*” rukni ustida ishlanadi. 7-topshiriqni og'zaki va 6-mashqni yozma bajartirish ko'zda tutiladi. «Aqliy hujum» metodidan foydalanib, “*Kuch - bilimda*” matnidagi har bir gapga savol tuzdirish, so'ngra 6-mashqda berilgan gaplarni davom ettirish o'tilgan grammatik mavzuni mustahkamlashga yordam beradi. “*Bilasizmi?*” ruknidagi har biri alohida maktab yaratgan qomusiy olimlar va ular asos solgan sohalar, fanlar nomini namunadagidek yozish yozma nutqni mustahkamlashga yordam beradi.

*Namuna:* Al-Xorazmiy algebra faniga asos solgan. Abu Rayhon Beruniy buyuk tarixchi, matematik va yershunos olim edi.

Ushbu topshiriqlardan so'ng “BBB” usulini qo'llab, o'quvchilar egallagan bilimlarni tekshirib olish mumkin. Buning uchun o'qituvchi 3 ustunga ajratilgan va “Bilar edim”, “Bilib oldim” va “Bilmoqchiman” deb yozilgan varaqlarni o'quvchilarga tarqatib chiqadi. O'quvchilar har bir ustunga o'z fikrlarini yozib beradilar. Bu o'quvchilar bilimini to'liq nazoratdan o'tkazish va yana nimalarga e'tibor qaratishni bilib olish imkonini beradi.

5. Adabiy o'qish uchun berilgan “*Kitob-xazinalar kaliti*” rivoyati “Zanjir” usulida ketlik-ketlik bilan o'qitiladi va topshiriqlar bajartiriladi.

6. *Uyga vazifa.* Donolarning ilm haqidagi fikrlarini o'qish va bilib olish.

### III MAVZU. DO‘STLAR DAVRASIDA (2 soat) (Otlarda *-gacha, -dagi* qo‘shimchalarinig qo‘llanishi)

#### 1-DARS

**Darsning ta'limiy maqsadi.** Otlarda *-gacha, -dagi* qo‘shimchalari to‘g‘risida ma’lumot berish, ushbu qo‘shimchalarni nutqda qo‘llash malakalarini mustahkamlash.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** Do‘stlik, o‘rtoqlik, birodarlik muhim insoniy fazilatlar ekanligi, ularning asosan maktab davrida shakllanishi, inson ko‘p do‘st orttirishga intilishi kerakligini uqtirish.

**Darsning jihozlanishi.** Do‘stlik haqidagi she’rlar to‘plami, rasmlar, entsiklopedik lug‘at.

**Darsda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar.** Hamkorlik metodi, «Aqliy hujum», «Klaster» metodlari.

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rab baholash	8 daqiqa
2	Nutqiy mavzu ustida ishlash: mustaqil tuzilgan gaplar tahlili, “ <i>Do‘stlik</i> ”, “ <i>Hasharda</i> ” matnlari, she’riy matn ustida hamkorlikda ishlash, “Aqliy hujum” va “Klaster” metodlari	15 daqiqa
3	Grammatik qoida ustida ishlash	5 daqiqa
4	Grammatik mavzuni mustahkamlash. 4-mashqni doskada yozma bajartirish. “ <i>Chin do‘stlar</i> ” matni va 6-topshiriqdagi maqollar ustida ishlash.	15 daqiqa
5	O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa.	2 daqiqa

#### **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rab baholash.

2. Berilgan suratlarni tavsiflash va “*Mening do‘stlarim*” mavzusida gaplar tuzish. Buning uchun darslikda berilgan quyidagi tayanch so‘zlardan foydalaniladi:

*Tayanch so‘zlar:* biz 5 o‘rtoq, baland, pastroq, qoramag‘iz, bug‘doyrang, oq-sariq; sodiq, mehribon, g‘amxo‘r, xushchaqchaq, kamgap; yayramoq, ishonmoq, yordam bermoq, faxrlanmoq. So‘ngra 1-mashq topshirig‘i bajartiriladi. O‘quvchilardan “Do‘stlik” matnini o‘qish, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nolarini o‘z so‘zlaringiz bilan tushuntirish so‘raladi. Bunda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar va birikmalarni doskaga alohida-alohida yozdirib, “Aqliy hujum” va “Klaster” metodlaridan foydalangan holda ularning ma’nolarini izohlatish va xulosalab borish kerak bo‘ladi. So‘ngra 2-mashqni o‘quvchilarning o‘zlariga yozma bajartirish mumkin. O‘quvchilar doskada yozilgan turli izohlar, bildirilgan fikrlardan foydalanib, qavs ichida berilgan savollarga mos javoblar topib, gaplarni to‘ldirgan holda daftarlariga yozadilar.

2-topshiriqda berilgan she'r va 3-mashqdagi "Hasharda" matni ham do'stlik mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, she'riy matnda do'stlarning birgalikda ahil, inoq bo'lib o'ynashlari haqida gap borsa, "Hasharda" matnida do'stlar mehnatda ham birga bo'lishlari kerakligi uqtiriladi. O'qituvchi bu ikki matndagi asosiy fikrlarni bir-biriga qiyoslab tushuntirishi va chinakam do'stlik aslida o'yin-kulguda emas, mehnatda, qiyinchilikda, mushkul ishlarni birgalikda yengishda bilinishini izohlab ketishi kerak.

3. Grammatik ma'lumot ustida ishlashdan avval o'quvchilar diqqat-e'tibori "Hasharda" matnida ajratib ko'rsatilgan hovlimiz**dagi**, so'rid**dagi**, Uchqung**gacha**, kechqurung**gacha** so'zlariga qaratiladi, so'ng darslikdagi qoida o'qitiladi va misollar vositasida tushuntiriladi.

4. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun 4-5-mashqlar yozma bajartiriladi. 4-mashqni doskada bajartirish maqsadga muvofiq. O'quvchilar berilgan so'z birikmalarini nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'yib yozadilar va har biri ishtirokida gaplar tuzib, ifodalanayotgan ma'nolarni izohlab boradilar. Mashqni quyidagicha bajartirish ko'zda tutiladi:

uydagi voqea	ertalabdan kechqurungacha
ko'ngil dagi gaplar	kattadan kichikkacha
maktab dagi darslar	o'quvchilardan o'qituvchilargacha
kitob dagi qoidalar	boshidan oxirigacha

So'ngra 5-mashqda berilgan "*Chin do'stlar*" matni o'qitiladi va 3-4 o'quvchiga so'zlatiladi. *-gacha, -dagi* qo'shimchalari qo'llangan so'zlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan ko'chirib yozish topshirig'i beriladi. Bu o'rinda matn mazmuniga katta e'tibor berish, o'quvchilar e'tiborini chinakam do'stlik qanday bo'lishi, do'stlikni qadrlash, do'st orttirishning ahamiyati masalalariga qaratish zarur. 3-topshiriqda berilgan do'stlik haqidagi maqollar mavzuni xulosalashga yordam beradi. O'quvchilar maqollarni o'z so'zlari bilan tushuntirishga harakat qiladilar. O'qituvchi o'quvchilar bildirgan fikrlarni jamlab, darsni yakunlaydi va darsda faol qatnagan barcha o'quvchilarni baholaydi.

5. Uyg'a vazifa: "*Mening do'stim*" mavzusida ijodiy ish yozib kelish. O'quvchilarga ijodiy ishlarida darslikda berilgan topshiriq asosida o'z do'stlarining qiyofasi, xarakterini tavsiflash, nima uchun uni do'st sifatida tanlaganlarini izohlab berishlari kerakligi tushuntiriladi.

## 2-DARS

**Darsning ta'limiy maqsadi.** Dialogik va monologik nutqlar vositasida otlarda *-gacha, -dagi* qo'shimchalarini nutqda qo'llash malakalarini mustahkamlash.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarga do'stlikning inson, jamiyat hayotida muhim o'rin tutishi, haqiqiy, chinakam do'stlik ko'p narsalarni yengib o'tishga qodirligi, inson faqat do'stlar davrasidagina o'zini baxtli his qilishini uqtirish.

**Darsning jihozlanishi.** Do'stlik haqidagi she'rlar to'plami, audiokasseta, rasmlar, entsiklopedik lug'at.

**Darsda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar.** Hamkorlikda ishlash, bahs-munozara metodlari, "*Eng, eng, eng...*" o'yini.

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rab baholash	7 daqiqa
2	Nutqiy mavzuni mustahkamlash (5-topshiriq asosida). Bahs-munozara metodi.	8 daqiqa
3	Guruhlarga bo‘linish va 6-topshiriq asosida “Eng, eng, eng...” o‘yinini tashkil etish.	10 daqiqa
4	“Haqiqiy do‘st” rivoyati ustida ishlash.	8 daqiqa
5	Adabiy o‘qish. E.Vohidovning “Do‘st bilan obod uying” she‘ri ustida ishlash.	10 daqiqa
6.	O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa. “Do‘st bilan obod uying” mavzusida ijodiy ish yozish	2 daqiqa

### **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rab baholash. O‘quvchilarga avval uyda yozib kelgan matnlari, so‘ngra 6-mashqda berilgan matn o‘qitiladi.

2. Nutqiy mavzuni mustahkamlash. Qiyofa va xarakterni tavsiflovchi so‘zlarni ajratib ko‘rsatish va tavsiflash so‘raladi. Shundan so‘ng 5-topshiriqni bajartirish ko‘zda tutiladi. O‘quvchilarga berilgan haqiqiy do‘stga berilgan quyidagi ta‘riflarni o‘qitish va ushbu topshiriqqa asosan qayd etilgan xususiyatlarni belgilib borish orqali o‘quvchilarni o‘ziga chetdan qarashga o‘ragatiladi, do‘st tutinishda nimalarga e‘tibor qaratish kerakligi uqtiriladi.

3. O‘quvchilarni guruhlarga ajratish va 6-topshiriq asosida “Eng, eng, eng...” o‘yinini tashkil etish. O‘yinda eng yaxshi sifatlarini ko‘p va to‘g‘ri sanab ko‘rsatgan guruh g‘olib bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar ma‘lumot uchun berilgan so‘zlar va so‘z birikmalaridan tashqari yana o‘zlari ham qo‘shimcha xislatlardan foydalanishlari mumkin. Ushbu ish turi do‘st tutinishda kim nimaga e‘tibor berishi, qaysi xislatni bosh mezon deb hisoblashi ayon bo‘ladi.

4. Mavzuni xulosalash bosqichida adabiy o‘qish materiali sifatida berilgan “Haqiqiy do‘st” rivoyati o‘qitiladi, 4-5 o‘quvchiga qayta hikoya qildiriladi. Rivoyat xulosasi sifatida aytilgan “do‘st tanlashda adashibsan” fikri va topshiriq sifatida berilgan “Aying-chi, ularni haqiqiy do‘stlar deyish mumkinmi?” savoli ustida bahs tashkil qilish maqsadga muvofiq.

5. Shoir E.Vohidovning “Do‘st bilan obod uying” she‘rini avval to‘liq ifodali o‘qitish, imkon bo‘lsa, qo‘shig‘ini qo‘yib eshittirish, so‘ng berilgan topshiriqqa ko‘ra o‘quvchilarga she‘r mazmunini o‘z so‘zlari bilan gapirtirish uchun satrma-satr ishlash maqsadga muvofiq. Ayrim satrlar, jumladan:

Do‘st qidir, do‘st top jahonda,

Do‘st yuz ming bo‘lsa oz.

Ko‘p erur bisyor dushman

Bo‘lsa u bir dona ham

kabi satrlar ma‘nosi qaysi maqolga to‘g‘ri kelishi, bu kabi maqollar o‘quvchilarning ona tilida ham bo‘lishi mumkinligi qayd qilinib o‘tilishi she‘r mazmunining puxta o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi.

6. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa. "Do'st bilan obod uying" mavzusida ijodiy ish yozish.

## V MAVZU. INSONIY FAZILATLAR (3 soat) (Qo'shma va juft otlarning yasalishi va qo'llanishi)

### 1-DARS

**Darsning ta'limiy maqsadi.** Qo'shma otlar, ularning yasalishi va imlosi haqida ma'lumot berish, nutqda qo'llanishi bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qildirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarga yaxshi xulq-odobga ega bo'lish har bir insonga xos xususiyat ekanligi uqtirish, ularni insoniy fazilatlarni egallashga chaqirish.

**Darsning jihozlanishi.** I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari, H.Olimjon, Shukrullo, "Xalq maqollari", "Hikmatlar xazinasi" to'plamlari, slaydlar.

**Darsda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar.** Hamkorlik texnologiyasi, "Aqliy hujum", "Klaster" metodlari, rolli o'yinlar.

T/r	Dars rejasi	Vahti
1.	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash.	2 daqiqa
2.	Videolavha yoki rasmlarni kuzatish. "Insoniy fazilatlar" matni ustida ishlash. "Aqliy hujum", "Klaster" metodlari. Slayd namoyishi (1-mashq)	10 daqiqa
3.	Grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi.	8 daqiqa
4.	Mustahkamlash mashqlari (2-3-mashqlarni yozma, 3-topshiriqni og'zaki bajarish) "Mening xalqim", "Yaxshi xulq – yaxshi husn" matnlari ustida ishlash	10 daqiqa
6.	Nutqiy mavzuni mustahkamlash. "Ma'naviyat saboqlari" ruknida ishlash (5-6-topshiriqlar)	7 daqiqa
7.	"Ikki o'rtoq" hikoyasini rollarga bo'lib o'qish	6 daqiqa
8.	Uyga vazifa va o'quvchilar bilimni baholash	2 daqiqa

### **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash.

2. Videolavha yoki rasmlarni kuzatish. Har biriga o'z munosabatingizni bildirgan holda o'zaro suhbatlashish (1-topshiriq). Ushbu kirish suhbatidan so'ng, darslikdagi 1-mashqda berilgan "Insoniy fazilatlar" matni o'qitiladi. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ularning antonimlarini topib doskaga yozdirish, so'ngra ularning har birini ta'riflash orqali yaxshi va yomon odatlarni qiyoslab tushuntirish, yaxshi odatlarning "fazilat" deb atalishi haqida tushuncha beriladi. Bunda o'quvchilarni hamkorlikda ishlatish va "Aqliy hujum", "Klaster" metodlaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Shundan so'ng 1-mashqda berilgan I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridan olingan parcha slayd vositasida namoyish qilinadi.

*Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman.*

O'quvchilar matnni o'qiydilar, matndagi asosiy fikrni ifodalovchi gapni, ya'ni “*Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi*” gapini ajratib, daftarlariga ko'chirib yozadilar.

3. Grammatik qoida bilan tanishtirish. O'qituvchi qo'shma otlarning kamida ikki asosdan iborat bo'lib, bir tushunchani ifodalaydigan so'zlar ekanligi, ular qo'shib yoki ajratib yozilishi haqidagi ma'lumot bilan tanishtiradi. Qo'shma otlarning imlosi bo'yicha quyidagi slaydni namoyish qilish maqsadga muvofiq:

***Qo'shib yoziladigan qo'shma otlar***

*belbog', yeryong'oq, gultojixo'roz, rahmdil, xushmuomala, oqko'ngil*

***Ajratib yoziladigan qo'shma otlar***

*sher yurak, oynai jahon, havo rang, Markaziy Osiyo, Umum Yevropa*

Ushbu ma'lumotlardan so'ng ijobiy va salbiy odatlar aks ettirilgan quyidagi slaydni namoyish etish ko'zda tutiladi:

***Ijobiy fazilatlar***

*mehribon*

*mehnatsevar*

*xushmuomala*

*rostgo'y*

*tirishqoq*

*aqlli*

***Salbiy odatlar***

*xasis*

*nodon*

*maqtanchoq*

*yolg'onchi*

*dangasa*

*loqayd*

4. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun 2-3-mashqlar yozma, 3-topshiriq og'zaki bajariladi. Ushbu topshiriqda shoir Hamid Olimjon qalamiga mansub “*Mening xalqim*” matni berilgan. Ushbu matnni o'qituvchining o'zi ifodali o'qib berishi, so'ng o'quvchilarga misollar yordamida tahlil qildirib, umumiy xulosa bildirilishi maqsadga muvofiq. 4-mashqda berilgan “*Yaxshi xulq – yaxshi husn*” matni ustida alohida ishlanadi. Avval matn o'qitiladi. So'ngra o'quvchilar matndan avval yaxshi xulqqa oid fazilatlarni, so'ng yomon xulqqa oid odatlarni ko'chirib yozadilar. 2-topshiriqda berilgan savollar yordamida insoniy fazilatlar, yaxshi va yomon odatlar, umuminsoniy fazilatlar va har bir xalqqa xos milliy fazilatlar haqida suhbatlashiladi.

5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash uchun “*Ma'naviyat saboqlari*” ruknida berilgan topshiriqlardan foydalaniladi. 5-topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarni zvenolar bo'yicha uch guruhga ajratish va har biri bittadan matnni muhokama qilib, shu bo'yicha o'z fikrlarini bildirishni tashkil qilish ham mumkin. 6-topshiriqda berilgan rivoyat matnini esa “*Zanjir*” usulida o'quvchilarning hammasini ishtirok

ettirgan holda o‘qitish, so‘ng matn oxirida berilgan savollarni birgalikda muhokama qildirish yaxshi natija beradi. Dars yakunida 7-topshiriqda berilgan “Ikki o‘rtoq” hikoyasi rollarga bo‘lib o‘qitiladi. So‘ng darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar baholanadi.

6. O‘quvchilarni baholash va uyga vazifa berish. Matn oxirida berilgan savollarga yozma javob berish orqali hikoyaga o‘z munosabatini bildirish uyga vazifa sifatida topshiriladi.

## 2-DARS

**Darsning ta’limiy maqsadi.** Juft otlar, ularning tuzilish xususiyatlari va imlosi haqida ma’lumot berish, nutqda qo‘llanishi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qildirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O‘quvchilarga kamtarlik, farosatlilik kabi yaxshi xulq-odobga ega bo‘lish har bir insonga xos xususiyat ekanligi uqtirish, umuminsoniy va milliy insoniy fazilatlarni egallashga chaqirish.

**Darsning jihozlanishi.** I. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari, H.Olimjon, Shukrullo, “Xalq maqollari”, “Hikmatlar xazinasi” to‘plamlari, slaydlar.

**Darsda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar.** Hamkorlik texnologiyasi, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Kim tez va to‘g‘ri topadi?” “Zanjir” metodlari.

T/r	Dars rejasi	Vahti
1.	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash.	2 daqiqa
2.	O‘tilgan mavzuni takrorlash (5-mashq) “Kamtarlik” matni ustida ishlash	8 daqiqa
3.	Grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi.	7 daqiqa
4.	Mavzuni mustahkamlash (6-7-mashqlar) “Farosat va farosatsizlik” matni ustida ishlash. “Klaster”, “Kim tez va to‘g‘ri topadi?” usullari	10 daqiqa
6.	Nutqiy mavzuni mustahkamlash. “Ma’naviyat saboqlari” ruknida ishlash (9-10-topshiriqlar)	10 daqiqa
7.	Adabiy o‘qish. “Shirin qanday qiz?” hikoyasini o‘qish. “Zanjir” usuli	6 daqiqa
8.	Uyga vazifa va o‘quvchilar bilimni baholash	2 daqiqa

### **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism. Uyga berilgan vazifa: “Ikki o‘rtoq” hikoyasi bo‘yicha fikrlarni o‘qitish va muhokama qildirish.

2. O‘tilgan nutqiy va grammatik mavzuni takrorlash uchun 5-mashqda berilgan “Kamtarlik” matni o‘qitiladi va o‘quvchilar diqqat-e’tibori ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning tuzilishiga va imlosiga qaratiladi. O‘quvchilarga **mehnatsevar, xushmuomala, xushfe’l, kamgap, shirinso‘z, rostgo‘y** so‘zlari tahlili qildiriladi. O‘quvchilar bu so‘zlar qo‘shma so‘zlar ekanligi, ular qo‘shib

yozilishini, shuningdek, ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar ham borligini aytadilar. So'ngra o'quvchilar diqqati **katta-kichik, pardoz-andoz, ota-ona, qarindosh-urug', do'st-birodar, bahs-munozara, obro'-e'tibor** so'zlariga qaratiladi va yangi grammatik qoidani tushuntirishga o'tiladi.

2. Grammatik qoidani tushuntirish. O'qituvchi tilimizda qo'shma so'zlardan tashqari juft otlar ham borligi, ular ikki so'zning ma'no jihatdan teng bog'lanishidan tashkil topishi va chiziqcha (defis) bilan yozilishi haqida ma'lumot beradi. Juft otlar – *u(-yu)* yuklamasi bilan bog'langanda, chiziqcha qo'yilmasligini misollarni qiyoslab alohida tushuntiradi: *ona-bola - onayu bola, bog'-bo'ston - bog'u bo'ston* kabi.

Juft so'zlarning tuzilishi bo'yicha quyidagi slayd namoyish qilinadi:

#### ***Juft so'zlarning tuzilishi***

1. Har ikki qismi mustaqil qo'llanadigan juft so'zlar

*Mehr-oqibat, yaxshi-yomon, opa-singil, g'am-tashvish, kecha-kunduz*

2. Bir yoki ikkala qismi mustaqil qo'llana olmaydigan juft so'zlar

*Shaldir-shuldir, bo'sh-bayov, alg'ov-dalg'ov, apil-tapil, dali-g'uli*

3. Mavzuni mustahkamlash uchun 6- va 7-mashqlar yozma bajartiriladi. O'quvchilar 6-mashqda berilgan "*Farosat va farosatsizlik*" matnini o'qib, undagi juft otlarni aniqlaydilar va guruhlariga ajratib ko'chiradilar. Bu mashqni doskada bajartirish va **hurmat-eh'tirom, mehr-oqibat, iliqlik, yaxshi kayfiyat, ishonch, e'tiqod, ixlos** so'zlarining ma'nolarini "Klaster" usulida sharhlatish yaxshi natija beradi. 7-mashqda esa o'quvchilar berilgan maqollarning davomini topib yozishlari so'raladi. Bunda "Kim tez va to'g'ri topadi?" usulini qo'llash mumkin.

4. Nutqiy mazuni mustahkamlash uchun "*Ma'naviyat saboqlari*" ruknida berilgan 9- va 10-topshiriqlar bajartiriladi. O'quvchilar 9-topshiriqda berilgan matnlarni ichlarida o'qib, har bir matn oxirida berilgan test topshiriqlaridagi javoblardan birini belgilash orqali savollarga o'z munosabatingizni bildirishlari kerak bo'ladi. Topshiriqni barcha bajarib bo'lgach, javoblar o'qilib muhokama qilinadi. O'quvchilar o'z tengdoshlarining hatti-harakatlarini baholash asnosida yaxshi odatlarni o'zlariga singdirib boradilar. So'ngra 10-topshiriqda berilgan voqeiy hikoya "Zanjir" usulida ovoz chiqarib o'qiydilar. So'ng har bir o'quvchi matnga mos sarlavha qo'yadi va nima uchun shu sarlavhani tanlaganini asoslab beradi.

5. Adabiy o'qish ruknida berilgan "Shirin qanday qiz?" hikoyasi o'qitiladi. Hikoya yuzasidan berilgan savollarga yozma javob yozish uyga vazifa sifatida topshiriladi.

6. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa.



## VII MAVZU. O‘ZBEKISTONNING SHIFOBAXSH O‘SIMLIKLARI (Bo‘lmoq fe’lining qo‘llanishi)

### 1-DARS

**Darsning ta’limiy maqsadi.** Bo‘lmoq fe’lining nutqda qo‘llanishi bo‘yicha ma’lumot berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari haqida ma’lumot berish, ularni asrab-avaylashga chaqirish.

**Darsning jihozlanishi.** “O‘zbekiston Respublikasi” ensiklopedik ma’lumotnoma,” *Shifobaxsh o‘simliklar*” risolalari, “Onamning hikoyalari” kitobi, Eson Rahimov she’rlari, slaydlar.

**Darsda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar.** Hamkorlik texnologiyasi,

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1.	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash.	2 daqiqa
2.	Rasmlar va berilgan savollar asosida suhat(1-topshiriq) “O‘zbekistonning o‘simlik dunyosi” matni ustida ishlash (2-topshiriq). Jadval tuzish (1-mashq)	10 daqiqa
3.	Grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi.	6 daqiqa
4.	Grammatik ma’lumotni mustahkamlash (5-mashqlarni yozma, 3-4-topshiriqlarni og‘zaki bajarish) “Zomin tog‘larida” matni ustida ishlash	10 daqiqa
6.	Nutqiy mavzuni mustahkamlash. She’riy matnlar ustida ishlash (6- mashq)	8 daqiqa
7.	Adabiy o‘qish. “Nozimaning guli” hikoyasi (5-topshiriq).	7 daqiqa
8.	Uyga vazifa va o‘quvchilar bilimni baholash	2 daqiqa

### **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash.

2. Rasmlar va berilgan savollar asosida O‘zbekiston tabiati haqida suhbatlashish (1-topshiriq). So‘ngra 2-topshiriqda berilgan “O‘zbekistonning o‘simlik dunyosi” matnini o‘qitish va o‘quvchilar e’tiborini matnda ajratib ko‘rsatilgan shifobaxsh o‘simliklar nomlari hamda bo‘lmoq so‘zining ma’nolariga qaratish. Ushbu topshiriq asosida 1-mashq bajartiriladi. O‘quvchilar quyidagi jadvalni daftarlariga chizadilar va matnda berilgan shifobaxsh o‘simliklar nomlarini jadvalga yozadilar:

<i>Tog' larda o'sadigan o'simliklar</i>	<i>Cho'llarda o'sadigan o'simliklar</i>	<i>Tog' oldi tekisliklarida o'sadigan o'simliklar</i>	<i>Tog' yonbag'irlarida o'sadigan o'simliklar</i>	<i>Vodiylarda o'sadigan o'simliklar</i>

2-mashq ham ushbu matn asosida bajariladi. Bunda o'quvchilar berilgan so'zlar tarkibidan avval shifobaxsh o'simliklar nomlarini, so'ngra oziq-ovqat sifatida ishlatiladigan o'simliklar nomlarini ikki guruhga bo'lgan holda ajratib yozib chiqadilar. So'ngra 3-mashqda berilgan namuna asosida oziq-ovqat sifatida ishlatiladigan o'simliklarga namunadagidek ta'rif beriladi:

*Namuna: Bu - sabzi. U palov pishirishda albatta kerak bo'ladi.*

O'qituvchi shu tarzda o'quvchilar diqqatini bo'lmoq fe'lining nutqda qo'llanish xususiyatlariga qaratadi va grammatik qoidani tushuntirishga kirishadi.

3. Grammatik mavzu bilan tanishtirish uchun darslikdagi qoida o'qitiladi va quyidagi slayd ko'rsatiladi:

### ***Bo'lmoq ko'makchi fe'lining qo'llanishi***

1. *Bo'lmoq ko'makchi fe'li* turli so'z turkumlariga qo'shib kelib, bog'lama vazifasini bajaradi. Masalan:

*Shifobaxsh o'simliklar ko'p kasalliklarga davo bo'ladi.*

*Birga birni qo'shsak, ikki bo'ladi. U shifokor bo'lmoqchi.*

2. *Bo'lmoq ko'makchi fe'li yetakchi fe'llarga qo'shib kelsa*, harakatni bajarish imkoniyatini ifodalaydi. Masalan:

*Bu o'simlikni iste'mol qilsa bo'ladi. Bu yo'ldan qishloqqa borsa bo'ladi.*

4. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 5-mashq yozma bajartiriladi. O'quvchilar o'zlari bilgan shifobaxsh o'simliklar va ular qaysi kasallikka davo ekanligini namunadagidek yozib chiqadilar: *Bu na'matak o'simligi hisoblanadi. U bosh og'rig'iga davo bo'ladi. Bu - anor. Uning mevasi ham, po'sti ham, sharbati ham turli kasalliklarga davo bo'ladi.* Ushbu topshiriqni bajarishda o'quvchilar 4-topshiriqdagi "Bilasizmi?" ruknida berilgan shifobaxsh o'simliklar haqidagi ma'lumotlardan foydalanishlari ko'zda tutiladi. So'ngra 3-topshiriqda berilgan "Zomin tog'larida" matni ustida ishlanadi. O'quvchilarga matnda keltirilgan o'simliklar nomlarini 1-mashqda berilgan jadvalga kiritish topshirig'i beriladi.

5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash uchun 6-mashqda berilgan she'rlar avval ifodali o'qitiladi, keyin har bir o'simlikning shifobaxsh xususiyatlarini daftarga namunadagi kabi raqamlab yozib chiqish vazifasi topshiriladi:

*Namuna: Ismaloq quyidagilarga davo bo'ladi:*

Adabiy o'qish ruknida berilgan "Nozimaning guli" hikoyasi (5-topshiriq) o'qitiladi va mazmunini so'zlatiladi.

6. O‘quvchilarni baholash va uyga vazifa: Qomusiy lug‘atlar yoki internetdan foydalanib, biror shifobaxsh o‘simlikning nimalarga davo bo‘lishi haqida ma’lumot yozib kelish.

## 2-DARS

**Darsning ta’limiy maqsadi.** *Bo‘lmoq* fe’lining nutqda qo‘llanishi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qildirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari va tabiatini asrab-avaylashga chaqirish.

**Darsning jihozlanishi.** “O‘zbekiston Respublikasi” ensiklopedik ma’lumotnoma, “Shifobaxsh o‘simliklar” risolasi, M.Yusuf she’rlari, slaydlar, “Asotirlar va rivoyatlar” kitobi.

**Darsda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar.** Hamkorlik texnologiyasi

T/	Dars rejasi	Vahti
1.	Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash.	2 daqiqa
2.	Videolavha yoki darslikda berilgan rasmlarni asosida suhbat (6-7-topshiriqlar asosida suhbat)	7 daqiqa
3.	Grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi.	6 daqiqa
4.	Grammatik ma’lumotni mustahkamlash. “Shifobaxsh o‘simliklar makoni” matni ustida ishlash (7-mashq, 8-topshiriq)	10 daqiqa
6.	M.Yusufning “Orol” she’ri (9-topshiriq)	8 daqiqa
7.	Adabiy o‘qish. “Eng xushbo‘y hid” rivoyati ustida ishlash (10-topshiriq).	10 daqiqa
8.	Uyga vazifa va o‘quvchilar bilimni baholash	2 daqiqa

### **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash.

2. Videolavha yoki darslikda berilgan rasmlarni kuzatish va o‘zaro solishtirish asosida o‘zlari yashaydigan hududdagi tabiat manzarasi va ekologik holat haqida suhbat tashkil etish (6-topshiriq). So‘ngra 7-topshiriqdagi suhbat matnini o‘qitiladi va unga munosabat bildirish so‘raladi.

3. Grammatik mavzu bayonida *bo‘lmoq* ko‘makchi fe’lining qo‘llanishiga xos xususiyatlar, jumladan, *-ma* bo‘lishsizlik qo‘shimchasi bilan qo‘llanganda, imkoniyat, xohish-istakning mavjud emasligi ma’nosining ifodalanishi haqida ma’lumot beriladi. Masalan:

*Bu o‘simlikni iste’mol qilib bo‘lmaydi.*

*Men shifokor bo‘lmayman // bo‘lmoqchi emasman.*

4. Mavzuni mustahkamlash uchun “Shifobaxsh o‘simliklar makoni” matni (7-mashq) ustida ishlanadi. O‘quvchilar matnni o‘qib, undagi shifobaxsh o‘simliklar nomlarini, ularning qayerlarda o‘sishini daftarlarida 1-mashq uchun chizgan

jadvallariga yozadilar. So'ngra 8-topshiriqdagi savollar asosida savol-javob o'tkaziladi. O'quvchilar oxirgi bandeda berilgan topshiriqqa binoan o'zlari bo'lgan dam olish oromgohlarida atroflaridagi ekologik muhit holati haqida o'z fikrlarini bildiradilar. 9-topshiriqda berilgan M.Yusufning "Orol" she'ri ham ekologik muammolar haqida bo'lib, o'quvchilar she'rni avval ifodali o'qiydilar, mazmunini o'z so'zlari bilan so'zlab beradilar.

5. Adabiy o'qish ruknida berilgan "Eng xushbo'y hid" rivoyati o'qitiladi (10-topshiriq) va savollarga javob berish orqali mazmuni so'zlatiladi.

6. Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash. Uyga vazifa: "Shifobaxsh o'simliklar" mavzusida ijodiy ish yozish.

## XULOSA

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tili fanini o'qitish jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyatdir. Ilg'or pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalardan foydalanish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish holatining sifat ko'rsatkichiga ega bo'lishiga olib keladi. Barkamol shaxs va malakali mutaxassislarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyati hamda uning samarasi ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuviga olib keladi.

2. Ma'lumki, ilg'or pedagogik texnologiyalar dastlab OTM, keyinroq AL va KHK o'quv jarayonida muvaffaqiyatli qo'llana boshladi, tatbiq etildi. Bugungi kunda ilg'or pedagogik texnologiyalar umumta'lim maktablaridagi ta'lim jarayoniga ham faol ravishda tatbiq etilishi shart va zarur.

3. O'zbek tili darslari jarayonini texnologiyalashtirish birinchi navbatda darsning ta'lim texnologiyasini yaratishdan, ya'ni darsning texnologik modeli va xaritasini tuzishdan boshlanadi. Ta'lim texnologiyalari sinflar kesimida, o'zbek tili fanining xususiyati va mavzular mohiyatidan kelib chiqqan holda yaratiladi.

Ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili ta'limi mazmuni yuqoridagi uch tarkibiy qismni o'z ichiga oladi va umumiy o'rta ta'lim maktablarning 2-9-sinflarida o'z ifodasini topadi.

4. O'zbek tili fani umumiy o'rta ta'lim maktablarning 2-9-sinflarida o'qitiladi. U 2-sinfdan 9-sinfgacha haftasiga 2 soatdan bir yilda 68 soat hajmida o'qitiladi. Bu 1-chorakda 18 soat, 2-chorakda 14 soat, 3-chorakda 20 soat, 4-chorakda 16 soatni tashkil etadi. 2 va 3-sinflarda o'zbek tili o'qitish asosan lotin alifbosidagi o'zbek alifbosi harflarining yozma va bosma shakllarini o'rganish, muayyan nutqiy mavzularda suhbatlar o'tkazishga yo'naltirilgan. Bu sinflarda rusiyzabon o'quvchiga o'zbek tili bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beriladi, ularga tilni egallash asoslari o'rgatiladi. 2-3-sinflarda o'quvchilarda o'zbek tili bo'yicha dastlabki bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Shunga ko'ra bu sinflarda murakkab ta'lim texnologiyalarini tatbiq qilish maqsadga muvofiq emas. Bu sinflarda asosan **o'yinli texnologiyalardan** foydalanish mumkin.

5. O'zbek tili fani 4-sinfdan ham nutqiy mavzularga asoslanilgan holda o'qitiladi. Bu mavzularni o'qitishda asosan o'yinli texnologiyalar, ayrim mavzularda Klaster va boshqa grafik organayzerlar, qisman, juda zarur vaziyatlarda "Aqliy hujum" texnologiyalaridan foydalanish mumkin.

6. O'zbek tili fani 5-sinfdan boshlab ham mazmunan, ham shaklan murakkablashib boradi. Nutqiy mavzular bilan bir qatorda bitta dars hajmida o'zbek tili morfologiyasi, xususan, so'z turkumlaridan olmosh, ot, unga xos bo'lgan kelishik kategoriyasi, qisman fe'l, fe'l zamonlari, sifat, son, ayrim bog'lovchi va ko'makchilar haqida grammatik ma'lumotlar ham berib boriladi. Bu sinfdan ham Klaster, grafik organayzerlar, qisman, juda zarur vaziyatlarda "Aqliy hujum" texnologiyalaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

7. O‘zbek tili fani 6-9-sinflarda nutqiy mavzular bilan birga ot, son, ravishlarning ma’noviy guruhlari, sifat darajalari, yordamchi so‘z turkumlari, o‘zbek tilida so‘z yasalishi, xususan, ot, fe‘l, sifat yasalishi, fe‘l nisbatlari, taqlidiy so‘zlar, o‘zbek tili sintaksisi: gaplarning ma’noviy turlari, uyushiq bo‘laklar, shaxsi ma’lum va shaxsi noma’lum gaplar, gap bo‘laklari, kirish so‘z va kiritmalar, ko‘chirma gaplar kabilar to‘g‘risida grammatik ma’lumotlar ham beriladi. Shunga ko‘ra o‘quvchilarda o‘zbek tili bo‘yicha muayyan bilimlar shakllanib, leksik xazinasini boyiydi, nutqi rivojlanib, ular o‘zbek tilida matn yaratish, suhbat uyushtirish, diktant yozish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi. Bu sinflarda mavzular mohiyatidan kelib chiqqan holda deyarli barcha pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tavsiya qilish mumkin. Ayniqsa, bu sinflarda hamkorlik texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki bu texnologiya o‘ziga kelayotgan bolalarda birgalikda ishlash, bir –birini qo‘llash malakalarini shakllantiradi. Faqat “Keys stadi” va “Loyihalash” texnologiyasini bu sinflarda qo‘llash o‘quvchilarga qiyinlik tug‘diradi. Chunki bu sinflarda o‘quvchilarga o‘zbek tilida loyihalash texnologiyasi va “Keys stadi”ga doir murakkab topshiriq va mashqlarni bajartirish maqsadga muvofiq emas. Bu texnologiyalarni o‘qituvchilar keyingi bosqichlarda - AL va KHK, OTM larida qo‘llashlari mumkin bo‘ladi.

8. O‘zbek tili fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish yo‘llari turli tuman. Ularni tanlash o‘qituvchining ixtiyorida. O‘qituvchi sinf, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, fanga oid mavzulardan kelib chiqqan holda o‘z darsida aynan qaysi ta’lim texnologiyasidan foydalanishini belgilab oladi. Buning uchun esa o‘qituvchining o‘zi innovatsion texnologiyalarni yaxshi bilmog‘i zarur. Shunga ko‘ra ushbu bobda aynan o‘zbek tili darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan innovatsion texnologiyalar haqida ma’lumot berildi. Texnologik model tuzganda uning Ta’lim usullari; Ta’lim shakli; Ta’lim vositalari qismi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra ular haqida batafsil ma’lumotlar berildi.

Ta’lim berish usuli, ta’limiy maqsadni amalga oshirish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi.

Ta’lim usullarini ta’limiy maqsadlarga erishish bo‘yicha ta’lim beruvchi (o‘rgatish) va ta’lim oluvchini (o‘rganish) hamkorlik faoliyatini yo‘li sifatida ko‘rsatish ular xususiyati va o‘quv faoliyatini natijalari bo‘yicha quyidagicha guruhlashtirish imkonini beradi:

1-guruh: tayyor o‘zlashtiruvchilik o‘quv faoliyati va ta’lim oluvchilarga bilimlarni 1-darajada o‘zlashtirishni ta’minlovchi, usullar;

2-guruh: esda qolganlarni tasvirlovchi o‘quv faoliyati va ta’lim oluvchilarga bilim va ko‘nikmalarni 2-darajada o‘zlashtirishni ta’minlovchi, usullar;

3-guruh: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o‘quv faoliyati va ta’lim oluvchilarga bilim va ko‘nikmalarni 3-darajada o‘zlashtirishni ta’minlovchi, usullar;

4-guruh: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4-darajada bilimlarni o‘zlashtirishni ta’minlovchi, usullar.

1-guruh ta'lim usullarining barchasini (yo'riqnoma berishdan tashqari) o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

2-guruh ta'lim usullarining barchasini (tajriba usulidan tashqari) o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

3-guruh ta'lim usullarining deyarli barchasini (Insert va Pinbord usulini faqat yuqori sinflarda) o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

4-guruh ta'lim usullarining barchasini umumiy o'rta maktablaridagi o'zbek tili darslarida qo'llash tasviya etilmaydi. Chunki bu usullar mustaqil ishlash, izlanish, loyiha tayyorlash kabi jarayonlarni nazarda tutadiki, o'zga tilli maktab o'quvchilari hali bunga tayyor emas. Bu usullarni ta'limning keyingi bosqichlaridagi o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

9. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish shakllari quyidagilardir:

*Ommaviy ish* (frontal) - barcha ta'lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo'yiladi.

*Jamoaviy ish* (kollektiv) - ham umumiy va guruhga taalluqli bo'lishi mumkin: 1) oldinda turgan ish rejasini hamkorlikda muhokama qilish; 2) majburiyatlarni bo'lish, hisobot shaklini tanlash; 3) xulosalarni muhokama qilish (tartib bilan alohida ta'lim oluvchilar fikrlari tingladi va muhokama qilinadi); 4) ma'qul xulosalarni shakllantirish (umumiy kelishuv bilan).

*Guruhli* - kichik guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish.

*Yakka tartibli (individual)* - o'quv topshirig'ini yakka o'zi bajarishi

Ta'kidlash zarurki, o'zbek tili darslarida guruhlariga bo'lgan holda ishlash ta'lim shaklining eng maqbul yo'llaridan hisoblanadi. Chunki bunda o'quvchilar bir-biri bilan maslahatlashadi, bir umumiy vazifani bajaradi, agar bir o'quvchi ishlamasa, guruhdagi barcha o'quvchilar yomon baho olishini bilishadi. Guruhlarda ishlash sinfda sog'lom raqobat muhitini uyg'otadi. Guruhlarni o'quvchilarning xohishiga qarab turlicha qiziqarli nomlar bilan nomlash mumkin. Masalan, "Optimistlar" guruhi, "Liderlar" guruhi va b. Hatto hazil tarzida ham nomlash mumkin – "Dangasalar" guruhi, "Olifta yigitlar" guruhi, "Tannoz qizlar" guruhi kabi. Shunga ko'ra o'zbek tili darslarida «Birgalikda o'qiymiz», «Arra», «O'ylang - Juftlikda ishlang - Fikr almashing» texnikalarining har biridan foydalanish tavsiya etiladi.

10. *Ta'lim vositalariga quyidagilar kiradi:*

1. Ta'lim berishning texnik vositalari (TTV);

2. Yordamchi ta'lim vositalari (YTV);

3. O'quv - uslubiy materiallar (O'UM).

Ko'rsatilgan ta'lim usullarining barchasini umumiy o'rta maktablaridagi o'zbek tili darslarida qo'llash tasviya etilmaydi. Chunki bu usullar mustaqil ishlash, izlanish, loyiha tayyorlash kabi jarayonlarni nazarda tutadiki, o'zga tilli maktab o'quvchilari hali bunga tayyor emas. Bu usullarni ta'limning keyingi bosqichlaridagi o'zbek tili darslarida qo'llash mumkin.

11. O'zbek tili darslarida sinf, o'quvchilarning tayyorgarligi, mavzularning mohiyatidan kelib chiqqan holda ko'rsatilgan barcha grafikli organayzerlardan foydalanish mumkin.

12. Ta'lim vositalarining so'nggisi o'quv - uslubiy materiallar (O'UM) hisoblanadi. Bu materiallarga yo'riqnoma berish, eslatma, nazorat varag'i, tezislar kiradi. Bulardan yo'riqnoma berish, eslatma, nazorat varag'ini o'zbek tili darslarida qo'llash tavsiya qilinadi.

13. Metodik qo'llanmaning 3-bobida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan texnologik yondashuv asosida o'zbek tili darslarini tashkil etish va o'tkazishga doir ishlanmalar, ya'ni ta'lim texnologiyalarining namunalari sinflar kesimida keltirildi. Ushbu namunalar asosida o'zbek tili fani o'qituvchilari boshqa mavzularning ham ta'lim texnologiyalarini yaratishi mumkin.

Shuningdek, mazkur bobda mualliflar tomonidan o'tkazilib kelinayotgan "Mahorat maktabi" tinglovchilari tomonidan tayyorlangan dars ishlanmalari ham namuna tarzida berildi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" Qonuni // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori . –T., 1997.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. –М.: Педагогика, 1995.
4. Слостенин В.А., Кедимова Л.С. Педагогика. Инновационная деятельность. – М.: Магистр, 1997.
5. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2000.
6. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T., 2001.
7. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. – T.: TESIS, 2001.
8. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. – T.: TESIS, 2001.
9. Ziyomuxammedov B., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –T. : Abu Ali Ibn Sino, 2001.
10. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T., 2003.
11. Qosimov A.X., Xoliqova F. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T.:TATU, 2004.
12. Qahhorova H., Muhamedova S. O'zbek tili. – T.: Universitet, 2004.
13. Mirzayev I. va boshqalar. O 'zbek tili . – T., 2004.
14. Muhiddinova X. va b. O'zbek tili. – T., 2006.
15. Rafiyev A. O'zbek tili (umumta'lim maktablarining rus guruhlari uchun darslik). 4-9-sinflar. –T., 2010.
16. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2006.
17. Ahmadaliyev A. M., Qosimov A. X. Innovatsion faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar. –T., 2006.
18. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 261 b.
19. Ishmuhamedov R.J. va boshq. Ta'limda innovatsiyalar.– T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008.
20. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2011.
21. Mirsaliyeva M. Pedagogik kollejlarda o'quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash . – T.: Fan va texnologiya, 2011.

### **Elektron ta'lim resurslari:**

- 1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)**
- 2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)**
- 3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)**
- 4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)**
- 5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)**
- 6. [www.nutq.intal.uz](http://www.nutq.intal.uz)**

